

IBADULLAYEVA SHAROFAT  
NURULLAYEVNA

**TA'LIM KLASTERI ASOSIDA INKLUYUZIV  
TA'LIM SAMARADORLIGINI  
OSHITISH**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
PEDAGOGIKA FAKULTETI

IBADULLAYEVA SHAROFAT NURULLAYEVNA

**TA'LIM KLASTERI ASOSIDA INKLUYUZIV TA'LIM  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

mavzusidagi  
MONOGRAFIYA

UO'K 373.5;376

KBK 74.202;74.3

I - 12

**Ibadullayeva Sh.N. / Ta'lim klasteri asosida inklyuziv ta'lif samaradorligini oshirish / Monografiya, Chirchiq: "Osiyo tur". - 2024. 128 b.**

**Ma'sul muharrir:**

**Qodirova F.U.** - Pedagogika fanlari doktori, professor.

**Taqrizchilar:**

**R.F.Teshaboyeva** Qo'qon davlat pedagogika instituti maxsus pedagogika kafedra mudiri v.b, p.f.f.d dotsent

**S.G.Abdullayeva.** Chirchiq davlat pedagogika universiteti maxsus pedagogika kafedrasи, p.f.d., prof. v.b dotsent

Ushbu monografiyada umum ta'lif maktablaridagi inklyuziv boshlangich sinflarida tahsil oluvchi imkoniyati cheklangan o'quvchilarning boshqa sog'lom bolalar qatorida teng huquqlilik asosida bilim olishidagi samarali omillarni aniqlash va ulardan foydalanishni ta'minlash, ta'lif klasteri asosida inklyuziv ta'lifni joriy etishdagi aniq maqsad va mohiyatni imkoniyati cheklangan bolalari bor oilalarga to'g'ri etqazishda mahalla faollarining ishtirokini ta'minlash, ta'lif muassasalaridagi ma'sul mutahassislarning o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan hamkorligini to'g'ri tashkil qilish bosqichlari tahlil qilinib amaliyatga joriy etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi huzuridagi O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Ilmiy Metodik kengashining 26.12.2023-yildagi 5-sonli yig'ilish qarori bilan ma'qullangan va nashrga tavsiya etilgan.

UO'K 373.5;376

KBK 74.202;74.3

ISBN 978-9910-9392-3-5

© Ibadullayeva Sh.N., 2024 y.  
© «Osiyo tur», 2024 y.

## KIRISH

Mustaqilligimiz poydevorini mustahkamlash hamda O'zbekistonni buyuk davlatga aylantirishda ta'lif tarbiya tishlarini oqilona yo'lga qo'yish, yoshlarni zamonaviy ilm fan madaniyat texnika va texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyevning qabul qilgan "2017-2021- yillarda Maktabgacha ta'lif muassasalari tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori yosh avlodni ma'nан va jismonan komol insonlar qilib tayyorlash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur qarorni amalga oshirish jarayonida bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Maktabgacha ta'lif muassasalari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o'quv reja va dasturlarini hamonoviy pedagogik texnologiya va metodlarini inobatga olgan holda takomillashtiriladi.

2017 yil 1- avgustdag'i "Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab -quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining far moyishi nogironlarni davlat tomonidan qo'llab - quvvatlash, ularni to'laqonli ta'lif olishi, jamiyat tomonidan qo'llab - quvvatlanishi, ularni sog'lomlar qatorida jamiyatga uyg'unlashib, ijtimoiy hayotda moslashib ketishiga oid chora-tadbirlarni takomillashtirishni ko'zda tutadi<sup>1</sup>.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishni beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning to'rtinchisi ustuvor yo'nalishida "aholini ijtimoiy himoya qilish, nogiron, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi "ni kuchaytirishga alohida e'tibor berildi<sup>2</sup>. Maktabgacha yoshdagi bolalarni qobiliyatlarini rivojlantirish, tarbiyalash va maktab

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 avgustdag'i "Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab -quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi far moyishi-T., 2017.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami.- T., 2017.- B.39.

ta'limiga tayyorlashda "Ilk qadam" dasturi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar asosida olib boriladi. Ushbu qaror bilan belgilangan kompleks tadbirdarning amalga oshirilishi natijasida yuqori sifatli maktabgacha ta'limning ta'minlashga, bolalarni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashga hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga muqobil dasturlari joriy etilishiga erishiladi 2017-2021 - yillarda qarorda belgilangan barcha yo'nalishlardagi ishlar Davlat maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Uzluksiz ta'limning ilk bosqichi sifatida maktabgacha ta'limga e'tibor bevosita shaxs rivoji, kamolotiga, baxtli farzandlarni voyaga yetkazishga g'amxo'rlik sifatida ifodalanadi. Shunday ekan ushbu qaror asosida amalga oshirilajak ishlar maktabgacha ta'lim tizimini, yanada takomillashtirib, samarali va zamonoviy ko'rinishga olib chiqadi. Zero taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk irodasi baquvvat, iymoni butun, zamonaviy fikrlaydigan, muayyan kasb hunarga ega bo'lgan yuksak salohiyatli kishilar hal etadi. Shu o'rinda alohida qayd etish zarurki, yurtimizda yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash voyaga yetkazish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Ta'lim-tarbiya islohoti haqida gapirar ekanmiz, uning mazmunini lo'nda qilib ifoda etish mumkin: bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak. Barkamol avlod deganda, avvalo, sog'lom nasl tushuniladi. Shu bois o'tgan yillar mobaynida yoshlarimizda nafaqat yuksak intellektual salohiyat, mustaqil fikr, keng dunyoqarashni shakllantirishga, balki ularni jismonan chiniqtirishga, ommaviy sportni rivojlantirishga, mamlakatimizning barcha hududlarida, xususan chekka qishloqlarda ham zamonaviy sport majmualari bunyod etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.<sup>3</sup> Kelajagi buyuk davlatda yashayotgan xalqni har tomonlama komil insonlar bo'lishi talab etiladi. Shaxsning komilligi deyilganda aqliy, axloqiy, ruhiy,

jismoniy va estetik jihatdan kamolotga erishgan kishilar tushuniladi. Bunday sifatlarga erishish uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, ko'pgina omillarga bog'liqidir.

Shaxs kamolotining eng asosiy omillari sifatida irsiyat (biologik), ijtimoiy muhit, ta'lim va tarbiya hamda faoliyk tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"<sup>4</sup> farmoni bilan Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturining "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchı yo'nalishida<sup>4</sup> maktabgacha ta'lim muassasalarini quayligini ta'minlash, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilashhamda ularni rivojlantirish chora tadbirdari turadi. 2017-yilda amalga oshiriladigan tadbirdar tufayli O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat test markazi zimmasiga aholining ijtimoiy nochor qatlamlarining sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida inklyuziv ta'lim tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha kompleks chora tadbirdar ishlab chiqarish topshirildi.

Vazirlar Mahkamasining shu boradagi qarori loyihasida quyidagi amaliy natijalar nazarda tutilgan:

- Nogiron bolalarni zarur maxsus adabiyotlar va o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlashni qamrab oluvchi inklyuziv tizimni yanada rivojlantirish;
- Inklyuziv ta'lim tizimi o'qituvchilariga imtiyozlar berish;
- Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish;
- Nogiron bolalarni uyda o'qitadigan pedagoglarning ishini

<sup>3</sup>O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" Qonuni / Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori - T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.

<sup>4</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"<sup>4</sup>gi PF-4947-son farmoni

rag'batlantirish.<sup>5</sup>

Mamlakatimizda ta'lism tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta'lism bilan qamrov darajasini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalgalashirib kelinmoqda.

Jumladan, maktabgacha ta'lism qamrovining oshishi, 11 yillik umumiyo'rta ta'lism tizimining joriy qilinishi hamda oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash ko'laming kengayishi munosabati bilan yuqori malakali mutaxassislariga nisbatan yuzaga kelayotgan ehtiyojni o'z vaqtida ta'minlash maqsadida so'nggi yillarda pedagog kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan 1 ta xorijiy va 4 ta mahalliy oliy ta'lism muassasasi faoliyat yo'lga qo'yildi, mazkur ta'lism sohasi bo'yicha xorijiy davlatlar bilan qo'shma ta'lism dasturlari tashkil etildi.

Shu bilan birga, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari uchun yuqori malakali kadrlar yetkazib berish borasida o'tkazilgan tahlil natijalari avvalo ta'lism sohasi uchun kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish, sohada ilg'or xorijiy tajribani keng joriy etish, pedagogik ta'lism infratuzilmasini yaxshilash zarurligini ko'rsatmoqda.

Pedagogik ta'lism sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo'shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg'or ta'lism texnologiyalarin joriy etish hozirgi kun talabi hisoblanadi.<sup>6</sup>

<sup>5</sup>O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakattar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola.

<sup>6</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldag'i "Pedagogik ta'lism sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son qarori

## I BOB INNOVATSION TA'LIM KASTERI ASOSIDA INKLIZIV TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHNING ILMY-NAZARIY ASOSLARI

### 1.1 Ta'lism klasteri manfaatlari hamkorlikning innovatsion mexanizmi sifatida

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lism tizimida qator islohotlar amalgalashirib kelinmoqda. Ushbu islohotlar asosida jamiyatda o'qituvchilik kasbining mavqeini yanada mustahkamlash, sohaga ilg'or xorijiy tajribalar va innovatsiyalarni jalb qilish, ta'lism-fan-ishlab chiqarish fahilligini ta'minlash, ta'lismning asosiy va yordamchi tuzilmalarini zamonga mos holda takomillashtirish, ta'lism jarayonida o'zini namoyon qila olgan o'quvchilar bilan ish tizimini rivojlantirish kabi yo'nalishlarni qamrab olgan.

Pedagogik ta'lism innovatsion klasteri ushbu islohotlarni amalgalashirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu ilmiy-pedagogik muammo o'zining innovatsion xarakteri, xorijiy tajribalardan muvaffaqiyatli o'tgani va ta'lism turlari shu jumladan, ta'lism tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni ta'minlay olishi bilan ham mamlakatimiz ta'lism tizimiga mosligi bilan ahamiyatlidir.

Bugungi kunga kelib, jahonda yangiliklarga va asl texnologik yechimlarga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Shuni inobatga olgan holda, integratsiyalashuv jarayonining yangi, zamonaviy usullaridan biri sifatida ommalashib borayotgan klaster yondashuvining ilmiy-pedagogik jihatlarini tahlil qilish, uning samarador usul ekanligini ilmiy-nazariy asoslab berish, amaliyotga joriy etish yo'llari bo'yicha takliflar ishlab chiqish bugungi kun pedagogikamizning bosh masalalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu borada xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan tizimli ishlar ushbu tushuncha muayyan subyektlarning o'zaro hamkorlik aloqalarini tizimli shakllantirish va ma'lum maqsadlarga erishish yo'lida birgalikda faoliyat yuritadigan yagona tashkiliy

tuzilmaga birlashishini anglash jarayonini takomillashtirishni ko'rsatmoqda.

Klaster doirasida bir qancha subyektlarni o'zaro hamkorligini ta'minlash murakkab, ko'p tarmoqli ilmiy-amaliy jarayon. O'zaro bog'liq bir qancha faoliyat turlarini umumiy maqsad atrofida yig'ish aniq hisob-kitoblarni va ilmiy yechimlarni, yakuni kafolatlangan loyihalarni talab qiladi va shu bilan klaster subyektlarining ishonchini qozonadi. Klaster byurokratik va ma'muriy yo'llar bilan amalga oshirib bo'lmaydi.<sup>7</sup>

Klaster muayyan obyektlarning bir maqsad yo'lida birlashish jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqotchilar klaster haqida fikr bildirib, unda "...butun qismlar yig'indisiga teng emas, u qismlar yig'indisidan ko'p ham, kam ham emas, bu sifat jihatdan farq qiladi. Shuningdek, qismlarni uyg'unlashtirishning yangi prinsipi ham mavjud bo'lib, bu unga kiritilgan qismlarning umumiy rivojlanish sur'atini aniqlashdan iborat. Tashkilotning evolyutsiyasida ijtimoiy, geosiyosiy yaxlitlashuvni yaratish uchun to'g'ri yondashuvlarni ishlab chiqish katta ahamiyatga ega"<sup>8</sup>, deydi.

Pedagogik ta'limg innovatsion klasterining ilmiy-nazariy va amaliy yechimini topishni o'zining asosiy strategik tadqiqot yo'nalishlarini ishlab chiqish zarur. Bu vazifalar pedagogik ta'limg innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Shuningdek, pedagogik ta'limg jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamонавиyl talablar, tizimdagи mavjud bo'lgan muammolar va ularga yechim topishda fan va ta'limg bo'g'inlari o'rtaqidagi tarqoqlik bugungi kunda uzlusiz pedagogik ta'limg klaster rivojlanish modeliga o'tkazish zaruratini talab etmoqda.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari miqyosida ta'limg klasterlarini tadbiq etishning ilmiy-nazariy asoslari, shu bilan birga, kasbiy ta'limg klasterini

takomillashtirish A.Leontyev, B.Pugacheva, G.Muxametziyanova, faoliyat olib borish va pedagogik loyihalash nazariyasi V.Davidov, B.Lednev, G.Ibragimov, V.Slastenin ta'limgda uzlusizlik konsepsiysi B.Gershunskiy, V.Goremiko, A.Novikov, kasbga yo'naltirishda ta'limg tizimining shaerikchilik hamda menejment bilan bog'liq muammolari P.Anisimov, V.Panasyuk, Ye.Korchaginlar ishlarida o'z aksini topgan.

Xorijiy tadqiqotchilar orasidan M.Porter, A.Marshall, O.Solvell C.Ketels, G.Lindqvist, kabi olimlarning izlanishlarida ta'limg tizimida ta'limg klasteri bir nechta qismlarning o'zaro shaerikchilik hamda yagona maqsad asosida birlashish bilan bog'liq jarayon sifatida ta'kidlangan.

Bugungi kunda Respublikamizda ham pedagogik ta'limg innovatsion klasterini ilmiy-nazariy asoslarini o'rganib chiqgan va amaliyotga tadbiq qila olgan tadqiqotchilarimiz talaygina.

Pedagogik ta'limg klasteri bo'yicha Toshkent viloyati tajribasi sifatida e'tirof etilayotgan keng qamrovli ilmiy-amaliy loyihaning pirovard maqsadi hududda makktabgacha, xalq ta'limi, oliy ta'limg va xalq ta'limi tizimining salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan. Pedagogik ta'limg klasteri bo'yicha Toshkent viloyati tajribasi sifatida ommalashayotgan innovatsion loyiha hududdagi ta'limg subyektlarining salohiyatidan unumli foydalanish, ta'limg tizimi, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, o'zaro nazorat tamoyiliga asosan ish yuritishni nazarda tutadi.

Pedagogik ta'limg innovatsion klasteri uzlusiz ta'limg tizimidagi ta'limg turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot joylari, ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarning bir butunligi bo'lib, ularning birgalikdagи vazifalar taqsimlangan faoliyati pedagogik ta'limg tizimini sifat jihatidan yangi jihatini ochib beradi. Jumladan, klasterning asosiy maqsadi o'z tarkibiga kiruvchi ta'limg ilmiy-innovatsion salohiyatni nafaqat yuqori kasbiy layoqatlilik darajasi bilan, balki raqobatbardoshligi, yangiliklarni qabul qila olish qobiliyati, yangi ta'limg dastur va texnologiyalarini loyihalash

<sup>7</sup> U.N.Xo'jamqulov Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasi. Chirchiq 2020. 19-bet.

<sup>8</sup> Кривых, СВ., Макареня, А.А. Педагогическая антропоэкология. Педагогика жизнедеятельности. - СПб.: ГНУ ИОВ РАО, 2003. - 360 с.

jarayonida amalga oshira olish qobiliyatiga ega zamonaviy ta'lim mutaxassislarini tayyorlash uchun birlashtirishdir.

Shuni ta'kidlash joizki, jamiyatimizning bugungi taraqqiyot bosqichida pedagogik ta'lim innovatsion klasteri ta'limda ichki va tarmoqlararo aloqadorlikni ta'minlaydigan, ilmiy tadqiqotlar, ilmiy-metodik tashkilotlarda to'plangan tajriba va erishilgan ilmiy yutuqlarni ta'lim hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalarida namoyon bo'lishini samarali amalga oshiradigan yaqin kelajakdag'i eng muhim tizim sifatida ko'rilmoxda. Bunda ta'lim tashkilotlari va jamiyat boshqa manfaatdor tomonlarining o'zaro uzviy va uzlusiz hamkorligini ta'minlash, ta'lim jarayonining mahsuli – har tomonlama yetuk pedagog kadrlarni tayyorlash va jamiyatga foyda keltirishi uchun ilmiy, ijodiy, ma'naviy, iqtisodiy imkoniyatlar yaratish maqsadga muvofiqliр. Chunki kadrlar bilim saviyasi va raqobatbardoshligini iqtisodiy tashkil etish, sanoat, qishloq xo'jaligi va jamiyatning boshqa sohalari taraqqiyoti va raqobatbardoshligining asosi hisoblanadi.

Pedagogik ta'lim klasteri sharoitini Respublikamizda joriy qilish yuzasidan ilk bor G.I.Muhamedov tomonidan g'oyalari ilgari surildi. G.I.Muhamedov ta'kidlashlaricha klaster tizimi har biri alohida faoliyat yuritayotgan subyektlarni umumiylar maqsad atrofida birlashtiradi va ushbu hamkorlik asosida har bir subyekt umumiylar maqsaddan kelib chiqqan holda xususiy manfaatdorlik asosida ish jarayonini tashkil etadi. Klaster tizimi subyektlari bir-birini qo'llab-quvvatlaydi va o'zaro bir-birlarini nazorat qiladi, har biri alohida klasterning ma'naviy va intellektual maydonini yaratadi, ijtimoiy ta'siri hamda mohiyatini kengaytiradi.

U.N.Xo'jamqulov tomonidan, pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari hamda ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash yuzasidan tadqiqot ishlari olib borilgan va bu asosida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyanlari klaster tizimidagi yondashuvni asosida shakllantirish bo'yicha pedagogik oliy ta'lim muassasalarining ilmiy va amaliy yo'nalishlarda faoliyat samaradorligini oshirishga erishilgan. Shu bilan birga yurtimizda pedagogik

ta'limga qo'yilgan talablarga ustuvorlik berish asosida ishlab chiqilgan pedagogik ta'lim innovatsion klasteri milliy modeli (subyektlar aloqasi, yo'nalishlar tavsifi, amalga oshirish jihatlari, natijalarning samaradorligi) g'oyasi va ta'lim tashkilotlarining klaster hamkorlik tamoyillari bo'yicha ilmiy xulosalaridan ta'lim tashkilotlarida loyihalash metodi ("Dyui usuli") asosida klaster aloqadorlik dasturlarini ishlab chiqishga muvaffaq bo'lgan. Natijada, viloyat maktabgacha ta'lim muassasalari, xalq ta'limi va oliy ta'lim tashkilotlari aloqasini klaster vositasida rivojlantirish usullari takomillashtirishga erishgan. Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslarni o'rganmay turib, o'z tadqiqot ishimiz mazmun mohiyatini ochib bera olmaymiz. Shu sababli bu ishni o'rganish biz uchun muhim hisoblanadi.<sup>9</sup>

G.N.Sharipova tadqiqotlariga ko'ra, talabalarning o'zini o'zi aqliy, ma'naviy-axloqiy va faoliyatli amaliy rivojlantirish kompetensiyani tashkil etuvchi komponentlari (motivatsion-qadriyatli, shaxsga yo'nalganlik, kognitiv va refleksiv) innovatsion ta'lim klasteri subyektlari faoliyatining uzlusizligini ta'minlash orqali ehtiyojlarining iyerarxik modeli (Maslou piramidasи) ga tayangan holda takomillashtiriladi. Innovatsion ta'lim klasteri sharoitida talabalarda o'zini o'zi rivojlantirish malakalarini takomillashtirishning integrallashgan o'quv-metodik taminlanganligi (adaptiv, kognitiv, integrativ-faoliyatli) bosqichlari mohiyati (didaktik, mantiqiy, pedagogik kompetentlik tamoyillariga ko'ra) shakllantiriladi.

G.N.Sharipova tomonidan, kadrlar tayyorlash sifati yaxshilash uchun talab etilayotgan kompetentli yondashuv talablari asosida auditoriyadan tashqari holatlarda ham emotsiyal-obrazli, intellektual-ijodiy va korreksion-rivojlantiruvchi xarakterdag'i mashg'ulotlarni tashkil etish orqali takomillashtiriladi. Innovatsion ta'lim klasteri sharoitida talabalarning o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasini shakllanganlik bosqichlarini (o'zini o'zi anglash, hissiy

<sup>9</sup> U.N.Xo'jamqulov Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasi. Chirchiq 2020. 19-bet.

barqarorlik, yetuklik, produktiv, reproduktiv, qismanizlanishli, ijodkorlik) diagnostika qilishning tahlil, loyihalash, anketa va bashoratlash komponentlari funksiyalarini integrativ barqarorlashtirish orqali obyektiv baholash imkoniyatlari o'chib berilgan. Shu bilan birga, pedagogik ta'limga klasteri sharoiti va muhiti, kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarini kreativ fikrlash va ularda o'zini o'zi rivojlantirish malakasini shakllantirishga qaratilgan ijodiy mashqlar va amaliy topshiriqlar tizimini shakllantirishga muvaffaq bo'lgan, innovatsion ta'limga klasteri sharoitida bo'lajak o'qituvchilar o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish modeli va uni amaliyotga tatbiq etishning ilmiy o'quv-metodik ta'minoti ishlab chiqilgan.

Izlanishlar natijasida, innovatsion ta'limga klasteri muhitida bo'lajak o'qituvchilarning o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasining shakllanganligi bosqichlarini diagnostika qilishning tahlil, anketa, loyihalash va oldindan ko'ra bilish komponentlari funksiyalarini integrativ barqarorlashtirish orqali obyektiv baholashga oid metodik tavsiyanomalar ishlab chiqilgan. Yuqorida sanab o'tilgan kompetentli yondashuv talablari bo'lajak defektologlarni inklyuziv ta'limga tayyorlash jarayonida ham muhim o'rinni egallaydi.<sup>10</sup>

D.E.Qarshiyeva tadqiqotlari asosida innovatsion ta'limga klasteri vositasida bo'lajak o'qituvchilarini kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish maktab malakaviy amaliyoti misolda o'rganilgan. Izlanishlarga ko'ra, talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari bo'lajak o'qituvchilarning motivatsion va aqliy, o'quv-bilish faoliyatini malakaviy amaliyot bilan integratsiyalash kategoriyalari hamda kompetentlikka asoslangan holda ko'p bosqichli malakaviy amaliyot mexanizmlarini pedagogik ta'limga o'quv jarayoni mazmuniga izchillik, ketma-ketlilik, uzviylik va uzlusizlikni ta'minlagan holda singdirish asosida takomillashtirilgan, bu bilan birga, talabalarning malakaviy amaliyot vositasida kasbiy

<sup>10</sup> G.N.Sharipova Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasi. Chirchiq 2021. 20-bet.

kompetentligini shakllantirishda Yevropa "maktab klasteri" (European "School cluster" structure - ESC) dan foydalanishning matnli, audio orqali, yordamchi, modelli didaktik imkoniyatlari pedagogik ta'limga innovatsion klasterining tabiiy hamkorlik, yo'naltirilganlik, umumiy maqsad sari birlashish kabi tamoyillarini maktab malakaviy amaliyot jarayonida variativ asosda qo'llash orqali o'chib berilgan.

Pedagogik ta'limga innovatsion klaster yondashuvni vositasida kasbiy kompetentlikka asoslangan maktab malakaviy amaliyoti modeli va uning kasbga yo'naltiruvchi-adaptiv, integrallashgan tashkiliy komponentlari talabalar kognitiv faoliyatining tanishuv-bilish, tushunish-qo'llash, tahlil-umumlashtirish, refleksiya-baholash algoritmik darajalarini tizimlashtirish va muvofiqlashtirish asosida ishlab chiqilgan. Sanab o'tilgan har bir bosqichlar bo'lajak logopedlarni tayyorlash tizimiga ham daxldordir. Shu bois muallif tomonidan amaliyotga tavsiya etilgan takliflardan shakllantiruvchi tajriba sinov ishlarimizda foydalanish maqsadga muvofiqdir.<sup>11</sup>

A.X.Boymurodov tomonidan, umumiy o'rta ta'limga tizimida informatika va axborot texnologiyalar fanini o'qitishning innovatsion klaster modeli ishlab chiqilgan. Bu modelga ko'ra, umumiy o'rta ta'limga tashkilotlarida "Informatika va axborot texnologiyalar" fani mohiyatini klasterli yondashuv asosida takomillashtirish orqali zamonaviy ta'limga texnologiyalarini aloqadorlik, uzviylik, ketma-ketlilik, izchillik, vorisiylik, zamonaviylik, yo'naltirilganlik, manfaatdorlik tamoyillari asosida tatbiq etish imkoniyatlari aniqlangan, umumiy o'rta ta'limga tizimida "Informatika va axborot texnologiyalar" fani yuzasidan innovatsion klasterlarni tashkil qilish shakllari sifatga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga ustunlik berish asosida ishlab chiqilgan, umumta'lim tashkilotlarda "Informatika va axborot texnologiyalar" fanini o'qitishning o'quv-metodik ta'minlanganligi ya'ni (elektron darsliklar, video va audio vositalar, testlar, fanga oid qo'shimcha adabiyotlar)

<sup>11</sup> D.E.Qarshiyeva Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasi. Chirchiq 2021. 20-bet.

Kontentlarni Boshqarish Tizimining (CMS-controm menagement system) virtual o'quv muhitini tashkil etish imkoniyatlaridan keng foydalanish (klaster loyihalari, forumlar, elektron kutubxona, elektron jurnallar) asosida shakllantirilgan. Ushbu tadqiqotlar natijasida, umumta'lim tashkilotlarida "Informatika va axborot texnologiyalari" fani yuzasidan ta'lif sifatini oshirishda klaster yondashuvini amaliyatga tadbiq etish orqali erishish, umumiyo'rta ta'lifda fanni o'quv jarayonini tashkil etishda zarur pedagogik shart-sharoitlar bilan ta'minlash maqsadida ilmiy metodik ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqilgan, hududiy ta'lif klasterini sahllantirish maqsadida SMC (controm menagement system) tizimida "Informatika va axborot texnologiyalari" fani yuzasidan va oliy ta'lif tashkilotlari professor-o'qituvchilar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, fanga doir tajriba almashish, o'quvchilar bilim darajasini aniqlashda, onlayn testlar, audio, video, didaktik materiallar bilan ta'minlash, metodik yordamni tashkil etish maqsadida pedagogik dasturiy vosita (on-line platforma [www.tvcluster.uz](http://www.tvcluster.uz)) ishlab chiqilgan va bundan amaliyotda foydalanib kelinmoqda. Bugungi kunga kelib axborot texnologiyalar jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda va innovatsion g'oyalarni shakllantirish uchun har bir bo'lajak pedagog ushbu jarayonda ishtirokchi bo'lishi muhimdir. Inklyuziv ta'lif tizimiga logopedlarni tayyorlash jarayonida ham axborot texnologiyalarini bilish muhim, chunki inklyuziv sinflarda o'qituvchi variativ yondashgan holda dars jarayonini olib borishi talab etiladi. Buni inobatga olgan holda ushbu tadqiqot ishini o'z izlanishlarimizga daxldor deb hisoblaymiz. Masofaviy ta'lif elementlaridan hamda mustaqil ta'lif jarayonida talabalarning o'quv-tarbiyaviy trayektoriyasini natijaga yo'nalgan holsa tashkil etish shakllaridan bo'lajak logopedlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda foydalanish maqsadga muvofikdir. Bu jarayon axborot kommunikatsiya texnologiyalarisiz amalga oshmaydi<sup>12</sup>

<sup>12</sup> A.X.Boymurodov Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertasiysi. Chirchiq 2021. 18-bet.

S.A.Toshtemirova klaster yondashuvni asosida umumiyo'rta ta'lif tashkilotlarida ta'lif sifatini oshirish yuzasidan o'z tadqiqot ishlarini olib borgan. Izlanishlar asosida maktab va oliy ta'lif o'rtasidagi klasterli yondashuv asosida ta'lif sifatini oshirish borasida o'z fikrlarini bildirib o'tgan. Ta'lif klasterida ijtimoiy buyurtmani belgilash shartligi borligini, shu bilan birga, ijtimoiy buyurtma modelini ishlab chiqgan.<sup>13</sup>

Respublika hududida oliy ta'lif tizimida fanlarni o'qitish jarayoniga dunyoning mashxur tendensiylarini namoyon etish, unluksiz ta'lif tizimida o'zaro manfaatdor tomonlarning hamkorligini kuchaytirish, maqsadlarni umumlashtirish, ta'lif jarayoniga yangi texnologiyalarini joriy etishning me'yoriy asoslarini yaratildi.

Buning natijasida, Chirchiq davlat pedagogika universitetining markaziy ilmiy tadqiqot faoliyati Pedagogik ta'lif innovatsion klasterini amaliyatga maqsadli, mazmunli tadbiq etishga yo'naltirildi. Natijada innovatsion klaster muhitida oliy ta'lif tizimida modullarni o'qitish sifatini yaxshilashga mo'ljallangan o'quv-amaliy mashg'ulotlarni tegishli tashkilotlarda tashkil etish orqali amalga oshirish, bo'lajak defektologlarni kasbiy faoliyatga iloji boricha erta va samarali tayyorlash, maxsus ta'lif tashkilotlarida bolalar bilan ishlashning moddiy texnik, didaktik ta'minotini yaratishga keng imkoniyatlar yaratiladi.

Ma'lumki, inklyuziv ta'lifda maxsus ta'lif ehtiyojidagi bolalar barcha bolalar bilan birga ma'lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiriladi. Maxsus ta'lif aqliy, jismoniy tashqi ko'rinishga muvofiq amalga oshirilsa, inklyuziv ta'lif bolaning qobiliyati va imkoniyatlariga ko'ra belgilanadi. Maxsus ta'lif o'qitishning maxsus va alternativ dasturlari orqali o'qitilsa, inklyuziv ta'lif bolaga yo'naltirilgan va moslashtirilgan, yo'rqnomalii, barchaga mo'ljallangan o'quv dasturi asosida o'qitiladi.

Inklyuziv ta'lifning o'ziga xos muhim jihatni shundaki, bolalar va o'qituvchi bir birlaridan o'rganishadi hamda muammolarni

<sup>13</sup> S.A.Toshtemirova Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasi. Chirchiq 2021. 18-bet.

birgalikda hal etishadi. Bu ta'lim bir tomonlama bo'lmasligi kerak. Imkoniyati cheklangan bolada o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, ko'nikma va qobiliyatini rivojlantirish, yoshligidan o'rganishni rag'batlantirishda oila ishtiroki muhim. Inklyuziv ta'lim jarayonida ota-onalar bilan ishlash ham muhim. Ta'kidlash joizki, alohida ehtiyojli ota-onalarga ularning farzandlari jamiyatning bir bo'lagi bo'lish huquqiga ega ekanini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga yetkazish kerak.

Yana bir sifat - hamkorlikni yo'lga qo'yish. Chunki o'qituvchilar uchun hamkorlik va o'zaro fikr almashish muhimdir. O'qituvchi o'z faoliyatini tizimli baholab borishi, muntazam malakasini oshirishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bor bolalarning intizomli va muassasalar aro guruqlar bilan samarali ishlashi uchun liderlik hamda boshqaruv malakalarini qo'llash, muammolarni birgalikda hal qilish, keng qamrovli maktab hamkorligini yo'lga qo'yish kabi xislatlarga ega bo'lish kerak. Mamlakatimiz ta'lim tizimida bu masalaga alohida e'tibor qaratadi.

Rivojlangan mamlakatlar AQSH, Yaponiya, Xitoy, Fransiya, Germaniya, Singapur, Rossiyada bo'lajak defektologlarni, ota-onalarni, tor mutaxassislarni korreksion va inklyuziv ta'lim amaliyotiga tayyorlashda interfaol metodlar, adaptiv o'quv vositalaridan samarali va o'rini foydalana olish, maktabgacha va maktab ta'limi mazmuniga kommunikativ - motivatsion, refleksiv-rivojlantiruvchi talabalarni joriy etishning didaktik ta'minotini yaratish, mentor-o'qituvchi, mentor-talaba, hamkor-oila faoliyatiga talabalarni tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash texnologiyalarini tizimlashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ta'lim mazmunini xalqimizning milliy qadriyatlari, tarixiy obidalari xususidagi ma'lumotlar bilan boyitish, ilg'or pedagogik texnologiya va axborotlarni kiritish kabi bir qator chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish davr talabi ekanligi davlatimiz tomonidan aniq belgilandi. O'tgan qisqa vaqt mobaynida mamlakatimizning barcha jahbalarida ta'lim islohotlari izchil va tezlik bilan amalga oshirilib, ko'plab

ijobiy natijalarga erishildi. Bu **o'rinda** jamiyatimizning bir qismi bo'lgan ijtimoiy himoyaga muhtoj imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim-tarbiya olishi uchun qulayliklar yaratish davlatimizning alohida e'tiborida bo'lib kelmoqda. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 23-moddasiga binoan psixik va jismoniy muammolari bo'lgan bolalar va o'smirlarni ta'lim olishi va sog'ligini muhofaza qilish uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida maxsus ta'lim muassasalari tashkil qilingan.

Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalar va o'smirlar ta'limi, ularning nuqson turlari va uning darajalarini inobatga olgan holda maxsus ta'limning 8 yo'nalishi (aqli zaif, ruhiy rivojlanishi sustlashgan, nutqida, ko'rishida va eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar) bo'yicha korrektcion ta'lim tashkil etilgan. Maxsus ta'lim tizimi va mazmunini takomillashtirish, moddiy-teknik bazasini rivojlantirish, maxsus ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiya, axborot vositalarini qo'llash, o'quv-metodik asoslarini yaratish, dastur va darsliklar bilan ta'minlash borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Qonunchilik tomonidan ma'lum toifadagi bolalar uchun o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishda imtiyozlar belgilangan. Shuningdek xalqaro miqyosda ta'lim islohotini demokratlashtirish va diskriminatsiyaga qarshi kurashish natijasida jamiyatning dunyoharashi o'zgarib, har xil toifadagi kishilar orasida yangicha yondashuv, o'zaro hurmat, ijobiy munosabat shakllandi. Maxsus ta'lim sohasining rivojlanishini qayta ko'rib chiqish siyosati amalga oshirila boshlandi. Ko'plab mamlakatlar «Segregatsiya» ta'limidan voz kechib, imkoniyati cheklangan bolalarga integratsion ta'limni tadbiq qilishni lozim topdi. Buning mamlakatimizda asosiy e'tibor imkoniyati cheklangan bolalarni tabaqlashtirilgan maxsus ta'lim muassasalarida o'qitishga qaratilgan bo'lib, ushbu ta'lim tizimi rivojlangan. Keyingi 10-15 yil davomida O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim tizimiga kiritish integratsiya na inklyuziv usulida o'qitish, tarbiyalash masalasi ham amalga oshirib kelinmoqda. Integratsiya va inklyuziv ta'lim strategiyasi himga jalb qilinmagan bolalarni umumta'lim muassasalari ga

to'laqonli maxsus yoki inklyuziv ta'limgiz tizimiga integratsiya qilish, korreksion ta'limgiz muassasasi bolalarning turar joyidan uzoqligi sababli o'zi yashab turgan hududlaridagi ta'limgiz muassasalariga kiritib o'qitishdan iborat.

Shuni ta'kidlash joizki, inklyuziv ta'limgiz sharoitida bola sog'lom tengdoshlari orasida bo'lib, oilasidan ajralmagan holda ta'limgiz-tarbiya olishga tuyassar bo'ladi. Hozirgi kunda jahon miqyosida keng targ'ibot qilinayotgan inklyuziv ta'limgiz strategiyasi, ya'ni rivojlanishida muammolar bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash masalasi O'zbekistonda ham dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Respublikada inklyuziv ta'limgiz siyosatini keng joriy kdipishga qaratilgan chora-tadbirlar, xalqaro va milliy ish tajribalarini o'rganish davlat va nodavlat tashkilotlarning hamkorlik loyihalari, jumladan: Xalqaro UNESCO, UNICEF, Osiyo Taraqqiyot Banki, Osiyo mintaqasi Yaponiyada joylashgan UNESCOHHr madaniy markazi (ACCU), US AID, «MERCY PROJEKT», «OPERATION «MERCY» nodavlat tashkilotlari, «Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi» (RBIMM), «Sen volg'iz emassan», «Ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash fondi» (ITKKF), Xalq ta'limgiz vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'limgiz vazirligining pedagogika yo'nalişidagi institutlari, xalq ta'limgiz xodimlarini malakasini oshirish, qayta tayyorlash va milliy nodavlat jamoa tashkilotlarining hamkorlik loyihalari asosida respublika va xalqaro seminar, konferentsiya, forumlarni o'tkazish, targ'ibot-tashviqot ishlari asosida amalga oshirib kelinmoqda.

Tajriba shuni ko'rsatdiki, «Inklyuziv ta'limgiz»ni joriy qilishning o'ziga xos xususiyatlarini, ya'ni mamlakatimizning ijtimoiy, siyosiy, madaniy rivojlanishini, milliy qadriyatlarimizni e'tiborga olishimizni taqozo etadi. Inklyuziv ta'limgizni amaliyatga joriy qilishning maqsad, vazifalari, ta'limgiz tashkil etish usullarini ommaga tushuntirishda hali qator muammolar ham mavjud. 2006- 2009 yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar markazining davlat granti asosida Maxsus ta'limgiz bo'limining mutaxassislari tomonidan:

umumta'limgiz standart talablari va modernizatsiya qilingan

dasturlar asosida ko'zi ojiz bolalar maktablarining boshlang'ich sinflariga moslashtirish bo'yicha 9 ta fandan tavsiyalar va 5 ta fandan korreksion davlat talablari yaratildi. Zaif ko'rvucli bolalar maktablarida ta'limgiz jarayoni umumta'limgiz standartlari asosida amalga oshiriladi;

Eshitishida muammosi bo'lgan (kar) va zaif eshituvchi bolalar maktabining boshlang'ich sinflari uchun 8 ta fandan, 4 ta korreksion fandan davlat ta'limgiz talablari va o'quv dasturlari yaratildi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar 6-sinfdan boshlab umumiy ta'limgiz dasturlari va Davlat ta'limgiz standartlari asosida o'qitiladi. O'quvchilarining eshitish qobiliyati darajasi yosh va psixo-jismoniy xususiyatlarini hisobga olgan holda umumiy ta'limgizning modernizatsiya qilingan va takomillashtirilgan DTS va dasturlarini moslashtirish asosida 14 ta o'quv fanidan korreksion davlat ta'limgiz talablari va dasturlari yaratildi;

Yordamchi maktab o'quvchilarining rivojlanish darajasi, individual xususiyatini e'tiborga olgan holda, ular uchun korreksion ta'limgiz davlat talablari tabaqalashgan tarzda (engil, o'rta, og'ir darajadagilar uchun) ishlab chiqilmoqda. Yengil darjadagi aqli zaif bolalar uchun 2004 yilda 13 ta o'quv fanidan 30 nomda korreksion ta'limgiz davlat talablari va o'quv dasturlarining loyihalari ishlab chiqildi;

O'quvchilarining bilish faoliyatidagi nuqsonlarini va jismoniy faoliyatidagi yetishmovchiliklarini, xulq - atvoridagi buzillishlarini korreksiyalashga qaratilgan davolash gimnastikasi, ritmika, logopediya, ijtimoiy hayotga yo'naltirish mashg'ulotlari uchun o'quv dasturlari ishlab chiqildi;

Jismoniy va ruxiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni korreksion uslubda o'qitish va tarbiyalash maxsus ta'limgizning asosiy vazifasidir. Maxsus maktabgacha ta'limgiz muassasalarini, maktablar, maktab-internatlarning moddiy - texnik bazasining mustahkamlanishiga va imkoniyati cheklangan o'quvchilardagi mavjud kamchiliklarni tuzatish, ularning ta'limgiz olishi, davolanishi hamda kasbga yo'naltirish ishlari davlatimiz tomonidan katta mablag'lar ajratilmoqda. Bu toifadagi bolalar va o'smirlarni ta'limgiz-tarbiyasini takomillashtirish, maxsus ta'limgiz jarayonida yangi innovatsion pedagogik va axborot

texnologiyalarni kiritish, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ta'lif-tarbiyasini to'g'ri tashkil etish, ulardag'i nuqsonlarni ilk yoshidan aniqlash va korrektsiyalash (bartaraf etish), ijtimoiy jamiyatga to'laqonli moslashtirish ta'lif tizimining muhim va ajralmas qismidir.

Imkoniyati cheklangan bolalarga kasb-hunar o'rgatish kasbiy mahoratini rivojlantirishga yetarli sharoitlar yaratish, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish, o'z o'rnini topib jamiyatni to'laqonli a'zosi bo'lishiga gumanistiq yondashuvni amalg'a oshirishga davlatimiz tomonidan jiddiy e'tibor berilmokda. Qolaversa, ushbu masala bugungi kunning dolzab muammosidir. Ta'lif mazmunini takomillashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida o'quv dasrurlari ta'lif standartlari va talablari qayta ko'rib chiqilib, ular asosida darslik va o'quv qo'llanmalarining yangi avlodni yaratilmokda, ta'lif jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalar joriy qilinmokda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ixtisoslashgan (maxsus) ta'lif muassasalarida bolalarni o'qitish jarayoniga moddiy, texnikaviy yordam ko'rsatish, sog'ligini tiklash maqsadida bir qator samarali ishlar amalg'a oshirilib kelinmoqda. Ixtisoslashgan maktab-internatlarni kerakli asbob-uskunalar bilan ta'minlash jarayoniga chet el investitsiyalari va homiyalar mablag'lari keng jalg etildi. Jumladan «MERCY PROJEKT» xalqaro nodavlat xayriya tashkilotining mehr loyihasi 1997 yildan boshlab 2008 yilga qadar tibbiyot sohasining mutaxassislari, ToshPTIning ko'z kasallikkleri shifokorlari va Xalq ta'lifi vazirligi RTM maxsus ta'lif defektologlari bilan hamkorlikda respublikadagi barcha ko'zi ojizlar maktab-internatlari bolalarini ko'z kasallikklarini aniqlash va jarroxlik yo'li bilan davolash ishlarida samarali natijalarga erishildi. «Katarakta» loyihasi davomida 500 dan ziyod bolalar ko'rish baxtiga tuyassar bo'ldilar. Bu tashkilot Brayly usulidagi darslik va badiiy adabiyotlarni chop etishda, texnik vositalar bilan ta'minlashda ham hamkorlik qilib keldi.

Shuningdek UNISEF, UNESCO, «MERCY PROJEKT», «OPERATION MERCY» tashkilotlari, nodavlat notijorat

tashkilotlar assotsiatsiyasi, «Lukoyl Opereyting Kompani» tashkilotlari orqali mablag'larni maxsus ta'lif muassasalariga yo'naltirish natijasida darsliklar, o'quv qo'llanmalar, badiiy adabiyotlar, texnika vositalari, axborot vositalari bilan ta'minlanishi yuqori darajaga ko'tarildi.

Maxsus ta'lif muassasalarini ta'lif-tarbiya jarayoni umum va maxsus korreksion ta'lif talablari asosida o'quv reja, korreksion dastur va darsliklar asosida amalga oshiriladi. Dars jarayonida har bir bolaning individual xususiyati, qobiliyati va imkoniyati e'tiborga olinadi. (yuqorida qayd etilgan nuqson turi bo'yicha tashkil etilgan o'quv muassasalarida mutaxassis defektologlar (logoped, tiflopedagog, surdopedagog, oligofrenopedagog) faoliyat ko'rsatadi. Ta'lifning maqsad va vazifasiga ko'ra bolalar, o'smirlarga umumiy ta'lif bo'yicha bilim berish bilan bir qatorda ularda mavjud bo'lgan nuqsonlarni bartaraf etishga oid korreksion fanlardan mashg'ulotlar o'tkaziladi. Maxsus darslik o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash masalasi XTV, Respublika ta'lif markazi tomonidan shakllantirilgan tajribalari soha mutaxasislari: amaliyotchi metodist, olimlar ishtirokidagi mualliflar guruhi tomonidan yaratiladi.

Maxsus maktablarni davlat tilida darsliklar bilan ta'minlash masalasi mustaqillikka erishganimizdan so'ng bir muncha faollashdi. «Ijtimoiy himoya yili» Davlat dasturi asosida 2007 yilda 59 nomdagi darsliklar, «Yoshlar yili»da rejalashtirilgan 36 nomdagi darsliklar nashr etilib, joylarga yetkazildi. Hozirgi kungacha maxsus maktablar uchun 200 dan ziyod nomdagi darsliklar nashr etildi. Darsliklarni yaratishda xalqaro xayriya nodavlat tashkilotlardan «MERCY PROJEKT» homiyligida ko'zi ojiz bolalar maktablari uchun 10 nomdagi darslik va qo'shimcha badiiy adabiyotlar davlat tilida Brayly usuliga o'girib chop etildi.

Shuningdek maxsus maktablar uchun 100 dan ziyod nomdagi metodik qo'llanma, tavsiya va dasturlar chop etildi. «Ijtimoiy himoya yili» Davlat dasturida belgilangan choratadbirlar maxsus ta'lif sohasini moddiy-texnikaviy bazasini takomillashtirish, maktablarni rekonstruktsiya qilish,

defektolog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, davlat ta'lim standartlari talabi va SanPiN14 normalari asosida darsliklarni yaratishda samarali ishlar olib borishga asos soldi. Maxsus mактаблarning darsliklar bilan ta'minlanish holati quyidagi jadvalda ko'rsatildi. Maxsus ta'limning uzlusiz tizimining rivoji mutaxassis kадrlar bilan ta'minlashga bog'liq. Bu borada defektolog kadrlarni tayyorlash masalasiga davlatimiz tomonidan jiddiy e'tibor berilmoqda.

Maxsus ta'limning ijobiy tomonlari shundaki:

- ta'lim muassasalarida kompleks tibbiy-pedagogik yordam ko'rsatilib, ular to'liq davlat ta'minotida bo'ladilar;
- defektolog pedagoglar bolalarning maxsus ehtiyojlarini to'liq qondirish maqsadida korrektcion-rivojlantiruvchi ishlarni amalga oshiradilar;
- o'quvchilar, tarbiyalanuvchilar maxsus o'quv dasturi, darsliq o'quv-metodik va texnik vositalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar;

sinflarda o'quvchilar soni 12-16 nafardan oshmaydi va individual yondashuvni to'liq amalga oshirish imkoni mavjud;

· darsdan oldin va darsdan keyin tevarak-atrofda yo'naltirish, nutqiy muloqotni shakllantirish, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish kabi maxsus ko'nikmalarni shakllanishi uchun qulay sharoitlar yaratilgan;

Maxsus ta'lim va tarbiyaning korrektcion-pedagogik ish sifati yuqori darajada bo'sada, biroq aynan alohida ehtiyojli bolalarning sog'lom muhitda ta'lim-tarbiya olmayotganliklari sababli ijtimoiy hayotimizga moslashishlarida ayrim muammolar paydo bo'ladi. SHu bois imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning yoshi-segregatsion ta'lim tizimida o'qitilishi ko'plab salbiy oqibatlarni yuzaga keltirishi jahon hamjamiyati tomonidan ham tan olinib, inkyuziv ta'lim siyosati qo'llab- quvvatlanmoqda. Bu o'rinda L.S.Vigotskiyning fikricha: «Maxsus maktablarimiz afzallik jihatlari bilan bir qatorda ayrim kamchiliklari bilan ham ajralib turadi, u o'z tarbiyachisini tor doiradagi maktab jamoasi bilan chegaralab: kar, ko'r yoki aqli

yaif bolaning asosiy e'tiborini o'zida mavjud bo'lgan kamchilikiga qaratib, barcha sharoitni shu nuqsoniga moslashtirib qo'yadi. Bo'larning barchasi bolaning haqiqiy hayotga kirib kelishiga to'sqinlik qiladi. Maxsus maktab bolani chegaralangan dunyodan chiqarish o'rniga odatda shunday ko'nikmalarni rivojlantiradiki, oqibatda uning separatizmligi ko'chayib, bola o'z dunyosiga yanada chuqurroq sho'ng'ib ketadi».

Shuning uchun rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani tarbiyalash vazifasini L.S. Vigotskiy bolani hayotga integratsiya qilib uning nuqsonini o'zga yo'l bilan kompensatsiyasini tashkil qilish lozim, deb hisoblagan. Bu o'rinda u, kompensatsiyani biologik emas, balki ijtimoiy aspekt deb tushungan, chunki rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bola bilan ishslash jarayonida tarbiyachi biologik jihatlari (faktorlari) bilan emas, uning ijtimoiy oqibatlari bilan ro'baru keladi. Sog'lom bolani imkoniyati cheklangan bola bilan uyg'unlashtirilishi maxsus ta'limni keng doirada qayta qurishning boshlang'ich nuqtasi bo'lib xizmat qilishi kerak15.

Uzoq yillar davomida maxsus ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatuvchi turli millat olimlari va amaliyotchilari rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarni umumta'lim maktablarida emas, aksincha, maxsus maktablarda o'qitish yaxshi deb kelganlar. XX asrning 60-yillarigacha bunday bolalar uchun maxsus maktablar tizimi rivojlanib kelgan. Ayrim mamlakatlarda 12-15 turdag'i tabaqal ashtirilgan maktablar tashkillashtirilib kelingan. Masalan, Belgiyada, Qozog'iston, O'zbekiston, Tojikiston, Rossiya va Qирг'изистон davlatlarida 8 turdag'i, Niderlandiyada esa 15 turdag'i maxsus maktablar mavjud.

O'zbekistonda ta'lim islohotlarining ustuvor yo'nalishi barcha sog'lom bolalar qatori imkoniyati cheklangan bolalar ta'limiga demokratii yondashuv asosida tarbiyalash, ta'lim berish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga optimal darajada sharoit yaratish, kasbiy maxoratini rivojlantirish, shuningdek

iqtidorini ruyobga chiqarishdan iborat. Vigotskiyning muhit va shaxsnинг uyg'unligi to'g'risidagi ta'limotiga ko'ra, ijtimoiy muhit imkoniyati cheklangan bolalar uchun birinchi darajali ahamiyatga egadir.

Turli xil davlatlar integratsiyaga o'tishda ko'p bahsmunozara yuritib, maxsus pedagogikada integratsiyani qo'llash foydali deb bilmoxda (Saulle M.R. 1996). O'zbekistonda ham maxsus ta'lim integratsiyaning rivojlanishini o'ziga xos xususiyati mavjud.

AQSHda va Janubiy Yevropa mamlakatlarida integratsiyani rivojlanishi va bu jarayonni boshqarish uchun qonuniy normativ baza yaratilgan. Keyingi yillarda O'zbekistonda ham integratsiya va inklyuziv ta'limni joriy qilish bo'yicha qator chora-tadbirlar ko'rilmoxda.

Respublikada umumta'lismaktablari va inklyuziv ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan bolalarga korrektsion yordam berish ularning alohida ehtiyojlarini qondirish, rag'batlantirish va kompensator imkoniyatlarini rivojlanish, shuningdek ijtimoiy hayotga moslashtirish masalalari bo'yicha ilmiy va metodologik tadqiqotlar olib borishga ehtiyoj mavjud. Vaholanki, har bir bolaning ta'lim olish huqiqiga ega ekanligi «SHaxs huquqlari Deklaratsiyasi» va «Ta'lim hamma uchun» Umumjahon Deklaratsiyasida (Tailand, 1990) 16 tasdiqlangan.

Maxsus maktab o'quvchilari, o'qituvchilari, ota-onalar orasida olib borilgan so'rovnomalarning tahlili imkoniyati cheklangan bolalarning muayyan qismi o'z tengdoshlari bilan birga umumta'lismaktablarida o'qish istagini bildirayotganlarini ko'rsatmoqda (xalqaro ekspert Noel Xibbertning 2008 yildagi «Imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun asosiy ta'lim» loyihasini amalga oshirish bo'yicha hisoboti).

Tajriba shuni ko'rsatdiki, har qanday ta'lim tizimida bolalarning bir qismi ta'limdan chetda qolib ketadi, chunki bunday bolalarning individual ta'limini qondirishga umumta'lismiz tayyor emas. SHu sababli xalqaro miqyosda bolalarning umumiy sonidan 15 foizi maktabga jalb

qilinmasdan qolish yoki umumta'lismiz tizimidan chetda qolish hollarini kuzatish mumkin. Bunga sabab maxsus maktablarning o'quvchilar turar joyidan ancha uzoqda bo'lganidir. SHuni esda tutish kerakki, bunda bolalar emas, aksincha tizim inqirozga uchraydi.

Juda uzoq vaqt davomida maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lismuassasalariga nisbatan maxsus segregatsion ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya berish samarali deb hisoblanib kelindi. 1970-1980 yillarga kelib jahon miqyosida insonparvarlik va nogironlarni kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik g'oyasining ilgari surilishi maxsus ehtiyojli bolalarga e'tiborning yanada yaxshilanishiga olib keldi. Maxsus ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim tizimi sifatida rivojlangan. Ushbu ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlarini umumta'lismuassasalarida qondirib bo'lmaydi, degan taxminlar asosiga qurilgan. Imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ta'lim tizimida o'qitilishi ularning maktabni tugatgach, ijtimoiy jamiyatga moslashib ketishlarini qiyinlashtiradi. SHuningdek ularni o'z oilasidan uzoqda bo'lishga majbur qiladi. Bu toifa bolalar boqimandalikka o'rganib qoladilar, o'z-o'ziga xizmat qilishlarida ham ko'plab qiyinchiliklarga duch keladilar.

Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyati, nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumta'lismiz tizimida o'qitish, tarbiyalash masalalariga katta e'tibor qaratilmokda.

Shuningdek jahon miqyosida qo'llanib, targ'ibot-tashviqot qilinib kelinayotgan integratsiya va inklyuziv ta'lim O'zbekistonda ham xalqaro tashkilotlarning hamkorlik loyihalari asosida bosqichma-bosqich amalga tatbiq etilmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lismuassasalarida o'qitish va ular uchun qulay sharoitlar yaratish masalasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va «Bola huquqlarini kafolati to'g'risida»gi Qonunning 29-moddasida alohida qayd etilgan.

Tajriba shuni ko'rsatdiki, mamlakatimizda inklyuziv ta'limni

joriy qilishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Respublikamizni ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanishini, milliy qadriyatlarimizni e'tiborga olgan holda hamda tarixiy shakllangan maxsus ta'limga tizimidan voz kechmasdan, qishartirmsandan, aksincha umumta'lim bilan uzviy bog'lanib hamkorlikda inklyuziv integratsiya ta'limga bosqichma-bosqich o'tib borishning milliy modulini yaratish maqsadga muvofiqdir. Kelajakda maxsus ta'limga muassasalari umumta'lim muassasalari uchun korrektson fanlar uslublari bo'yicha maslahat beruvchi markaz vazifasini bajarishi lozim. Maxsus ta'limga pedagoglari va defektologlari umumta'lim muassasalarida ta'limga oluvchi imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish bo'yicha umumta'lim fan o'qituvchisiga zaruriyat tug'ilganda korrektson ta'limga metodikasidan maslahat beruvchi resurs pedagog vazifasini o'taydi. Bunday yordamlar maxsus ta'limga muassasalarining tibbiyot xodimlari, psixologlari tomonidan ham ko'rsatiladi.

Hozirgi kunda Respublikamiz miqyosida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni inklyuziv ta'limga jalb etishning huquqiy asosini mustahkamlash bilan bir qatorda ko'plab ilmiy-amaliy tajribalar olib borilmoqda.

3. Respublikamizda olib borilayotga barcha islohotlarning maqsadi davlatimz kelajagiga mustaxkam poydevor qurishdan iborat. Bu poydevor sog'lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Shuning uchun ham «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'limga to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Ta'limga sohasidagi bu islohotlar bugungi kunda o'z samarasini bermoqda. Mazkur huquqiy me'yoriy hujjalarni doirasi maxsus ehtiyojli bolar ta'limga tarbiyasini ham qamrab olgan.

Maxsus ehtiyojli bolalar ta'limga tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormoqda.

Maxsus ta'limga imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'limga tizimi sifatida rivojlangan. Ushbu ta'limga imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlarini umumta'lim muassasalarida qondirib bulmaydi degan taxminlar asosida qurilgan. Maxsus ta'limga butun dunyoda maktab yoki internat shaklida, shuningdek

umumta'lim maktablarining katta bo'limgan qismlari sifatida faoliyat yuritadi.

Maxsus ehtiyojli bolalarning maxsus ta'limga tizimida o'qitilishi ularning maktabni tugatgach ijtimoiy jamiyatga moslashib ketishlarini qiyinlashtiradi. SHuningdek, ularning o'z ollasidan uzoqda bo'lislari majbur qiladi. Bu toifa bolalar boqimandalikka o'rganib qoladilar, o'z-o'ziga xizmat qilishlarida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bundan tashqari juda ko'plab maxsus ehtiyojli bolalar ta'limga chetda qolib ketmoqdalar. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarni rivojlanish darajasi, imkoniyati nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumta'lim tizimida ta'limga olishini amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'limga siyosati amalga oshirilmoqda.

Biroq inklyuziv ta'limga mazmun mohiyati to'g'risidagi bilim va ma'lumotlar hali jamiyatda yetarli emas. «Inklyuziv» va «integratsiyalashgan» atamalari ko'pincha bir xil ma'noda ishlataladi. SHunga qaramasdan falsafada ushbu tushunchalar orasidda juda katta farq bor.

Nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir.

Integratsiyalashgan ta'limga bu-diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolalarning maktabga qatnash jarayonidir.

Integratsiyalashgan ta'limga bolaga muammo sifatida qaraladi. Bu ta'limga tizimining quyidagicha shakllari mavjud:

A) Jismoniy integratsiya. Integratsiyaning bu shakli nogiron va nogiron bo'limgan bolalar o'rtasidagi jismoniy farqni kamaytirishga qaratilgan. Oddiy maktab bilan yonma-yon joyda nogiron bolalar uchun maxsus bo'limga yoki sinf tashkil qilish mumkin.

B) Funktsional integratsiya. Bu shakl nogiron va nogiron bo'limgan bolalar o'rtasidagi funktional muammolarni kamaytirishga qaratilgan.

V) Ijtimoiy integratsiya. Integratsiyaning bu shakli ijtimoiy muammolarni kamaytirishga qaratilgan va u nogiron hamda

nogiron bo'limgan bolalar o'rtasidagi o'zaro aloqani qo'llab - quvvatlaydi.

#### G) Jamiyatga integratsiya qilish kabilar.

Integratsilashgan talim tizimining bir qator quyidagicha chegaralangan tomonlari mavjud:

Umumta'lim muassasalarda kompleks tibbiy-pedagogik yordam olish imkoniyati bo'lmaydi.

Umumta'lim maktab pedagogi maxsus metodikani bilmaganligi sababli imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ehtiyojlarini qondirmaydi. Umumta'lim maktablarida tiflo, surdotexnik vositalar, maxsus tibbiyot uskunalar bo'lmaydi.

Sinfda o'quvchilar soni 25 tadan-35 gacha yetadi va oqibatda ularning barchasiga ko'p vaqt ajrata olmaydi.

Umumta'lim maktablarda o'quvchilarda maxsus malaka va ko'nikmalarni shakllantirish uchun mutaxassislar bo'limganligi sababli, imkoniyat topish qiyin.

Umumta'lim maktablarda alohida dastur va darsliklardan foydalanish imkoniyati bo'lmaydi. Inklyuziv ta'lim tizimi integratsilashgan ta'lim tizimidan o'zinig mazmun - moxiyati, maqsadi, vazifalari va harakat dasturi bilan farqlanadi.

Inklyuziv ta'lim bu - davlat siyosati bo'lib, nogron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'sislarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muxtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muxtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng xuquqlilik asosida ta'lim tarbiya olishlarini taminlaydi. SHuning uchun ham ahamiyatlidir.

Oliy ta'lim tizimiga kiritilgan «Inklyuziv ta'lim tizimida rivojlanishda kamchiligi bo'lgan bolalarga ta'lim berish xususiyatlari» kursi inklyuziv ta'lim tiziminig moxiyati, mazmuni, maqsadi va jabxalarini ochib beradi va bu haqidagi nazariy ma'lumotlar bilan talabalarni qurollantiradi.

«Inklyuziv ta'lim tizimida rivojlanishda kamchiligi bo'lgan bolalarga ta'lim berish xususiyatlari» kursining predmeti inklyuziv ta'lim tizimi va uning mazmunidan iborat.

Bu kurs o'zinig mazkur predmetiga asoslangan holda maqsad qo'yadi. Mavjud maqsadlari shundan iboratki, bu kurs inklyuziv ta'limning mazmun moxiyatini ochib berish bilan bir qatorda kerakli tavsiyalar ham ishlab chiqadi. Tavsiyalarda barcha bolalarning ta'lim olish muhitini o'rganib maxsus ehtiyojli bolalarning ta'limiy ehtiyojlariga umumiyo baho beriladi. Asosiy ma'no shundaki, sog'ligining yomonlashuvi yoki rivojlanishining orqada qolishi sababli alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni ham mumiy ta'lim jarayoniga kushish mumkin. Inklyuziv ta'lim ta'lim berishning diqqat markazida bola turadi (o'quv rejasi emas) deb bu jarayonga yondashadi. Ushbu yondashuvlar bolalar xar xil sharoitda o'qiydi, rivojlanadi, ma'lumotni xar xil tezlikda qabul qiladi degan e'tirofga asoslanadi. Ular xar bir bolaning shu qatorda maxsus ehtiyojli bolalarning ham ehtiyojlarini qondiradigan ta'lim muxitini yaratib berishga qaratilgan.

Mazkur tavsiyalarning maqsadi - maktablarni maxsus ehtiyojli bolalarnig ehtiyojlariga javob beradigan qilib moslashtiradigan jarayonni qo'llab-quvvatlash. «Moslashtirish» deganda nafaqat maxsus ehtiyojli bolalarni maktabga bemalol borib kelishi, balki shu qatnashdan qdligidir. Maktab muxiti moslashuvchan bo'lib, bola ta'limdagi tartibga moslashishi kerak deb taxmin qilinmasdan, alohida xar bir bolaning ehtiyojlarini qondirishi kerak.

«Inklyuziv ta'lim» kursi o'z maqsadidan kelib chiqqan holda bir qator quyidagi vazifalarni hal etadi:

- talabalarga inklyuziv va integratsiyalashgan ta'lim tizimi haqida ma'lumot berish;

- inklyuziv ta'limning huquqiy asoslarini ochib berish;
- inklyuziv ta'limni joriy etish oldida turgan muammolarni o'rganish va bu muammolarni xal etish yollarini izlab topish;
- inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashnig asoslarini o'rganish;

-inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish tamoyillarini taxlil qilish;

-O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish borasidagi nazariy, amliy va huquqiy axvolni o'rganish;

-inklyuziv ta'lim muasasalarining maqsad va vazifalarini belgilash;

- resurs o'qituvchinig ish faoliyati va maqsadi bilan tanishish;

-inklyuziv ta'lim muasasalarining xodimlari vazifalari bilan tanishish;

-inklyuziv ta'lim muasasalari mutaxassislarining ota-onalar bilan hamkorligining yo'lga qo'yilganlik darajasini aniqlash;

-inklyuziv ta'lim muassasalarida olib borilayotgan isloxtolarni o'rganish;

-inklyuziv ta'limga jalb qilish boskichlarini, amaliyotga joriy etish yo'llarini o'rganish, ish tajribalarini taxlil qilish kabilardan iborat.

SHunday qilib «Inklyuziv ta'lim» kursi o'zining mavzu doirasida maqsad va vazifalarini hal qilish asosida talabalarni inklyuziv ta'lim bo'yicha mukammal bilimlar bilan qurollantiradi. Inklyuziv ta'lim (ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion— uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi) nogiron va sog'lom bolalar O'rtasidagi to'siqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishini ifodalovchi ta'lim tizimidir. Inklyuziv ta'limning siyosati turli xil ehtiyojli bolalarni ta'lim olishini qo'llaydi hamda yaxshi hayot ko'rishiga imkon yaratadi.

Inklyuziv ta'lim - davlat siyosati bo'lib, nogironligi yoki boshqa sabablar tufayli maxsus yordamga muhtoj, tarbiyasi og'ir, yetim bolalar, VICH OITS bilan kasallangan bolalar uchun moslashuvchan, individuallashgan yordam tizimi va barcha bolalarni teng ko'rishni ko'zda tutadigan ta'lim turidir. Millati, irqi, tanasining rangi, ijtimoiy kelib chiqishi, oilasining

jamiyatda tutgan o'rni, moddiy va ma'naviy ahvoli, jismoniy yoki ruxiy rivojlanishida kamchiligi bo'lishidan qat'iy nazar barcha bolalarni teng ko'rish, ulardagi har qanday imkoniyatni qadrlash, rivojlantirishni ko'zda tutadigan ta'lim, hisoblanadi.

Inklyuziv ta'lim umumta'lim jarayonini rivojlantiradi na barcha bolalarga mos bo'lgan ta'limni joriy qildi. Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim olishiga oid qo'shimcha moslamalarni tashkil qilib, nogiron bolalarning ta'lim olishiga qulay sharoit yaratadi. Inklyuziv ta'lim turli xil ehtiyojli bolalarning ta'lim olishiga qaratilgan metodologiyani rivojlantirishga harakat qiladi. Inklyuziv ta'lim turli ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan ixcham turdag'i dars berishga yondashadigan ta'lim turini amalga oshiradi. Agarda inklyuziv ta'limni tatbiq etishda dars berish, o'qitish bir mucha samarali va unumli bo'lsa, unda nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar, balki barcha bolalar yutadi.

Inklyuziv ta'lim maktablarni bolalarning bilim olishi uchun shaxsiy huquqlarini ximoyalandi. Bunday yondashuv diskriminatsiyani bartaraf etadi, chunki bolalar bir-birlari bilan muloqot qilish, o'qish jarayonida o'zlarining turli ehtiyojlarga ega individuum ekanliklarini anglaydilar.

SHarqning mashhur allomalari Abu Ali ibn Sino, Imom Al-Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniyarning tarbiyadan ko'zlangan maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishida ta'limning o'rni to'g'risidagi qarashlari inklyuziv ta'limga ham taalluqli, deb o'ylaymiz.

Har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo'lmish farzandlarni mas'ulayatni his etadigan, ularni davlat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga salmoqli ulush qo'shadigan munosib fuqarolar bo'lib etishishlariga katta umid bilan qaraladi. Dunyoga "O'zbek modeli" deb nom olgan rivojlanish yo'li bilan tobora ko'proq tanilayotgan O'zbekistonda ham bolalar huquqlarini himoya qilishga juda katta e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda maktab, litsey, gimnaziya, kollej kabi bilim dargohlari bilan birgalikda turli maxsus maktab internatlar, mehribonlik uylari faoliyat ko'rsatayotganligi ham fikrimizning isbotidir. Ko'plab davlatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham

imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus tashkillangan maktablar bor. Ularning vazifasi bolalarni maxsus o'quv yurtlariga tayyorlashdir. Bolalarni himoya qilish xalqaro tashkiloti Konvensiya tizimiga o'zining asosiy maqsadi etib bola huquqlarini asos etib oladi. Bola huquqlari xalqaro Konvensiya hamma bolalarning ehtiyojini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan ta'limga tizimini yaratish g'oyasini ilgari surdi. Chunki har bir bolada – u sog'lommi yoki nogironmi – takrorlanmaydigan xarakter, qiziqish, imkoniyat va bilimga ehtiyoj bor.

Hamma bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan, huquq va qibiliyatlarini hurmat qiladigan, ijtimoiyadolat hamda tenglikka erishishni maqsad qilib olgan ta'limtizimi inklyuziv ta'limga deyiladi.

Inklyuziv ta'limga nogiron bolalarni ta'limga jarayoniga integratsiya qilish hamda umumta'limga maktablarini nogiron bolalarga moslashtirishni ko'zda tutadigan, ijtimoiyadolat va tenglikni bosh maqsad qilib olgan jarayondir.

Inklyuziv ta'limga ijtimoiy modelga asoslanadi va u muammoni bolada emas, balki dastur va metodologiyada deb hisoblaydi. Bunday ta'limga tizimiga ba'zi bir o'zgartirishlar kiritishni taqazo etadi. Bunda har bir bolaning ehtiyojini hisobga olgan holda o'quv rejalarini tayyorlanadi, uslubiyotning psixologik muammolari bilan bog'liq tomonlari to'g'ri yo'lga qo'yiladi. Inklyuziv ta'limga hamma bolalarni, shu jumladan, nogiron bolalarni ham o'zlari xohlagan maktabda o'qishi mumkin, deb xulosa chiqaradi. Bolaning nogiron bo'lib qolishiga jamiyat, undagi muhit, tushunmovchiliklar, yo'l qo'yilgan xatolar sababchi bo'lgan. Demak, uning o'qishi uchun ham shu jamiyatning o'zi jon kuydirishi shart.

Bola huquqlari xalqaro Konvensiyadan kelib chiqib, yaxshi maktab ta'lmini uch xil ibora bilan ta'riffash mumkin, ya'ni:

- mos keluvchi;
- rivojlantiruvchi;
- inklyuziv;

Konvensiyaning 6-moddasida shunday satrlar bor: "Tirik qolish va rivojlanish". Bu modda mos keluvchi ta'limga taalluqli.

Rivojlantiruvchi ta'limga 29-moddada ko'rsatilgan: "Ta'limga shaxsnинг yuqori darajada rivojlanishiga, iqtidorli, aqliy va jismoniy qobiliyatlarini o'stirishga yo'naltirilgan bo'lishi, bolani erkin jamiyatda faol yashashga tayyorlash kerak".

Z-va 28-moddalar inklyuziv ta'limga tegishli bo'lib, ularda kamshitishning olsini olish, ta'limga hamma uchun qobiliyatiga yarasha ekanligi belgilab qo'yilgan.

Maxsus ehtiyojli bolalar, boshqa bolalar, o'qituvchi va tarbiyachilar faoliyati inklyuziv ta'limga o'ziga xos o'rinni tutadi. Bunday ta'limga tufayli maxsus ehtiyojli bolalar:

- jismoniy va ruhiy ehtiyojlarini qondiradilar;
- ijtimoiy xulq va o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish malakalarini yaratadilar;
- ularning imkoniyatlarini hisobga olgan o'quv materiallarini o'zlashtiradilar;
- tengqurlari bilan turli o'yinlarda ishtirok etib rivojlanadilar;
- jismoniy tarbiya darslarida shaxmat-shashka o'yinlari, turli sport musobaqalarida vaqtini kuzatuvchi hakam yoki darvozabon bo'lislari mumkin;
- do'stona muhitda do'st orttiradilar;
- turli ko'ngilochar va bayramona dasturlarda ishtirok etadilar. Boshqa bolalar esa;
- do'stona muhitni yaratadilar;
- maxsus ehtiyojli bolalarga g'amho'rlik qiladilar, ularni turli o'yinlarga jalb qiladilar;
- sinf tadbirlarida ishtirok etadilar;
- tozalik va ozodalikni ta'minlaydilar;
- jamoa oldida ma'suliyat hissini rivojlantiradilar;
- didaktik va o'yin vositalarini tayyorlashda birgalikda ishtirok etadilar;
- o'qituvchi va tarbiyachilar bolalarni bir-birlarining ichki dunyolarini tushunishga o'rgatadilar;
- har bir bolaning qobiliyati va imkoniyatini hisobga oladilar;
- har bir bolada hayotiy malaka va mustaqillikni shakllantiradilar;

- ishlarni tahlil qiladilar va baholaydilar;
- ota-onalarga amaliy yordam ko'rsatadilar;
- barcha bolalarga birdek bilim berib, tarbiyalaydilar;

Demak; inkyuziv ta'lism maxsus ehtiyojli, nogiron bolalar ham faqat maxsus maktablarda emas, balki sog'lom bolalar o'qiydigan umumta'lism maktablarida ham ta'lism-tarbiya olishlari mumkin ekanligini e'tirof etadi. Buning uchun esa maktab ham, o'qituvchi-tarbiyachilar ham inkyuziv ta'lism tizimiga tayyor bo'lishi, maktab darajasi, jismoniy sharoit va o'qishga imkon omillari shu ta'lism talablariga to'la javob berishi kerak.

Maktab darajasida integratsiyani muvaffaqiyatli kiritishga bir necha o'zaro bog'liq omillar ta'sir ko'rsatadi. Markaziy omil o'quv dasturiga kiritish imkoniyatidir. Shuningdek, binolarning jismoniy joylashuvi, o'qish uchun imkoniyat va moliyalashgan imkon ham asosiy omillardandir.

Inkyuziv ta'limda maktabdagagi jismoniy sharoit ham katta o'rinn tutadi. Oddiy qilib aytadigan bo'lsak, barcha maktablar eshigiga o'quvchilar zinapoyalar orqali kirib boradilar. Lekin bu zinapoyalardan maxsus aravachalarda yuradigan nogiron bolalar ko'tarila olmaydilar, hatto qo'ltiqtayoqda yuradigan bolalar ham, qynalishlari mumkin. Demak, zinapoyalardan ham , eshiklardan ham sog'lom bolalar bilan birga nogiron bolalar ham bemalol o'tishlari uchun qulay sharoit yaratilishi shart. Bundan tashqari, sinf xonalari va laboratoriyalardagi maxsus o'rindiq hamda moslamalar ham nogiron bolalarga mos bo'lishi kerak.

O'qishga imkon yaratish ham juda muhimdir. Yozish qobiliyatlarida buzilish mavjud bo'lgan bolalarga tovush va tasvirni kattalashtirish etarli bo'lmaydi. Bunda o'quvchilar imoshora yoki Brayl xatini puxta o'rganishlari kerak.

Aqliy nuqsoni bor bolalar soddalashtirilgan yozma yoki og'zaki informatsiyani olishlari kerak. O'quv rejasini bunday differensiyalash o'qituvchilarda o'z ishlariga ijodiy yondashishni taqozo etadi. Maktab ma'muriyati buning uchun o'qituvchilarga imkon yaratib berishi kerak. Bunday ijodiy

yondashuv o'quv rejasiga qattiq talab qo'yilgan joylarda birmuncha qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

"Bolalarni qutqaring" (Buyuk Britaniya) tashkiloti, uning boshqa mamlakatlardagi tashkilotlari inkyuziv ta'limga asosiy to'siqlarni xalq ta'limi tizimi va maktablarga qo'yadi. Bizning fuqarolik jamiyatiga qadam qo'yayotgan davlatimizda bunday to'siqlarni o'z-o'zini boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahallalarda hal etish mumkin. E'tiborsizlik (1), yashirish (2), mablag' masalasi (3), sharoitga moslashmaslik (4), kambag'allik (5), sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi (6), kamsitish (7), qaramlilik (8), kutilmagan holatlar (9) kabi to'siqlarni mahallalarda bemalol bartaraf etsa bo'ladi, yoki bu muammolarni hal etishni quyidagi jadval asosida shunday taqsimlash mumkin (sxemaga qarang).

Bir qancha davlatlar tajribasi, jumladan, Norin (Qirg'iziston) va Qo'qon shaxarlaridagi inkyuziv ta'lism loyihasining tajribasi maxsus ehtiyojli bolalarni sog'lom tengqurlari bilan birlgilikda o'quv-tarbiya ishlarida har tomonlama faol ishtirok etishlari mumkinligini tasdiqladi.

«Salamanka deklaratsiyasi»ga har bir o'quvchining tafovut xususiyatlarini qo'llab-quvvatlovchi va ma'kullovchi islohot sifatida qaraladi. Uning maqsadlari, jinsi, irqi, madaniyati, ijtimoiy ahvoli, millati, dini, individual imkoniyati va qobiliyatidagi tafovutlar oqibatida yuzaga keladigan ijtimoiy segregatsiyaga yo'l qo'ymaslikdan iborat edi. Biroq bu kontseptsiya universal foydalanish uchun yaroqsiz bo'lib chikdi. Dunyo bo'yicha maktablarda inkyuziv ta'limga ko'pincha umumta'lism maktablarida nogironlarni o'zlarining tengdoshlari bilan birga ta'lim olishi deb qaraladi» (Judi Kugelmas).

Biroq inkyuziv ta'limning mazmui-mohiyatni to'g'risidagi bilim va ma'lumotlar hali jamiyatda yetarli emas. «Inkyuziv» va «integratsiyalashgan» atamalari ko'pincha bir xil ma'noda ishlataladi. Falsafada ushbu tushunchalar orasida juda katta farq bor. Nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir. Imkoniyati cheklangan bolalarning umumta'lism muassasalari tarkibiga

qamrab olinishi jahon miqyosida «inklyuziv» yoki «integratsion» ta'lim atamalari bilan ataladi. «Integratsiya» atamasini aniqlash maqsadida ushbu tushunchaning ta'rifini bergen G.M.Kajdasparovning «Pedagogicheskiy slovarь» lug'atiga murojaat qilamiz. Unda «guruuhlar integratsiyasiga», «guruuhda shaxslararo munosabatlarni tartibga solish» sifatida qaraladi Kamda jamoada faqatgina insonparvarlik munosabatlarni va ijobiy jamoatchilik fikrini yaratilishi bilan integratsiyani amalga tatbiq etish mumkin, deb ta'kydlanadi. Keyingi yillarda imkoniyati cheklangan bolalarni barcha tengdoshlari qatori umumta'lim tizimida ta'lim olishiga jiddiy e'tibor berilmokda va inkyuziv ta'lim matbuot va axborot vositalari irtsali ommaga keng targib qilinmokda. Bu borada ota-onalar ham farzandlarini umumta'lim tizimidagi integratsiyalashgan, inkyuziv guruh va sinflarda ta'lim-tarbiya olishiga hoxish bildirishmoqda.

- Jamiyatga integratsiya qilish.
- Inkyuziv ta'limning maqsad va vazifalari

Inkyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal qilinishi talab etiladi:

- ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologo - pedagogiq korrektcion sharoitlarni yaratish, ularning mmkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korrektcion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

- o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash;
- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va

Sog'lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta

- moslashtirish;
- imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajralmagan holda yashash huquqini ruyobga chiqarish;
- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muxabbatli munosabatni shakllantirish.

Bola - bu qanday imkoniyatga ega bo'lishidan qat'iy nazar

har doim kattalar yordamiga muhtoj farzanddir. Uni alohidalash yoki alohida nom bilan «anomal bolalar», «ko'r bolalar», «kar bolalar», «aqli zaif bolalar», «tayanch-harakat a'zolari falajlangan bolalar» va d. k. tushunchalar bilan ajratib ko'rsatish insonparvarlik nuqtai nazariga to'g'ri kelmaydi. Ushbu tushunchalar imkoniyati cheklangan bolalarning huquqlarini kamsitish bilan bir qatorda ota-onalarga ham salbiy ta'sir etadi. Imkoniyati cheklangan bolalar normal rivojlanishdagi bolalar kabi topshiriq va vazifalarni tezlik bilan mukammal amalga oshira olmasalarda, ammo imkoniyat darajasida bajara oladilar. SHuning uchun ham taxqirlashlarga yo'l qo'ymasliq bolaning huquqlarini himoya qilish, ularga ijobiy munosabatda bo'lish tarbiyalashning muhim usulidir.

Yuqoridagi vazifalarni to'laqonli amalga oshirishda eng birinchi galda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

Imkoniyati cheklangan bola ham barcha bolalardek bola hisoblanadi va u tan olinishi, hurmatga sazovor bo'lishga haqli, shuning uchun ularni nuqsoni bilan atalishi pomaqbul holat hisoblanadi.

#### Inkyuziv ta'lim muammolari

Ko'plab davlatlarda inkyuziv ta'limni joriy etish davlat normativ hujjalarmda qayd qilinmaganligi;

- Nogiron bolalarga nisbatan salbiy munosabat;
- Imkoniyati cheklangan bolalarning jamoalarda ko'rinnmaslik muammosi;
- Imkoniyati cheklangan bolalarning maktabda ko'rinnmaslik muammosi;
- Moddiy mablag' yetishmasligi muammolari;
- Ta'lim muassasalarini inkyuziv ta'limga moslashtirish muammolari;
- Sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi;
- Kambag'allik
- Jinsiy tafovutlarga qarab kamsitish;
- Imkoniyati cheklangan bolalarning boshqalarga qaramligi;
- Favqulodda vaziyatlar, mojarolar, qochoqlar muammolari;
- Kadrlar masalasidagi muammolar.
- Darhaqiqat, bu ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal

etish oson kechmaydi. Ammo bu ta'lim tizimining foydali jihatni juda ko'p. Ular sirasiga quyidagilar kiradi:

• Inklyuziv ta'lim qashshoqlik iskanjasidan qutilishga imkon beradi;

Inklyuziv ta'lim barcha uchun ta'lim sifatini yaxshilaydi;

• Kamsitishlarning oldini oladi;

• Inklyuziv ta'lim yanada inklyuzivlikka olib keladi. (Maktablar hamma uchun - Save the children., 2002. 20-23 b.)

Inklyuziv ta'limning qoidalari:

Insonning qadr-qimmati uning qobiliyati va yutug'iga bog'liq emas.

Har bir inson o'ylash va his qilish qobiliyatiga ega.

Har bir kishi eshitish va muloqot qilish qobiliyatiga ega.

Har bir kishi bir-biriga muhtoj.

SHaxsning to'liq va xaqiqiy ta'lim olishi faqat real hamkorlikda amalga oshadi.

Hamma kishilar o'z tengdoshlarining qo'llab-quvvatlashiga muhtoj.

Hamma ta'lim oluvchilarning yutuqqa erishishiga ularning nimadir qila olmasligi emas, balki nimanidir qila olishi sabab bo'ladi.

Hamkorlik qilish kishi hayotini har tomonlama kuchaytiradi.

Inklyuziv ta'lim tizimi quyidagi ta'lim muassasalarini o'z ichiga oladi: maktabgacha ta'lim, o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim.

Bu ta'lim muassasalarining maqsadi bolalarning ta'lim olishi va kasb-hunarga tayyorlashda ularning o'rtasidagi to'siqni bartaraf etib ochiq ta'lim muhitini yaratishdan iborat.

Umumta'lim maktablarida alohida dastur va darsliklardan foydalanish imkoniyati bo'lmaydi. Inklyuziv ta'lim tizimi integratsiyalashgan ta'lim tizimidan o'zining mazmun-mohiyati, maqsadi, vazifalari va harakat dasturi bilan farqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 14 apreldagi "Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika unstituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi 213-sonli sonli qarorida belgilangan ta'lim sifatini oshirish bilan bog'liq vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida Chirchiq davlat pedagogika universitetining markaziy ilmiy tadqiqot faoliyati Pedagogik ta'lim innovatsion klasterini amaliyot tadbiq etishning maqsadli, manzilli joriy etilishiga yo'naltirildi. Natijada innovatsion klaster muhitida oliy ta'limda modullarni o'qitish sifatini, kasbiy malakalarni shakllantirishga mo'ljallangan o'quv-amaliy mashg'ulotlarni tegishli tashkilotlarda tashkil etish orqali oshirish, bo'lajak defektologlarni inklyuziv ta'limga erta va samarali tayyorlash, maxsus ta'lim muassasalarida bolalar bilan ish jarayonining moddiy texnik, didaktik ta'minotini yaratishga keng imkoniyatlar amalga oshirildi.]

F.U.Qodirova tomonidan shu kunga qadar chop etilgan 50 ga yaqin xalqaro, Respublika jurnallari, turli-tuman tashkillashtirilgan konferensiyalardagi maqolalari orqali innovatsion ta'lim klasterining ta'lim jarayonidagi o'rni, shu bilar birga inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida pedagogik ta'lim innovatsion klasteri muhitini yaratish nechog'lik muhim ekanligi bayon etilgan.

## 1.2 Inklyuziv ta'lim- imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali omili sifatida

Respublikamiz oliy ta'lim tizimida fanlarni o'qitish jarayoniga jahoning ilg'or tajribalarini joriy etish, uzlusiz ta'lim tizimida o'zaro manfaatdor hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha, maqsadlarni integratsiyalashtirish, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishning me'yoriy asoslarini yaratildi. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da "Fan, ta'lim, ishlab chiqarish integratsiyasi asosida turli ta'lim xizmatlari sifatini takomillashtirish, ta'lim mazmunini individuallashtirish, variativlashtirish" ustuvor vazifalar sifatida belgilab olindi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilning 1 dekabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-sonli farmonida Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq, imkoniyati cheklangan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan ishlarning samarali yechimlari nazarda tutilgan bo'lsa, 2019 yil 29 apreldagi "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlanтирish konsepsiysi to'g'risida"gi PF-5712-sonli farmoniga ko'ra ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, o'qitish metodikalarini takomillashtirish, alohida yordamga muhtoj bolalarga ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash hamda mazkur toifa har bir bolaning inklyuziv ta'lim olishiga bo'lgan huquqlarini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash kabi vazifalar belgilab olindi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasining rivojlanishi davlat siyosati umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tamoyillari, inson huquqlari yuqori darajada ekanligi, ta'limning gumanistik mazmun mohiyati, har bir insонning bilim olishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarining ta'minlab berilganligi, ta'lim olishdagi teng huquqlilikning kafolatlanishiga tayanadi [O'zb. Resp. Ta'lim]. Ta'lim sohasini rivojlanтирish ustuvor yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi: ta'lim sohasidagi fuqarolarning huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining kafolatlanganligi; ta'lim olishdagi tenglik, shu bilan birga, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslarga, ularning sog'lig'i hamda bilim qobiliyatlariga asosan, asosiy ta'limning barcha jahbalarida va qo'shimcha ta'lim olishda shart-sharoitlar yaratilganligi; ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslarga maxsus ta'lim olish uchun shart-sharoitlar yaratish va ularga pedagogik-psixologik hamda korreksion ko'mak berish; shaxsnинг ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlarini, shuningdek shaxsni kamol topishida, yetuk kadrlarni tayyorlashda jamiyat bilan birga davlatning ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish [O'zb .Resp. ta'lim].

Ta'lim, tibbiy va ijtimoiy xizmat bilan birgalikda olib boriladi. Oila va mahallada ota-onalar uchun profilaktika hamda reabilitasiya ishlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tashkil

etiladi. Ota-onalar nogiron bolalarini tarbiyalash va ularning aqliy rivojlanishlarini rag'batlantirish bo'yicha pedagogik usullar, shuningdeq ularning mustaqil bo'lislari uchun tengdosh sog'lom bolalar bilan muloqot qilishlari bo'yicha o'qitiladilar.

Imkoniyatlari cheklangan bolalarning, hoh u maxsus maktab, maktabgacha muassasalar bo'lsin, hoh umumta'lim muassasalari qoshidagi sinf yoki guruhlari bo'lsin, hoh uyda ta'lim olish bo'lsin - o'qitishning barcha shakllari-ta'lim sohasiga jalb qilinishi ma'lum jihatdan integratsiya jarayoni hisoblanadi, chunki o'qish davrida va undan keyin ham bu bolalar boshqa bolalar, shu jumladan umumta'lim muassasalarda ta'lim olayotgan bolalar bilan o'zaro muloqotda bo'ladilar, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga uyg'unlashuvi ta'minlanadi. Biroq, ta'lim olish uchun mos shart-sharoitlarni tanlash har bir bolaning va ota-onasining huquqi hisoblanadi. Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya mutaxassislari zimmasiga bolaning ruhiy-jismoniy holatini o'rGANISH va tashxis qilish vazifasi yuklangan bo'lib, bolani har tomonlama tekshirish natijasida bolalarni o'qitish va ularga mos keladigan ta'lim sharoitini aniqlashga doir tavsiyalar beriladi.

Shunday qilib, o'ziga xos ehtiyojlar bo'lgan bolaning umumta'lim sohasiga samarali jalb qilinishi uchun quyidagilar zarur: bolaning rivojlanishida ijobiy natijalarga erishishga imkon beradigan korrektson tadbirlarni erta yoshdan boshlash, umumiy ta'limga jalb qilingan har bir bola uchun tibbiy-psixologik-pedagogik kuzatuvni, ya'ni mutaxassislarning doimiy yordamini tashkil etish.

Ruhiy-jismoniy rivojlanishi va ta'lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, imkoniyatlari cheklangan har bir bolaning sog'lom bolalar bilan birgalikda tarbiya va ta'lim olishining zarur shakllarini tanlashni ta'minlash.

Bolaning ta'lim tizimiga jalb qilinishining biror ko'rinishi uchun oddiy va foydali bo'lishi darkor, ayni paytda bu inklyuziv ta'lim maromida rivojlanayotgan tengdoshlarining sifatli ta'lim olishiga halaqit bermasligi lozim.

Inklyuziv ta'limning barqarorligini ta'minlash maqsadida "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahririga imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim jarayoniga integratsiyalash maqsadida umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim muassasalarida inklyuziv guruh va sinflarning tashkil qilinishini tartibga soluvchi moddalar kiritilgan.

Inklyuziv ta'lim nima?

Tengdoshlarining, sinfdoshlarining orasida imkoniyati cheklangan (nogiron) bolalar ham bor, to'g'rimi? Siz ular bilan do'stlashib, birga dars tayyorlaysizmi, birga o'ynaysizmi?

Axir ular ham siz kabi jamiyatda baxtli bo'lishga haqli, shunday emasmi?

Inklyuziv ta'lim hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfxonada – bir xil sharoitda ta'lim olishini anglatadi. Ya'nim imkoniyati cheklangan bola sog'lom bolalar bilan bir xil e'tiborda o'qiy olishi kerak. O'zbekistonda oilaviy sharoitidan qat'i nazar, barcha bolalar davlat umumta'lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan.

Xo'sh nega inklyuziv ta'lim zarur?

Ba'zan tengdoshlarimiz, maktabdoshlarimiz orasida yoki mahallada imkoniyati cheklangan bolalarni ko'rib qolsak, tushunib-tushunmasdan uni ajratib qo'yishga, u bilan muloqot qilmaslikka harakat qilamiz. Bu noto'g'ri, aslida ular bilan o'rtoq bo'lib, bir jamoa bo'lib yashasak, ularning baxtli hayot kechirishlariga hissa qo'shishimiz mumkin.

Jamiyatda har bir bola baxtli bo'lishga haqli!

Ma'lumot uchun: Respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalarga mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan 86 ta maktabda 22 mingdan ortiq, sanatoriy turdag'i maktab-internatlarda 6 mingdan ortiq o'quvchi, uy sharoitida esa 13 mingdan ortiq o'quvchi ta'lim oladi. Hozirda O'zbekistonda 3 mingdan ortiq umumiy o'rta ta'lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o'quvchilar inklyuziv ta'lim bilan qamrab olingan. 2025-yilgacha 40% imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta'limga jalb etilishi rejalashtirilmoqda.

Davlatimiz tomonidan qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi Qonunning II

bobi 9-moddasida jismoniy, aqliy, sensor(sezgi) ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlariga inklyuziv shaklda yoki uy sharoitida yakka tartibda ta'lim oladi".

Inklyuziv ta'lim haqida so'z yuritilganda , uning asl mohiyatini nimaga qaratilayotgani haqida so'z boradi. O'zi „Inklyuziv ta'lim” nima? „Inklyuziv ta'lim” bu ( inglez tilidan olingen bo'lib, inclusive, inclusion-uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq,qamrab olish ma'nolarini bildiradi). Nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar (ayrim sabablarga ko'ra imkoniyati chelangan) o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'i nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Sharqning mashhur allomalari Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobi, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy larning tarbiyasining maqsadlari har birbola shaxsining rivojlanishiga ta'limning ta'siri to'g'risidagi qarashlari inklyuziv ta'lim rivojlanishining metodologik bazasi hisoblanadi.

Imkoniyati cheklangan bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir. Imkoniyati cheklangan bolalarning umumta'lim muassalari tarkibiga qarab olinishi jahon miqyosida „inklyuziv” yoki “integratsion” ta'lim atamalari bilan ataladi. Integratsiyalashgan ta'lim bu-diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir. Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari:

Inklyuziv ta'lim tizimida qo'yidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi:

- ta'lim muassasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim

olishlari uchun zaruriy psixolo-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish;

- o'quvchilarning ta'limga tenglik xuquqini kafolatlash;
- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning ixtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;
- imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oiladan ajramagan holda yashash xuquqini ro'yobga chiqarish;
- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirishdir.

Inklyuziv ta'limga kiritishning asosiy tamoyillari.

- 1) Inklyuziv ta'limga tizimini joriy etish har doim ma'lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishini talab etadi. Inklyuziv ta'limga tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:
- 2) Inklyuziv ta'limga barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili.
- 3) Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili.
- 4) Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili.
- 5) Inklyuziv ta'limga kompleks yondashish tamoyili.
- 6) Inklyuziv ta'limga moslashuvchanlik tamoyili.
- 7) Malakaviylik tamoyili.

1) Inklyuziv ta'limga e'tirof etilishi tamoyili. Bu tamoyilning mazmuni shundaki, 1990yildan buyon maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida bir qancha jahon miqyosida dekloratsiyalar va qarorlar qabul qilindi. Ular jahoning ko'plab davlatlari e'tirof etdilar. Ammo bugungi kunga qadar ularni xayotga joriy qilish borasida ko'plab muammolar mavjud. Ba'zi davlatlarda esa umumiy ta'limga qonun yoki qarorlar qabul qilinganda nogiron bolalarning ta'limga masalasi unga kiritilmaydi. Ammo inklyuziv ta'limga tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog'liq bo'lmaydi. Diskriminatsiya (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto'g'ri fikrlashga qarshi kurashish eng muhim

narsadir. Ya'ni inklyuziv ta'limga e'tirof etgan holda, aholi o'rtaida targ'ibottashviqot ishlarni olib boorish eng birinchi galadagi masaladir.

2) Inklyuziv ta'limga barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili. O'tgan o'ttiz bir yil davomida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida nezilarli ishlarni amalga oshirildi. Ammo inklyuziv ta'limga tizimida joriy qilish asosan shaharlar miqyosida bo'lib qishloqlardagi hududlarda hali-hamon maxsus ehtiyojli bolalar ta'limga chetda qolib ketmoqda yoki qishloqlardagi otaonalar nogiron farzandini shaharlardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta'minlash uchun qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham maxsus ihtiyojli bolalarni inklyuziv ta'limga jaib etish barcha hududlarda barcha maxsus ihtiyojli bolalarni qamrab olgan bo'lisi ta'minlanishi lozim.

3) Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili. „Bog'lanish” bu so'zning zaminida ommaviy binolarning sifati, ayniqsa nogiron bolalar uchun maktabga kirishning oson bo'lishi kabilar yotadi. Jismonan bog'lanishlarni yaratish inklyuziv ta'limga tizimining asosiy muammolatini hal etishga xizmat qiladi

4) Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili. Bu tamoyilning mazmuni shundan iboratki quyidagi ikkita aspekt yordamida ifodalanadi:  
A) Inklyuziv ta'limga tizimining integratsiya qilingan qismi bo'lishi kerak.  
B) Inklyuziv ta'limga vazifalar maxalliy ta'limga organlari javobgarlik va boshqaruvni yuklash uchun markazlashmagan holda olib borilishi kerak va imkoniyatlar maxalliy sharoitlaga moslashtirishlari lozim.

Optimal integratsiya erishish uchun markazlashtirilmagan bo'lishi muhimdir. Bu ayniqsa qishloq sharoitlaida ayni muddao bo'ladi. Inklyuziv ta'limga vazifalari nogiron bolalarga o'z ota-onalari bilan birga bo'lish ularga xuddi tengdoshlari kabi

o'zlariga yaqin bo'lgan maktablarda ta'lim olish imkonini beradi. Nogiron bolaning normal rivojlanishiga halaqt berish nogironlikdan ham og'irroq holatlarga olib kelishi mumkin.

5) Inklyuziv ta'limda kompleks yondashish tamoyili. Nogiron bolalarga ularga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashish emas, balki bu bolalarga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta'lim masalasini rejalashtirayotgan uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda tuzishni talab etadi. Bundan tashqari inklyuziv ta'limda nogiron boladagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda bilim ko'nikmalarga ega qilish, kasb-hunarga o'rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etadi. Nogiron bolalarning kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limi ham amalga oshirilishi talab etidi. Chunki inklyuziv ta'lim tizimining vazifalardan biri maxsus ehtiyojli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlaini ta'minkashdan iboratdir.

6) Inklyuziv Ta'limda moslashuvchanlik tamoyili. Bu tamoyilning mazmuni shundan iboratki, o'quv reja, dastur va darsliklar maxsus ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga moslashuvchan bo'lishi kerak. Bolaning maxsus ta'limga bo'lgan ehtiyojlar har qanday integratsiya faoliyatining assosini tashkil etishi kerak. Shaxs ehtiyojlarining darajalari va turlari har xil bo'lganligi tufayli bunday faoliyatlar moslashuvchan bo'lishi talab etiladi.

7) Malakaviylik tamoyili. Maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv tarzda o'qitilayotgan sinflarda yuqori malakali o'qituvchilarining dars berishi talab etiladi.

Bundan tashqari inklyuziv sinf o'qituvchisi defektologiya sohasi bo'yicha ham malaka oshirgan bo'lishi kerak. Inklyuziv ta'lim joriy qilingan maktablarga (muassasalarda) ta'lim jarayonini tashkil etish tamoyillari.

\*Maxsus ta'lim tamoyillari

\*Korreksion yo'naltirilganligi

\*Nuqsonlarni aniqlash, ta'lim berishda kompleks(klinik-genetik,

neyrofiziologik, psixolo-pedagogik) yondoshish

\*Umumiy o'rta ma'lomit berish, kasbga yo'naltirish va ijtimoiy hayotga

tayyorlashga moslashtirish

\*Deffernsial tabaqa lashtirish va alohida yondoshish

\*Ta'limning usluksizligini ta'minlash

1990 yilda Tailandda o'ta muhim Umumjahon Konferensiysi bo'lib o'tdi. Bu konferensiyada "Ta'lim hamma uchun" Umumjahon Deklaratsiyani dunyoning 155ta davlat hukumatlari va 150 dan ortiq nodavlat tashkilotlari qabul qildilar. "Ta'lim hamma uchun" Umumjahon Deklaratsiyasi har bir bolaning to'laqonli va mukammal ta'lim olishini kafolatlaydi. "Ta'lim hamma uchun" shiori deganda nogiron bo'lgan yoki jamiyat ichida ajratib qo'yilgan guruhlardan kelib chiqqan bolalarning ham tenghuquqlik asosida ta'lim olishlari tushuniлади.

"Ta'lim hamma uchun" Umumjahon Deklaratsiyasi quyidagicha bayonet qabul qilingan: „Maktablar bolalarning imkoniyatiga qarab emas, ish sifati va matab ta'limiga javob berishi bilan xarakterlanadi. Ular quyidagilardan iborat:

- har bir bolaning huquqi ommaviy maktabda ta'lim-tarbiya olishini talab etidi;

- o'qitishning metod va metodikalari bolaning nuqsoniga qarab tanaladi;

- maktabda to'laligicha korreksion pedagogik yordam tashkil etadi;

- bolalar to'g'risidagi qaror kompleks tarzda qabuk qilinadi;

- bolalar har bir shaxsiy huquqi kafolatlanadi;

- inklyuziv maktablarning moddi ta'minoti yaxshilanadi;

- maktabda integratsiya tamoyiliga o'quv rejaning asosi sifatida qaraladi;

Juda ko'plab davlatlarda maxsus yordamga muhtoj bolalarni yuqori natijali kamol toptirishda kompensator imkoniyatlarni rivojlantirish hamda ijtimoiy moslashtirishni to'laligicha yo'lga qo'yish maqsadida umumta'lim maktablarida ta'lim berish ilmiy va amaliy davlat siyosati rejasiga kiritildi.

"Ta'lim tizimi shunday bo'lishi kerakki deb yozadi L.S.Vigotskiy fikricha nuqsonli bolani tarbiyalashning vazifasi boladagi nuqsonlarni kompensatsiya qilish va uning integratsiyasini ta'minlash deb hisoblaydi va buning uchun shunday ta'lim tizimini yaratish kerakki maxsus yordamga muhtoj bola o'qish jarayonida har tomonlama rivojlansin. Ya'niy L.S.Vigotskiy umumiy va maxsus ta'limni uyg'unlashtiradigan ta'lim tizimini tashkil etish maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim tizimida o'qitishni e'tirof etgan.

2003 yilda Respublikamizda „Ta'lim hamma uchun“ Milliy dasturi ishlab chiqildi. „Ta'lim hamma uchun“ dasturining Milliy rejasi YUNESKO ning maslahatlari va moddiy ko'magi bilan 2000 yilgi Dakar shartnomalariga mos bo'lib, siyosatchilar, ta'lim tizimi, vazirlik va idoralar rahbarlari, pedagoglar, jamoat arboblari, O'zbekiston Respublikasi uzlusiz ta'lim tizimini rivojlantirish muammolari bilan qiziquvchi barcha shaxslar uchun mo'ljallangan. Mazkur rejada O'zbekiston Respublikasida uzlusiz ta'lim tizimini „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi-, „Ta'lim hamma uchun“ Milliy Rejasining konseptual o'zagi asosida isloh etish muammolari va istiqbollari tahlil qilingan. XTB ta'lim markazi YUNESKO tashkiloti bilan hamkorlikda 2001-2003 yillarda „inklyuziv ta'lim“ mavzusida seminar o'tkazib, uning tavsiyalariga asosan „Inklyuziv ta'lim resurs markazi“ tashkil etildi.

Hozirgi kunga kelib respublikamiz tomonidan viloyatlardagi muktabarda tashkil etilgan inklyuziv sinflar tajriba, sinov tariqasida o'z ish faoliyatlarini olib bormoqdalar. Inklyuziv ta'lim g'oyasini O'zbekistonda joriy qilish va undagi muammolarni hal qilish maqsadida turli xil chora-tadbirlar uyushtirish, matbuotaxborot vositalari orqali targ'ibot-tashviqot ishlari bir muncha faollashdi.

O'zbekistonning integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim sohasidagi siyosati yosh fuqarolarning ta'lim olishlari uchun optimal sharoitlar yaratilishiga qaratiladi va quyidagi maqsadlar bajarilishiga yo'naltiriladi:

- bolaning o'ziga xos ta'limga ehtiyojlarini mumkin qadar erta (hayotining dastlabki oylaridan) aniqlash;
  - o'ziga xos ta'lim ehtiyojlarini mavjud bolalarning barchasini ta'limga jaib etish;
  - imkoniyatlari cheklangan bolalarni sog'lom tengdoshlari qatoriga integratsiyalash uchun sharoitlar yaratish;
  - imkoniyatlari cheklangan shaxslaming o'ziga xos ta'lim ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
  - uyg'un rivojlangan avlodni tarbiyalashga qaratilgan davlat siyosatini ta'lim vositalari yordamida qo'llab-quvvatlash;
- Mazkur maqsadlarga erishish, quyidagi vazifalar majmuasining amalga oshirilishini taqozo etadi:
- imkoniyatlari cheklangan bolalarning ehtiyojlaridan kelib chiqib, maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim mazmunini ilmiy-uslubiy jihatdan ishlab chiqish;
  - maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'limni uning barcha pog'onalarida tashkil etish, boshqarish va muvofiqlashtirish prinsiplari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
  - maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'limning huquqiy asoslarini takomillashtirish, uning me'yoriy huquqiy jihatdan ta'minotini ta'lim siyosatining maqsad va vazifalariga moslashtirish;
  - bolalarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda sifatli ta'lim olishda teng imkoniyatlarga ega bo'lishning davlat tomonidan kafolatining amalga oshirilishini ta'minlaydigan tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini yaratish;
  - maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim muassasalarini uchun pedagogik kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish ishlari takomillashtirish;
  - maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim muammolarini ilmiy-nazariy va ilmiy-uslubiy nuqtai nazardan ishlab chiqilishini ta'minlaydigan ilmiy-pedagogik kadrlarning kasbiy tayyorgarligi va malakasini oshirish;

"Inklyuziv ta'lim" ingliz tilidan, inclusive, inclusion-uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olish, ma'nolarini bildiradi.

R.Sh.Shomaxmudova tadqiqotlari asosida "Nogiron va alohida ehtiyojli ta'lim oluvchilar o'rtasidagi to'siqlarni olib tashlash, maxsus ta'limga muhtoj bolalar va o'smirlarni rivojlanishidagi kamchiliklar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar, oilaning faol ishtirokchisi sifatida qaralishi, xususan bolaning ehtiyojini qondirish va ijtimoiy hayotga moslashtirishga hamda umumta'lim tizimiga to'liq qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir"- deb ta'rif bergen [ink ta'lim].

Buyuk Britaniyaning "Bolalarni qutqaring" ("Save the children"-2002 yil) jamg'armasi tomonidan nashr etilgan o'quv qo'llanmada inklyuziv va integratsion tushunchalari bir xil ma'noda ishlatiladi. Shunga qaramasdan, ushbu tushunchalar orasida farq mavjud bo'li, bu farqlarni quyidagicha ifodalash mumkin:

- integratsion ta'lim: maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muktabiga qatnashi;
- inklyuziv ta'lim: maxsus ehtiyojli bolalarni sifatli ta'lim tarbiya olishi.

Bu ikkala tushuncha o'rtasidagi tafovut yanada tushunarliroq bayon etilgan bo'lib, quyidagicha ta'kidlanadi:

Integratsiyalashgan ta'limda bolaga muammo sifatida qaraladi.

Nogiron bolaning individual yoki tibbiy holatda maktabga yoki jamiyatga moslashishi kerak. Masalan, eshitishida nuqsoni bo'lgan bola umumta'lim sharoitiga moslashishi uchun eshituv apparatidan foydalanib gapirishni o'rganishi kerak. Sog'lom boladan esa imo-ishora tilini va muloqotning boshqa shakllarini o'rganish talab qilinmaydi. O'qishda muammo bo'lsa, bola standart talablarni bajarishi kerak. Aks holda o'qituvchi qo'shimcha mashhulotlar o'tilishi lozim.Inklyuziv ta'lim bolani emas tizimni o'zgartirishni taqozo qiladi. Nazariy adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida integratsion va inklyuzivlik tushunchalarining o'rtasida umumiylilik ham mavjudligi o'ganildi, bu umumiylilik zamirida maxsus ehtiyojli bolalarni

umumta'lim tizimi sharoitiga kiritish yotadi.Xorijiy davlatlarda inklyuziv ta'lim tizimining joriy qilinishini o'rganar ekanmiz, bu ta'lim tizimini joriy etish uchun uzoq vaqt ni talab etishini va juda ko'p miqdordagi moddiy mablag' zarurligi aniqlandi. Shuning uchun ham jahon miqiyosida inklyuziv ta'lim tizimining oldida quyidagicha juda ko'plab muammolar va to'siqlar mavjud:

- ota-onalar uchun o'quv qo'llanmalarning yo'qligi;
- ko'plab davlatlarda inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha davlat normativ hujjalardida qayd qilinmaganligi;
- nogiron bolalarga nisbatan salbiy munosabat;
- maxsus ehtiyojli bolalarning hamjamiyatda ko'rinnmaslik muammosi;
- maxsus ehtiyojli bolalarning muktabda ko'rinnmaslik muammosi;
- moddiy mablag' muammolari;
- ta'lim muassasalarini jismoniy moslashtirish;
- sinda o'quvchilar sonining ko'pligi;
- kambag'allik;
- jinsiy tafovutlarga qarab kamsitish;
- maxsus ehtiyojli bolalarning boshqalarga qaramligi;
- favqulodda vaziyatlar mojarolar qochoqlar;
- kadrlar masalasidagi muammolar.

Haqli savol tug'iladi, nima uchun maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta'lim tizimiga jalb etish kerak? Yuqorida keltirilgan muammolarni hal etib, inklyuziv ta'lim tizimiga o'tishga qanday zaruriyat bor? Darhaqiqat, bu ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish oson kechmaydi. Ammo bu ta'lim tizimining naflji jihatni juda ko'p bo'lib ular sirasiga quyidagilar kiradi:

- inklyuziv ta'lim qashshoqlik va ajratish iskanjasidan qutulishga imkon beradi;
- inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli bolaning o'z oilasi va jamiyat davrasida bo'lishga imkon beradi;
- inkyuziv ta'lim barcha uchun ta'lim sifatini yaxshilaydi;
- kamsitishlarni oldini oladi;

Umumta'lim muassasalari sharoitida maxsus ehtiyojli bolalarga ta'lim tarbiya berishning o'ziga samarali natija bermaydi. Buning uchun maktabda pedagoglar, defektologlar, psixologlar tomonidan do'stona munosabat muxitini yaratish lozim. Sinfda do'stona munosabat muhitining shakllanishi sog'lom va maxsus ehtiyojli bolalarning bir-birlariga nisbatan mehr-muhabbatli bo'lishlariga, bir birlariga doimo yordam berishlariga zamin yaratadi. Imkoniyati cheklangan bolalarning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Bu esa korreksion-pedagogik ishni samarali va osonroq kechishini ta'minlaydi.

Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarning umumta'lim muassasalarida ta'lim olishlari uchun qo'shimcha moslamalarning yaratilishini va shu yo'l bilan nogiron bolalar uchun qulay shart-sharoitlarni talab qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalarning inklyuziv ta'lim-tarbiyasini amalga oshirishga, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirishga qaratilgan ishlarni samarali olib borish uchun maxsus soha xodimlari hamda nogiron bolalar ota-onalariga inklyuziv ta'limning mohiyati, ahamiyati, ijtimoiy zarurligini tushuntirish ham mas'uliyatli ishlar jumlasiga kiradi. Zero maxsus yordamga muhtoj bolalarning asosiy muammolarini ular o'zları yashab turgan muhitdan, oiladan uzoqda ta'lim-tarbiya berish bilan hal qilib bo'lmaydi. Imkoniyatlari cheklangan jamiyat a'zolari sog'lom jamiyat a'zolari bilan teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lmash ekan ijtimoiy integratsiyaga erishish mushkul vazifa.

Maxsus ehtiyojli bolalarning ta'lim-tarbiyasida tenghuquqlilik muammosini hal etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Ammo bugungi kunda ham juda ko'plab bolalar turli xil sabablarga ko'ra ta'limdan chetda qolmoqdalar. Inklyuziv ta'limga jalb qilishning tashkiliy, ilmiy-uslubiy masalalarini ko'rib chiqish, mutaxassislarni tayyorlash, malakasini oshirishga oid tadbirlarni ishlab chiqish lozim. Alovida yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb qilishning ikki asosiy omili mavjud.

Birinchidan, imkoniyati cheklangan bolalar ham sog'lom bolalar bilan birgalikda o'zaro faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus

ehtiyojli bolalar ijtimoiy tomondan himoyalananadilar, sog'lom bolalar esa ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillari asosida tarbiyalananadilar, nogiron bolalarga nisbatan yanada mehribonroq va e'tiborliroq, nisbatan sezgirroq bo'ladilar, ularga g'amxo'rlik ko'rsatishni tabiiy hol deb biladilar.

Ikkinchidan, nogiron bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan yonma-yon o'qish, tarbiyalanish huquqiga ega ekanligini his qiladilar va ijtimoiy hayotga osonroq va ertaroq moslasha boshlaydilar. Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim-tarbiyasida ota-onalar, pedagoglar, mutaxassislar, mahalla hamkorligida ish olib borishni talab qiladi.

Inklyuziv ta'limni amaliyotga o'ziga xos tarzda joriy qilish uchun pedagogik, tashkiliy va uslubiy ishlar zarur. Maxsus ehtiyojli bolalarning umumta'lim sharoitida o'qitilishi ularning o'ziga xos xususiyatlari, nuqson turi, darajasi va sinfdagi bolalar sonini e'tiborga olib holda tashkil qilinadi. Avvalo shuni ta'kidlash joizki, o'quvchilarning yoshlari bir xil bo'lsa-da, lekin ular bir-birlariga o'xshamaydilar. Barcha bolalarning individual psixologik, shaxs xususiyatlari, idrok qilish darajasi, zehn va idroki turlichadir. Shu bois maxsus ehtiyojga ega bo'lgan bola ta'lim olayotgan inklyuziv sinflardagi o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish masalasi yanada murakkabroq muammolarni hal etishni talab etadi. Inklyuziv sinfda o'qituvchi bolalarning imkoniyatini e'tiborga olib, darslarni shunga muvofiq rejalashtira olsa, bolalarning nogironligi bilim olishiga ta'sir qilish va qiyinchiliklarni bartaraf etishning samarali yo'llaridan foydalansa, maktab va oila hamkorligini to'la yo'lga qo'ya olsa, nogiron bolaning kelajagiga ishonch bilan qarasagina dars jarayonining muvaffaqiyatli kechishiga erishish mumkin. Har bir bola o'z imkoniyat darajasida rivojlanadi. Atoqli psixolog olim L.S.Vigotskiy aytganidek: «Har qanday ruhiy yoki jismoniy nuqsonda ham taraqqiyot davom etadi».

Inklyuziv ta'limning joriy etilishi milliy, tashkiliy va uslubiy islohotlarni talab etadi. «Umumta'lim» va «Maxsus ta'lim» o'rtasidagi to'siqlar olib tashlanishi kerak. Inklyuziv ta'limda ilmiy tadqiqotlar olib borish va ularni amaliyotga tadbiq qilish murakkab bo'lib, ko'pchilik amaliyotchi

olimlarning fikricha bu jarayon bir necha yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Birinchidan- inklyuziv ta'limgarayonida bolaning ishtiroki to'la huquqiy ta'minlanishi kerak. Bunga ta'limgarayonida muassasasi ma'suliyatlari hisoblanadi. Ikkinchidan-maxsus pedagogikaga oid adabiyotlar va tadqiqotlarda inklyuziv ta'limgarayonida bilan bog'liq muammolar muhokamasini yoki metodik ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishda uni qadrli fenomen shaklida ko'rib chiqish kerak. Chunki inklyuziv ta'limgarayonida jamiyatning ijtimoiy-madaniy xususiyatlaridan kelib chiqib ta'limgarayonidagi barcha ishtirokchilarning fikriga asoslanib, doimiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi lozim. Uchinchidan- inklyuziv ta'limgarayonida madaniyatni hosil qilish, inklyuziv siyosatni rivojlantirish va inklyuziv amaliyotni kiritish yo'nalishlarini tahlil qilish kerak. To'rtinchidan- inklyuziv ta'limgarayonida muammosi uning tashkil etishning turli shakllarini o'rganishda o'z aksini topadi va ishtirokchilarning ijtimoiy, iqtisodiy, ruhiy, sog'lig'i kabi turli xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

Biz dastlab inklyuziv ta'lif haqidagi olimlar fikrlariga to'xtaldik.

Pedagogik atamalar lug'atida "inklyuziv ta'limga o'quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ma'sus ta'limga jarayonidir" deb ta'rif berilgan [94].

Inklyuziv ta'lim (inglizcha "inclusion - uyg'unlashgan, jalg qilingan") "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda "barcha o'quvchilar uchun maxsus o'quv ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda ta'lim olish imkoniyatini teng ravishda ta'minlash" deb belgilangan.

Inklyuziv ta'lim haqida gapirganda, ta'lim ehtiyojlarining turli-tuman yo'nalishlariga alohida urg'u berish zarur. Shu bilan birga, psixofiziologik rivojlanishida alohida xususiyatlarga va sog'lig'ining imkoniyatlari cheklangan bolalarni o'qitishga alohida e'tibor va tadqiq etish lozim. (bir xil bolalar guruhini belgilaydigan turli xil atamalar normativ hujjalardan

tasdiqlangan. Prezidentimizning «Alohibda ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, 2021/2022 o'quv yilida: tajriba-sinov tariqasida shaharlarda hamda Toshkent shahrining tumanlarida joylashgan bittadan umumta'lif maktabalarida inklyuziv ta'lif tizimi joriy qilinadi; Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan bittadan umumta'lif maktabida alohibda ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun boshlang'ich tayanch korreksion sinflar ochiladi; Qashqadaryo, Farg'onha va Xorazm viloyatlarida joylashgan bittadan kasb-hunar maktabida intisoslashtirilgan ta'lif muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hamda alohibda ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun intisoslashtirilgan guruuhlar tashkil etiladi. Bundan tashqari "Ta'lif to'g'risida"gi Qonunda inklyuziv ta'lif barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lif ehtiyojlari va individual imkoniyatlarining farqliligini inobatga olgan holda ta'lif muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni shakllantirishdir deyiladi.

Yangi Zenlandiyadagi Vaykato Universiteti doktarantı Galina Namning ta'kidlashicha nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus maktab internatlarda yoki uyda emas balki umumiy ta'lif muassasalarida ta'lif olish ustuvor bo'lishi kerak. Respublikamizda ham inklyuziv ta'lif borasida D.S.Qaxarova "Umumta'lif maktablarida inklyuziv ta'lifning pedagogik-psixologik jihatlarini takomillashtirish" buyicha ilmiy izlanishlar oli borgan. Butun jahon bolalariga xos bo'lgan bolalar huquqi haqidagi Konvensiya (20.11.1989) va boshqa me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilishicha, barcha bolalar, shu jumladan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ham mehnat qilish, ta'lif olish, hayotda o'z o'rnnini topib ketish huquqlariga egadirlar. Konvensiyaning 19- moddasiga ko'ra "Bola ota-onasi yoki har qanday boshqa shaxs tomonidan haqoratlanishi, qo'pol muomalada bo'lishdan himoyalanishi huquqiga egaligini inobatga olib, ayrim mamlakatlarda ishlatalidigan atamalardan "korreksion pedagogika", "anomal

bolalar”, “aqlan zaif” kabi va boshqalardan voz kechmoqdalar. XIX asrning 20 yillardan beri Defektologiya fani - jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ta’lim tarbiyasini o’rganilib kelinmoqda. Hozirgi kunda bu fan «korreksion pedagogika» deb ham yuritilmoxda. Inson xuquqlari dekloratsiyasi, bolalar konvensiyasi talablaridan kelib chiqqan xolda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor kishilarni kamsitmaslik, xaqoratlamaslik uchun masalan, Moskva shahridagi Defektologiya ilmiy-tadqiqot instituti “Korreksion pedagogika ilmiy tadqiqot instituti” deb nomlanmoqda. Defektologiya fani ko’p mamlakatlarda korreksion pedagogika deb yuritilmoxda. Korreksion pedagogika fanining predmeti-anomal bolalar, ya’ni jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarga (yunoncha anomalous - odatdan tashqari), ta’lim va tarbiya berishni nazarda tutadi. Hozirgi kunda O’zbekistonda korreksion pedagogika alohida yordamga muhtoj jismoniy yoki ruhiy kamchiliklari bor bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlari va ta’lim-tarbiysi bilan shug’ullanadigan fandir. Korreksion pedagogika so’zi lotincha tuzatish, bartaraf etish, pedagogika- ta’lim-tarbiya, o’rganish degan so’zlardan olingan. Korreksion pedagogika fanining mavzu bahsi anomal, alohida yordamga muxtoj bolalardir. Korreksion pedagogikaning vazifasi - anomaliyalarning kelib chiqish sabablari, turlarini, anomal bolalarning psixofiziologik rivojlanishdagi xususiyatlarini o’rganish asosida integratsiyalashgan, inklyuziv yoki differential ta’limni tashkil etish, ularning ta’lim-tarbiysi bilan shug’ullanishdir. Korreksion pedagogika fanining maqsadi - anomal bolalarga integratsiyalashgan-inklyuziv xamda differential ta’limni tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni o’rganish, ulardagi psixofiziologik kamchiliklarni iloji boricha bartaraf etish, tuzatish yoki bilinmaydigan holga keltirish usullarini belgilash va amaliyotda tatbiq etish yo’llarini tarbiyachi hamda o’qituvchilarga ko’rsatib berishdan iborat. Anomaliyalar har xil bo’ladi, ularning ba’zilari batamom bartaraf etiladi, ba’zilari bir qadar tuzatiladi, korreksiyalanadi, boshqalari esa bilinmaydigan holga keltiriladi, ba’zilari esa

kompensatsiyalanadi. Bola nutqida qo’pol kamchiliklar bo’lsa, to’g’ri tashkil etilgan logopedik choralarни o’z vaqtida ko’rish yo’li bilan ularni to’liq bartaraf etish mumkin. Boladagi nuqson organik kamchiliklar natijasida paydo bo’lgan bo’lsa (masalan, oligofreniya shunday nuqson jumlasiga kiradi), uni to’liq bartaraf etib bo’lmasa ham qisman tuzatish mumkin. Korreksion pedagogika amaliyotida yana shunday anomaliyalar uchraydiki, ularni tuzatib ham, korreksiyalab ham bo’lmaydi, masalan, tug’ma ko’rlik yoki karlik shular jumlasidandir. Bunda ko’rish analizatorining vazifasini sezgi organlariga, eshitish analizatorining vazifasini esa ko’rish analizatoriga yuklash, ya’ni kompensatsiyalash, o’rnini bosish mumkin. Ko’rish qobiliyati zaif bolalar sezgi organlariga tayangan holda barmoqlari bilan Brayl shriftidan foydalanadilar. Bunda harf olti nuqta kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Eshitish qobiliyati zaif bolalar esa imo-ishora, ya’ni daktil nutqdan, barmoqlar harakati bilan anglatiladigan nutqdan foydalanishlari mumkin.

### Birinchi bob yuzasidan xulosa

Pedagogik ta’lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy va amaliy yechimini topishni o’zining asosiy strategik tadqiqot yo’nalishlarini ishlab chiqish zarur. Bu vazifalar pedagogik ta’lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Inklyuziv ta’lim haqida gapirganda, ta’lim ehtiyojlарining turli-tuman yo’nalishlariga alohida urg’u berish zarur. Shu bilan birga, psixofiziologik rivojlanishida alohida xususiyatlarga va sog’lig’ining imkoniyatlari cheklangan bolalarni o’qitishga alohida e’tibor va tadqiq etish lozim.

Dissertatsiya ishining birinchi bobida innovatsion ta’lim klasterining ilmiy-nazariy asoslari, inklyuziv ta’limning hozirgi kundagi holati hamda inklyuziv ta’limni samaradorligini oshirishda klaster muhitini yaratib olishimiz haqida so’z borgan.

## **II BOB TA'LIM KLASTERI SHAROITIDA INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK – PSIXOLOGIK, METODIK SHART-SHAROITLARINI O'RGANISH**

### **2.1 Sharq mutafakkirrlarining imkoniyati cheklangan bolalar ta'limga oid pedagogik nazariyalari**

Markaziy Osiyoda bu masala ancha yillardan buyon tadqiqotchilarni qiziqtirib keladi. Olimlar ham, siyosat va jamiyat arboblari, pedagog va talabalar, jamoat uyushmalarining faollari va oddiy fuqarolar ham bu masalaga tobora ko'proq e'tibor bermoqdalar. O'zbekistonda yanada demokratiyani chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini asoslarini barpo etishdagi manfaatdor bo'lgan har bir kishi O'zbekiston xalqlarining falsafiy-siyosiy va huquqiy merosini yaxshi bilishi, hamda mutafakkirlar ilgari surgan g'oyalarga murojaat qilishi kerak.

Ko'pgina mashhur olimlar bu ta'limgotning tarkibiy qismlariga murojaat etib, mazkur muammoning turli-tuman ma'nolarini ilgari surganlar. Bu esa, o'z navbatida, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga olib keldi va ming yillik falsafaning tarixiga qiziqisni borgan sari oshirib, uni o'rjanuvchilar doirasini kengaytirib kelmoqda.

"Avesto"da tug'ilgan va tug'ilмаган болалар huquqlari qat'iy muhofaza qilinganligiga guvoh bo'lamiz. Voyaga yetmagan bolalarni ota-onalardan judo qilish, vasiysiz qoldirish og'ir jinoyat hisoblanadi. Bolalarni yoshligidan fanlarga o'qitish, harbiy ishlarga va kasb-hunarga o'rgatish tavsiya etilgan.

Ma'lumki, "Avesto"ning bizgacha yetib kelgan qismi to'rt kitobni o'z ichiga oladi:

- birinchi kitob - "Yashna" (duolar yoki qurbanlik keltirish);
- ikkinchi kitob - "Visparad" (ibodat qo'shiqlari);
- uchinchi kitob - "Yastlar" (ma'budalarga madhiyalar);
- to'rtinchi kitob - "Vendidot" (devlarga qarshi qonun).

"Avesto"dagi g'oyalar ezgulikni ulug'lashni ifodalash bilan bir qatorda ular mohiyatan bir-biri bilan bog'liqdir.

"Avesto"dan ma'lum bo'lishicha, o'sha paytdagi ijtimoiy-siyosiy tizim bir-biriga bog'liq ierarxik pog'ona-davlat, so ("kavi"), jamoa boshlig'i ("vis"), harbiy boshliq ("dax'yu nastar"), oliy sud'ya ("Zaratustroema"), oqsoqollar kengashi ("varzanapati")dan iborat bo'lgan<sup>18</sup>. Ko'rinish turibdiki, jamoa-ahlining asosiy qismi davlat boshqaruvida istirok etgan. Tom ma'nodagi, biroq o'sha oddiy sakldagi fuqarolik jamiyatni belgilarni urug' va qabilaga birlashgan jamoa hayotida umumiyl ijtimoiy-foydali menat bilan shug'ullanishida, erkin jamoa a'zolarining asosiy mulki chorva va yerlardan teng foydalanishganligida, erkaklar bilan xotin-qizlar teng huquqqa ega bo'lganligida, qabilaning umumiy manfaati bilan bog'liq bo'lgan turli masalalar oqsoqollar Kengashida muhokama etilganligini ko'rish mumkin.

O'rta Osiyo xalqlari ilg'or mutafakkirrlarining siyosiy-falsafiy qarashlarida odil hukmdor g'oyasi markaziy o'rinni egallaydi. Ular davlat tepasida turgan hukmdor adolatli, xulq atvori pok, fuqarolarga rahm-shafqatli, g'amxo'r bo'lsa, davlat qudratli, jamiyat faravon bo'ladi, deb tushunadilar. Shundan kelib chiqqan holda ular insonni ma'naviy kamolatga erishishga chaqradilar va shu orqali adolatsizlik, xulqiy buzuqliklarni bartaraf qilish mumkin, deb hisoblaydilar.

Qadimgi Sharq falsafasi, sotsiologiyasi uning eteologik asoslari qadimgi Movarounnahr hududida yashovchi xalqlarning ijtimoiy jarayonlarga munosabatlari va fikrlesh tarziga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatgan. Xususan, o'zbek xalqi va uning boy ma'naviyatining shakllanishiga islom dinining kirib kelishi va uning xalq tomonidan qabul qilinishi o'ziga xos hodisa bo'ldi, deb hisoblash mumkin. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'zbek xalqi Islom diniga o'z milliy xususiyatlari, urfadatları, turmush tarzi, an'analari bilan kirib keldi. Bu esa qabul qilingan islom eteologiyasi nazariyasiga tegishli aniqliklar va tadrijiy o'zgartirishlar kiritilisini taqozo eta bosladı.

Sharq mutafakkirlari tomonidan XI-XII asrlardayoq milliy pedagogikaning ilmiy didaktik asoslari yaratildi, shaxsning biologik va ijtimoiy mavjudot ekanligining mohiyati tadqiq

<sup>18</sup> Бобоев Ҳ., Ҳасанов С. "Авесто" – маънавиятимиз сарчашмаси. -Т.: Адолат, 2001. 51-6.

etildi hamda asoslab berildi. Bunga ayniqsa o'rta asrning buyuk mutafakkirlari Abu Rayon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiyning ilmiy ijodiy faoliyatlarining ijodiy ta'siri tufayli erishildi. Sharqning buyuk mutafakkir bobokalonlari ilm rivojining hech bir tomonini chetlab o'tmaganlar. Jumladan ularning ta'lif tarbiyaga oid qarashlari bugungi kunda ham pedagogikaning boy metodologik asosi bo'lib kelmoqda. Ularning nuqtai nazaridan maxsus pedagogikaga oid fikrlar ham chetlab o'tmagan.

Insoniyat ijtimoiy taraqqiyotining turli davrlarida maxsus yordamga mutoj bolalalarga nisbatan munosabat o'ziga xos ravishda amalga oshirib kelingan. O'tmishda bobakalonlarimiz o'zlarining munosib nomlariga ega bo'lgan mutafakkirlar yurtida jamiyatda hech bir insoniyat qatlami nazardan chetda qolmagan. Sharq mutafakkirlarining bola ta'lif tarbiyasi va pedagogikaga oid qarashlari maxsus pedagogikaning mustahkam metodologik asosi bo'la olishi bugungi kunga kelib o'z isbotini topmoqda.

O'rta asrning tabiiy-ilmiy, ijtimoiy yo'nalishlarining qarib barcha sohalarida 160 dan ortiq asar yaratgan va ikkinchi muallim nomi bilan mashhur bo'lgan mutafakkir Abu Nasr Forobiy (875-950)dir. Abu Nasr Forobiy yaratgan ilmlarni ikkita katta guruhga ajratish mumkin:

1). Qadimgi Yunon olimlari, asosan Aristotel asarlariga sharh sifatida yozilgan risolalar.

2). O'rta asr tabiatshunosligi va ijtimoiy falsafiy fikrlarining dolzarb muammolariga bag'ishlangan asarlar.

Forobiyning fikricha, insonning bilis qobiliyatini miya boshqaradi, yurak esa barcha a'zolarni ayot uchun zarur bo'lgan qon bilan ta'minlovci markazdir. Inson barcha bilimlarini tashqaridan oladi. Buning uchun u ko'plab vosita va imkoniyatlarga ega. Bular: sezgi, xotira, tasavvur va ayniqsa matiqiy fikrlash, aql bilan nutq bo'lib, mazkur vositalar yordamida u ilmni yaratadi.

Forobiyning "Aql ma'nolari aqida" asarida aql masalalari cuqur talqin qilinadi. U aql bir tomondan ruhiy jarayon, ikkinchi

tomondan tasqi ta'sir ta'lif-tarbiyaning natijasi ekanligini uqtiradi.

Forobiy o'z asarlarida ta'lif tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lif tarbiyaning usullari haqidagi fikr yuritadi. "Fozillar shahri aholisining fikrlari", "Baxt va saodatga erishuv to'g'risida", "Ixso alg'ulum", "Ilmlarning kelib chiqishi", "Aql ma'nolari to'g'risida" kabi asarlarida ijtimoiy tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Forobiy o'zining "Fozillar shahri aholisining fikrlari" nomli risolasida har bir inson jamiyatdan ajramagan holda bir butun faoliyat yuritishi lozimligini ta'kidlashi maxsus ta'lif va maxsus pedagogikadagi hozirgi kundagi inklyuziv ta'lif muammosidagi ilg'or qarashlarni tasdiqlaydi. "Har bir inson-, deb yozadi u-shunday tuzilganki, yashashi va oliy drajadagi yetuklikka erishmog'i uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'fga kirta olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi." Sunday ekan Forobiy o'z qarashlari bilan barcha insonlarni jamiyatdan ajralmagan holda faoliyat yuritishi zaruriyat ekanligini ta'kidlaydi. Demak, bu fikrlarning mazmunidan maxsus ehtiyojli bolalar ham umumjamiyat orasida, barcha qatori yashashi, faoliyat yuritishi va ta'lif tarbiya olisi kerak degan ma'noni anglash mumkin.

Yana bir yirik adib, jahon miqiyosida o'zining nodir va bebafo ilmiy falsafiy va ta'lif tarbiyaga oid asarlari bilan tanilgan va tan olingan, G'arbda Avetsenna nomi bilan mashhur bo'lgan buyuk Sharq mutafakkirlaridan biri Abu Ali ibn Sinodir. Ibn Sino o'zining tibbiyotga, inson tafakkuri va ta'lif tarbiyasiga oid qarashlari bilan maxsus ehtiyojli bolalar va ularning ta'lif tarbiyasi tizimiga ham juda katta hissa qo'shdii.

Ibn Sino, ayniqsa, miya faoliyatiga muhim o'rinn ajratadi, chunki, olimning fikricha, miya insonning bosh tafakkur organidir, u his etilayotgan obrazlarni idrok etadi, saqlaydi, ularni boshqaradi. Bu jarayon tana a'zolari o'rtasidagi sezgilar va harakatlarni o'zaro birlashtirib turuvchi vosita sifatida amalga oshiriladi.

Ibn Sino birinchi bo'lib psixik funktsiyalar miyadagi ma'lum markazlar faoliyatiga bog'liq degan fikrni ilgari surdi va uni isbotlashga urindi. Ibn Sino "Tib qonunlari" asarining 3-kitobida tafakkurga yetkaziladigan zararli ta'sirlar, uning natijasida kelib chiqadigan kasalliklar xususida keng to'xtalib o'tadi. U tafakkurning zararlanishiga miya shishlari sabab bo'ladı, deb hisoblaydi. Allomaning bu ta'limotlari hozirgi kunda bolalarning imkoniyati cheklanganlik sabablari, uning oldini olish va davolashh, korrektsiyalash yo'llari, yechimlarini topishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Ibn Sinoning inson temperamentining psixologik asoslari haqidagi mulohazalari qiziqarli bo'lib, u insonning ruhiy holati, ko'p kasalliklarning keltirib chiqaruvchi sabablarini uning temperamenti bilan bog'laydi.

Ibn Sino insonning ruhiy faoliyatini uning moddiy ildizlari va buzilishhining sabablarini ko'rsatish bilan cheklanmaydi, balki ruhiy kasalliklarni keltirib chiqaruvchi bu buzilishhlari muvaffaqiyatli davolashh yo'llarni izlab topadi. Olimning fikricha nutq a'zolarining kasallanishi tufayli nutq buzilishhlariga olib keladigan sabablardan biri sifatida til kasalligini ko'rsatadi.

"Ayrim vaqtida soqovlik va nutqning boshqa buzilishhlari-, deb yozadi buyuk tabib-miyaning tilga boruvchi va uni harakatga keltiruvci nervlarni chiqish joyining jarohatlanishi oqibatida kelib chiqadi"

Ibn Sino kishilar va ayniqsa bemorlarga tabib sifatida qaramasdan balki ularning ta'lim tarbiyasi masalalarini ham o'rganishga urindi. Uning bu qarashlari va ta'limoti har qanday buzilish holatlarida tibbiy davolashh bilan bir qatorda ta'limiy, tarbiyaviy ta'sirning ahamiyatining beqiyosligini tasdiqlaydi.

Ushbu masalaga olim o'zining bir qator asarlarida to'xtalib o'tgan bo'lib, bolaning tarbiyasi, salomatligi, eng muhimi uning ruhiyatini o'rganish va ta'lim tarbiyada individual tipologik xususiyatlarni e'tiborga olish zarurligi haqidagi fikrlari olimning pedagogik qarashlari asosini tashkil etadi.

Ibn Sinoning bu mavzularga bag'ishlangan asarlari sirasiga "Donishnoma", "Xayy Ibn Yaqzon", "Salmon Ibn Ibsol", "Kitob tadbir al-manzil" va boshqalar kiradi.

Ibn Sinoning o'z asarlarida: "Ko'pcilik tentak aqli zaif bolalar mayga tobe bo'lgan ota-onalarning surriyotlaridir" - deb ta'kidlaydi.

Uning ta'lim tarbiyaga oid ta'limotida yosh avlod tarbiyasiga qaratilgan majmuaviy dastur quyidagi qismlarni o'z ichiga oladi: aqliy tarbiya, jismoniy sog'lomlastirish, estetik tarbiya, axloqiy tarbiya va kasbga o'rgatish.

Ibn Sino maktabdagagi ta'lim tarbiya jarayoniga katta e'tibor beradi. Ushbu masalaga "Kitob tadbir al-manzil" kitobida "Bolalarga madrasada ta'lim-tarbiya berish" nomli alohida bo'lim bag'ishlangan. Ibn Sino unda birinchi o'rinda bolalarni maktabga qamrab olish haqidagi ijtimoiy muammoga to'xtalib o'tadi. U o'zining bu asarida maktabga hamma odamlarning bolalari olinishi shart, hamma bolalar bir joyda jam bo'lib ta'lim-tarbiya olishlari kerakligini alohida ta'kidlangan.

Ibn Sino bolalarni alohida o'qitilishi ma'qullamagan. Uning fikricha bolalarni maktabda jamoa bo'lib o'qitilishining ma'lum foydalari borligini ta'kidlab shular qatorida quyidagilarga alohida urg'u berib o'tgan:

Agar barcha o'quvchilar birgalikda o'qisa, ular zerikmaydi, ilm o'rganishga qiziqadilar. Ularda bola tabiatiga xos o'zaro musobaqalashish hohishi kuchayadi.

O'zaro suhbatlarda bolalar bir birlariga kitobdan o'qigan yoki eshitgan qiziqarli hikoyalarni aytib beradilar.

Bolalar birga to'planganda bir-birlarini hurmat qilisni, do'st bo'lishni o'rganadilar, ular nafaqat musobaqalashadilar, balki o'qiganlarini o'zlashtirishda bir-birlariga yordam beradilar. Bolalar bu bilan g'ururlanadilar, bir birlaridan yaxshi odatlarni o'rganadilar. Allomaning ko'p asrlar davomida biz uchun sirligica qolib kelgan yuqoridagi ta'limoti va pedagogik, tibbiy-pedagogik qarashlari Markaziy Osiyo ududida XI-XII asrlardayoq imkoniyati cheklangan bolalar ta'limiga o'ziga xos yondosuvarlar va katta tajribalar bo'lganligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, Ibn Sino insoniyat madaniyatiga, jahon fanining xazinasiga beqiyos katta hissa qo'shgan, o'sha davr ilmlarining deyarli barcha sohalari bilan shug'ullangan, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini O'rta asr sharoitida dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqqan qomusiy olimdir.

Sharqning eng yorqin mutafakkir yulduzi, g'azal mulkining sultonii Alisher Navoiydir. Alisher Navoiy 1441 yil 9 fevralda Amir Temuring o'g'li Shoxrux Mirzo hukmronligi davrida Hirotda tug'ildi. Uning otasi G'iyyosiddin Muhammad temuriylar saroyining amaldorlaridan, xonadonining ishonzchli kishilaridan edi.

Navoiy asarlari ko'pqirralilik xususiyatiga ega bo'lib, ularning mazmunini tasavvuf ta'lomi, axloq-odobga oid pand-nasixatlar, nazm qoidalari, tarixiy voqealar tafsiloti tashkil etadi. Mir Alisher Navoiy o'zining xalqparvarligi bilan doimo xalq farovonligini o'ylab tashvishlangan. Bu kechinmalarini o'z ijodida ham ifodalagan. Jamiyatdagi barcha insonlarni bir xil, teng deb hisoblaganlar. "Maxbul ul-qulub" asarida shunday yozadi:

"Sarvu gulu lola xaridori bor, O'tinnig dog'i, bozori bor".

Ya'ni, sarvi guli chirolyi bo'lganligi uchun uning xaridorlari ko'p, ammo o'tin ko'rimsiz bo'lsada unga ham zaruriy ehtiyoj bor. Mana shu misralarga maxsus pedagogika nuqtai nazari bilan qaraydigan bo'lsak, sog'lom bolalar va insonlarning jamiyatda o'rni ma'lum, ammo sunday bo'lsada nogiron-maxsus ehtiyojli bolalar va shaxslarning ham o'z o'rnlari bor. Ular ham jamiyat uchun nafl. Shuning uchun ham barcha insonlarni tenglikda qaramoq lozim, degan ma'no anglashiladi. Bundan tashqari Alisher Navoiy butun umr o'z xalqiing savodli bo'lishiga uringan, ko'p asarlarida o'zining bu g'oyasini ilgari surgan va yurtning kelajagi xalqning ilmli, savodli bo'lishida deb bilgan. Barcha bolalar uchun savod o'rganish kitobi yaratilishiga asos solgan. Shunday qilib, g'azal mulkining sultonii xazrat Mir Alisher Navoiy ham o'z nuqtai nazari bilan ta'limga teglikni ilgari surganlar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi buyuk

mutafakkirlarimizning barchasi jamiyatni bir butun deb qarab, barcha insonlarni teng deb hisoblaganlar, jumladan, bizning tadqiqot ishimizga oid bo'lgan barcha bolalarni birqalikda o'qitish lozimligiga oid ta'kidlari maxsus ehtiyojli bolalar ta'limga tizimida juda qimmatlidir. Demak, maxsus ehtiyojli bolalarga ham jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida ta'limga tarbiya berish buyuk Sharq mutafakkirlarining ham diqqat markazidan chetda qolmagan.

Sharqda "Shayx ar-Rais" taxallusi bilan, G'arbdan esa Avitsenna nomi bilan shuhrat qozongan ulug' mutafakkir Abu Ali ibn Sino (980-1037) Buxoro yaqinidagi Afsona qishlog'ida (hozirgi Peshku tumani) dunyoga keldi. U buyuk tabiatshunosh, faylasuf, astronom, matematik, huquqshunos, musiqashunos, tabib va shoir bo'lgan. O'zining o'lmas asarlari bilan O'rta Osiyo fani va madaniyatini jahonga tanitgan. Ibn Sino falsafiy va sotsial-siyosiy bilimlar sohasida ham katta meros qoldirdi.

Ibn Sinoning sotsiologik qarashlari X asr oxiri - XI asr boshlaridagi murakkab sotsial-tarixiy voqealar - Abbosiylar Khalifaligi siyosiy tushkunlikka uchragan hamda xonliklar, bekliklar o'rtasida o'zaro urushlar kuchaygan bir zamonda shakllandi va rivojlandi. Platon, Aristotel, Forobiy singari qomusiy olim va faylasuflarning asarlari Ibn Sino falsafiy va ijtimoliy-siyosiy qarashlarining nazariy manbai bo'lib xizmat qildi. Ibn Sino jamiyatning rivojlanishida hunarmandchilikning katta ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidladi. Bu sohaning turli sohalarini ajratib, ularning o'rni va rolini ko'rsatdi. Mehnatning jamiyatdagi o'rni va roliga alohida to'xtaldi, uning jamiyat, davlat va shaxs hayotidagi rolini bayon etdi.

Ibn Sino Platon, Aristotel, Forobiyning ideal davlat haqidagi g'oyalalarini rivojlantirib, o'z asarlarida uning ideal xususiyatlarini ko'rsatdi:

mehnat organizm chiniqishining zarur shartidir, bu - inson qobiliyati, iste'dodi namoyon bo'lishining muhim yo'lidir. Uning uchun ideal davlatda hamma o'z foydasini hisobga olib mehnat qilishi shart;

bu davlatda barcha moddiy boyliklar bab-baravar taqsimlanishi kerak, misli ko'rilmagan katta boylik ham, qashshoq ham bo'lmasin;

qachonki hamma odamlar halol mehnat va savdo bilan shug'ullanar ekanlar urush qilish hech kimga kerak bo'lmaydi; urushlar yo'qoladi, davlatlar o'rtasidagi ixtiloflar esa tinch yo'l bilan hal etiladi;

ideal davlatdagi odamlar jamiyatdagi tartiblar va tarbiya vositasida o'zlarining axloqiy tabiatlarini o'zgartirib va uzoq umr ko'radilar: hozir muhtojlik va boylik bo'lganligi uchun g'azabnok odamlar bir-birlariga qarshi harakat qilmoqdalar. Ideal davlatda esa odamlar hamma narsa bilan ta'minlanadilar, shuning uchun bir-birlariga zid harakatlar to'xtaydi. Kishilar hayotbaxsh qo'shiq va kuylarni yoqtirib qoladilar.

Ibn Sino o'z davridagi tabiiy fanlarning rivojiga ham ulkan hissa qo'shgan olimdir. Uning tabiiy-ilmiy qarashlari «Kitob as-shifo»ning tabiiy fanlarga oid qismida bayon qilingan. Ibn Sinoning tabobatda qilgan ishlari uning nomini bir necha asrlarga shu fan sohasi bilan chambarchas bog'ladi. Olimning tabobat taraqqiyotidagi buyuk xizmati shundaki, u o'zigacha o'tgan turli xalq namoyandalari tomonidan asrlar davomida tib ilmi sohasida to'plangan ma'lumotlarni saralab, muayyan bir tartibga soldi va ularni o'z tajribalari bilan boyitgan holda ma'lum nazariya va qonun-qoida asosida umumlastirdi. Bunga uning «Tib qonunlari» va bu asarning jahon tib ilmi tarixida tutgan mavqeい va qozongan surati yorqin dalildir. Ibn Sinoning tabobat sohasida qilgan ishlari o'sha davr tabobatini bir necha asrlarga ilgarilatdi va ayrim sohalarda hatto hozirgi zamon tibbiyotiga yaqinlashtirdi ham. Olim yashagan davrda bu sohada antik olimlarning, xususan Gippokrat, Galen, Dioskorid va boshqaning ta'limoti ustuvor edi. Ibn Sino ham o'z tibbiy faoliyatida ularning nazariy qarashlari va amaliy ko'rsatmalariga tayandi, lekin ularni Hindiston, Xitoy, O'rta Osiyo, Sharq olimlarining hamda o'z tajribalari va bilimlari asosida rivojlantirdi va boyitdi. Ibn Sinoning daho tabib sifatida surat qozonishining asosiy omillaridan biri — uning tib nazariyasini, xususan, anatomiya — inson gavdasi tuzilishini

mukammal bilishligidir. Bosh suyagining tuzilishi, tishlarning tuzilishi to'g'risida u Galenga ergashgan holda to'g'ri fikrlagan. Uning ko'zning anatomiysi, ko'rish jarayonining qanday sodir bo'tishi va unda ko'z qorachig'ining roli, ko'z muskullarining joylashishi xususida yozganlari zamona viy oftalmologiyaga yaqindir. Asablar, qon tomirlar, mushaklarning tuzilishi va funktsiyalari to'g'risida yozganlari anatomiyaning amaliyot bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Bu esa amaliy anatomiyaning asoschisi deb tan olingen rus olimi N.I.Pirogovni Ibn Sinoning indoshi deyishga asos beradi. Ibn Sino o'tkir diagnost edi. Uning ba'zi tashhis usullari hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Perkussiya (a'zoga urish orqali diagnoz qo'yish)ni, xususan, astsiz va meteorizmni farqlashda, istisqoni aniqlashda (qoringa sekin urish orqali) qo'llagan. Bu usul 600 yildan keyin venalik tabib Leopol'd Auenbrugger (1722—1809) tomonidan qayta tashf qilinib, yana 50 yildan so'ng amaliyotga kirgan. Olim qon tuflash olatlari va nafas olish turlarini chuqr o'rganib, ulardan tashhisda foydalangan. Ibn Sino turli kasalliklarning differentsial diagnostikasida va gavdaning umumiyl holatini aniqlashda tomir urishi, siydiq va najasga qarab olinadigan belgitarga katta e'tibor beradi. Masalan, diabet (qand) kasalligini u siydikning olati, shu jumladan, undagi shirinlik muddasiga qarab tashhis qiladi. Diabet kasalligida siydikda qand muddasi bo'lismeni 1775 yilda ingliz olimi Dobson aniqlagan. Tabobat tarixida birinchi bo'lib Ibn Sino vabo bilan o'latni farqlagan, yuqumli kasalliklar bilan og'igan bemorlarni boshqalardan ajratgan holda saqlash kerakligini ta'kidlagan, meningit, oshqozon yarasi, sariq kasalligi, plevrit moxov, zaxm, qizamiq, suvchechak, kuydirgi kabi kasalliklarning belgilari va kechihs jarayonini to'g'ri tasvirlab bergan. Quturish kasalligining ko'rinishlari, uning yuqumli xarakteri, bemorning bu kasallikkagi holatlarini juda to'g'ri aniqlagan. 1804 yilda yevropalik olim Tsinke quturgan hayvonlarning so'lagi yuqumliligini tasdiqlagan. Psixik va asab kasalliklarini tafsiflash va davolashhga ham olim ko'p yangiliklarni kiritgan. Bu kasalliklarni davolashhda u atrof muhitning, iqlimning, parhez va jismoniy mashqlarning ta'siriga hamda bemor

kayfiyatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarga katta ahamiyat beradi.

Bemorlarni davolashhda olim 3 narsaga — tartib (parhez), dorilar bilan davolashh va turli tibbiy tadbirlarni qo'llash (qon olish, banka qo'yish, zuluk solish, uqna va.hk.)ga ahamiyat berish kerakligini aytadi. Kasallikni davolashhda ovqatlanish, ya'ni parhezni muhim omillardan deb hisoblaydi va har bir kasallik uchun o'z ovqatlanish tartibini beradi. Chunonchi, jigar kasalliklarida ko'proq mayiz, anjir, anor suvi iste'mol qilishni buyuradi. Bu esa bunday kasalliklarni hozirgi glyukoza va insulin bilan davolashh usullarining qadimiyo ko'rinishidir.

Ibn Sinoning jarrohlik sohasini rivojlantirishdagi xizmatlari ham ulkandir. U o'z tibbiy asarlarida zamonaviy jarrohlikda qo'llanib kelayotgan ayrim usullarni bayon qiladi. Yiringli shishlarni kuydirish yoki pichoq bilan yorish, bavosir shishlarini tikish, tampon, o'tkir modda yoki tikish bilan qon to'xtatish, tomoqni kesib, nay qo'yish (traxeotomiya) shular jumlasidandir. Yelka suyagining chiqishini oddiy bosish bilan davolashh usuli hozirgaca «Avitsenna usuli» deb ataladi. Umurtqanening qiyshayishini Ibn Sino o'zi ixtiro qilgan yog'och moslama yordamida tuzatgan. Bu usulni 15-asrda fransuz tabibi Kalo qayta kashf etgan. Suyaklarni gipslash usuli ham Ibn Sino tomonidan keng qo'llangan, lekin u ham keyinchalik unutilib, yevropalik tabiblar tomonidan 1852 yilda amaliyotga yangi ixtiro sifatida qaytarilgan. Hozir ko'z jarrohligida qo'llanayotgan usullarning qariyb barchasi Ibn Sinoga ma'lum bo'lgan. Yomon sifatli saraton (rak) shishlari, qovuq toshlarini olish, istisqo, bavosirning operatsiyalari, bosh suyagining operatsiyasi va boshqalar Ibn Sino qo'llagan muolaja usullaridandir. Jarrohlikda anesteziya (og'riqni sezdirmaslik) masalasiga ham Ibn Sino katta e'tibor bergan. Buning uchun u afyun, mingdevona, nasha va hk. narkotik ta'sirga ega bo'lgan dorilardan foydalangan. Kasallikni davolashda Ibn Sino shaxsiy gigiena, uyqu va jismoniy mashqlarning ahamiyati kattaligini uqtirgan. Uning bir kasallikni boshqa bir kasallikni chaqirish yo'li bilan davolash usuli diqqatga sazovordir. Masalan, u tutqanoqni davolashda to'rt kunlik isitma bilan og'rishni foydali

deb biladi. Avstriyalik psixiatr Yu.Vagner-Yaureg (1857—1940) shunday usulni qo'llab, zaxm kasalligini bezgakni yuqtirish orqali davolagani uchun 1927 yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.

Ibn Sino o'z asarlarida jismoniy mashqlarining sog'iomlashtiruvchi va davolovchi tajribadagi o'rni va roli haqida yozadi. Jismoniy mashqlarga to'xtovsiz, chuqur nafas olishga olib keluvchi erkin harakatlar, deya ta'rif bergan.

Agar inson mo'tadil va o'z vaqtida jismoniy mashqlar bilan shug'ullansa va tartibga rioya qilsa, u davoga ham, dorilarga ham muhtoj bo'lmaydi, deya tasdiqlagan. Mashqlarni to'xtatar ekan, u so'nadi. Jismoniy mashqlar mushaklarni, bo'g'imlarni, asabni mustakam qiladi. Shuningdek, u mashqlarni bajarishda yoshni ham inobatga olishni maslahat bergan. Uqalash, sovuq va issiq suvda chiniqish kabi muolajalarda to'xtalgan.

Sharq sotsiologiyasida, tabiat va jamiyatni sotsiologik anglash va o'rganishda ma'naviy taraqqiyot jarayonida so'nmas iz qoldirgan, o'rta asrnинг siyosiy va huquqiy qarashlarini chuqur tahlil qilib, o'zining adolatli jamiyat to'g'risidagi qarashlarini to'la asoslab bergan, qomusiy aql egasi, donishmand mutafakkirlaridan yana biri Abu Nasr Forobiydir (873-950).

Abu Nasr ibn Muammad ibn O'zlug' ibn Tarxon Forobiy Toshkent shahrining shimolida, undan 150-200 km uzoqlikda joylashgan Turkiston o'lkasida, Aris suvi Sirdaryoga quyiladigan yeridagi Farob( O'tror) degan joyda tug'ilgan<sup>19</sup>. Tadqiqotlarga tayanib qayd etish lozimki, O'rta Osiyoda (Movarounnarda) bolalarni 5 yoshdan boshlaboq savod chiqarish va ilmga o'rganishga bergenlar. Shubhasiz, Abu Nasr iste'dodli, zehni o'tkir bo'lgani bois uning ilmga qiziqishi juda kuchli bo'lgan. Bu ishtiyoqni qondirish maqsadida dastlab Forob, Toskent, Samarqand va Buxoro shaharlarida tahsil olgan, keyinchalik u o'z yurtini tark etib, ilm-fan bilan bog'liq hayot qaynab-toshgan shaharlar (Bog'dod, Qohira, Damashq, Aleppo

<sup>19</sup> Найруллаев М. Фаробийнинг измий меросида давлатчилик ва хукуқ масаласи. Конун қиномонида. 1997 №4. 40-6.

va boshqa joylar)ga safar qiladi. U juda ko'p xorijiy tillar bilan shug'ullanib, riyoziyot, tibbiyat, falsafa mantiq kabi fanlarni o'rgandi va bir qancha ilmiy asarlar yozdi. Shular bilan bir qatorda siyosat va davlat haqidagi ijtimoiy fanlar bilan ham shug'ullangan. Uning bu sohadagi ijtimoiy, siyosiy, huquqiy mavzudagi merosi juda boy bo'lib, o'zining qator asarlarini jamiyat, davlat, huquq, siyosat,adolat kabi masalalarga bag'ishlangan. Forobiy o'zga yurtlarda odamlar va jamiyat hayoti bilan tanishadi, turli millat va diniy e'tiqodga mansub olimu-fuzalolardan ilmning turli sohalari (falsafa, tib, musiqa va boshqalar) bo'yicha ta'lif oladi, o'zi uchun juda muhim bo'lgan ilmiy va, ayniqsa, hayotiy xulosalarni chiqaradi. Bu uning qator ilmiy risolalari va falsafiy-huquqiy qarashlarida o'z aksini topadi.

Forobiyning merosi nioyatda boy, u entsiklopedist olim sifatida 160dan ortiq ilmiy asarlar sohibi. Uning arab va fors tillarida she'rlar yozganligi, zo'r musiqachiligi, o'zi yaratgan musiqa asbobida ajoyib kuylar ijro etganligi manbalardan ma'lum. Forobiy ko'pgina yunon olimlari (Fales, Gippokrat, Ptolemey, Evklid)ning asarlarini o'rganib, ularga sarlar yozdi. Uni o'z davrida "Muallimi as-Soni", ikkinchi muallim (Aristoteldan so'ng), "Sharq Aristoteli" degan buyuk nomga sazovor bo'lisiga asosiy sabab, Forobiy Aristotelning barcha asarlarini talil etib ularga sarlar yozadi.

Forobiyning inson va jamiyat, ularning o'zaro ta'siri, davlat, siyosat, urus va tinclik,adolat kabi masalalarga bag'islangan asarlari sirasiga "Fozil odamlar sari", "Shaharni o'rganish aqida", "Urush va tinch turmush aqida", "Baxtsaodatga erishish haqida risola", "Davlat arboblari haqida hikmatlar" nomli asarlarida inson, jamiyat, siyosat,adolat, odob-axloq, ta'lif-tarbiya to'g'risidagi fikrlari bayon etilgan.

Forobiyning sotsiologik qarashlari uning mashhur "Fozil odamlar shahri" nomli yirik asarida bayon etilgandir. Bu asar 37 bobdan iborat bo'lib, unda jamiyat, davlat, jamoa, shaxs, fuqarolik masalalari keng yoritilgan. Forobiyning ijtimoiy-siyosiy hayot va davlat to'g'risidagi g'oyalari qisqacha "ilm al-

madaniya", ya'ni shahar-davlat to'g'risidagi ta'lilotlar deb yuritilgan.

"Har bir inson tabiatan shunday tuzilgan, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi. U bir o'zi bunday narsalarni qo'lga krita olmaydi. Ularga ega bo'lish uchun insonlar fuqarolik jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishiarni bir-biriga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishiarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiat bo'yicha intilgan yetuklikka erisyubi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun oila, ularning har biriga yashash va yetuklikka yetishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi", -deb yozadi Forobiy.

Forobiy barcha shaharlarni, davlatlarni fozil va johilga ajratadi. Fozil shahar shunday shaharki, -deb ta'kidlaydi u, -unda odamlar, ularni baxt-saodatga eltuvchi ishlarda bir-birlariga yordam berishni maqsad qilib qo'yadilar. Haqiqiy baxtga erishish niyatida bir-birlariga yordam berish uchun birlashgan jamoa fozil jamoa hisoblanadi. Barcha shaharlari baxt-saodatga erishish maqsadida bir-birlariga yordam beruvchi xalq fozil xalqdir. Shunday qilib, barcha xalqlar haqiqiy baxt saodatga erishish yo'lida bir-birlariga yordam bersalar, yer yuzi fazillikka erishadi, baxt-saodatga olib boradi. Baxt-saodat ilmda, hunarda yetuk va erkin bo'lish moddiy va ma'naviy boyliklarga ega bo'lish orqali qo'lga kiritiladi.

Forobiyning fikricha, fozil davlat o'z maqsadiga erishmoq uchun qator vazifalarni amalgalashtirishga joiz:

- birinchidan u o'z aholisini moddiy jiatdan ta'minlashi lozim;
- ikkinchidan aholiga ta'lif-tarbiya berish ma'naviy jihatdan yuksaklikka yetishishi uchun tinmay ish olib borishi zarur;
- uchinchidan davlatni idora etib turish, u o'z yo'lidan adashib ketmasligi uchun qonunchilik faoliyatini yaxshi

yo'lga qo'yish, zarur hollarda kerakli qonunlar qabul qilib tartibni saqlab turish kerak;

➤ to'rtinchidan o'z aholisini tashqi dushmanlardan, johil shaharlar xujum va ta'siridan saqlay olish, buning uchun kerakli choralarни amalga oshirishi zarur.

Forobiy davlat va jamiyatni boshqarishda o'n ikki xislatga (Yusuf Xos Hojib ham suncha xislatni ko'rsatgan) ega bo'lisi lozimligini ta'kidlaydi<sup>20</sup>.

Bunday boshliq sog'-salomat, farosatli, tezda masalani aniqlab oluvchi, xotirasi, zehni o'tkir, notiq, ilm olishga qiziqqan va o'z bilimini doimo oshirib boradigan, turli hayot lazzatlaridan o'zini tiya oladigan,adolatparvar, aql o'y, yolg'on va xushomadni yomon ko'radigan, nomusli, oriyatli, bu dunyo boyliklariga qiziqmagan, qat'iyatli, sabotli, eng muhimi donishmand inson bo'lishi lozim.

Forobiy davlat rahbari uchun zarur 12 xislat bir kishida mujassam bo'lishi amri mahol ekanligini biladi<sup>21</sup>. Shu bois ana shu xislatlarga ega bo'lgan ikki yoki undan ham ko'p kishiarni shahar hokimligiga qo'yishni taklif etadi<sup>22</sup>.

Forobiy o'rta asr sharoitida ilm-fan, insonparvarlik g'oyalarining tantanasi uchun kurashib, butun insoniyat madaniyati uchun katta xizmat qildi. Shu bilan birga Forobiyning eng katta xizmati, Aflatun va Arastu asarlarini o'rganishi, ularga yozgan asarlaridir.

Mutafakkir nazaridagi saxovatli shaharda san'at, fan turlarini, kasb-korni, ko'ngil ochar tadbirlarni erkin tanlash imkoniyati mavjud; yaxshi xulq-atvorlar, odat va an'analar hukmron; aholi har qanday zo'ravonlikni rad etadi, eng iste'dodli, yuksak ma'naviyatli va eng maqbul kishilarni hukmdorlikka ko'taradi; fuqarolar o'z vatanini dushmanidan himoya qilishga o'z yurtida tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikni ta'minlashga tayyor va qodir. Forobiy mashur

<sup>20</sup> Абу Наср Фаробий. Фазилат, баҳт-саодат ва камолат ҳақида. -Тошкент., 2002. Б-26-27.

<sup>21</sup> Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри. -Т.: А. Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашириёти, 1993. 160-б.

<sup>22</sup> Ўша асар. 161-б.

iborani boshqacha tarzda ifodalab, qanday va qay tarzda yashashni bilmoq uchun, dunyoning butun majmuasini idrok etish va tadqiq qilish, insonning undagi o'rnini aniqlash, uning yashash ma'nosini belgilash, o'zgarishlarning nazariy asosini ta'riflash, faqat shundan keyingina barcha fuqarolarning kuchi bilan saxovatli shahar qurishga kirishishi kerak, deb hisoblagan edi. "O'z tabiatiga ko'ra har bir inson shunday yaratilgandirki, -deydi Forobiy, - u o'z hayotini ta'minlash va oliy kamolotga erishish uchun ko'pgina buyumlarga muhtoj bo'ladi, bu buyumlarni u bir o'zi yarata olmaydi va ularga erishmog'i uchun har biri umumiyl xazinadan o'z ehtiyojiga kerakli qandaydir buyumni yetkazib beradigan odamlarning muayyan hamjamiyatiga muhtoj bo'ladi. Ravshanki, Forobiy nazarida shaxs - ijtimoiy mavjudotdir; u "ko'p kishiarning bitta yashash joyida birlashuvi orqali shu uchun zarur imkoniyat olishi va oliy kamolotga erishishi mumkin".

Forobiy olamni anglasda vorisiylik omilini juda katta kuchga ega ekanligini alohida qayd etadi. Uning fikriga ko'ra, inson barcha haqiqatlarni o'zining qisqa umri davomida anglashga, tabiat va jamiyatning barcha siru- asrorlarini tushunib, idrok eta olishga qodir emas. Shu boisdan u o'zidan oldingi ajdodlari tomonidan bildirilgan fikr-xulosalarini boricha shubhalanmay o'zlashtirishi zarurligi, ilm-ma'rifat bobida yetuk donishmandlar fikrlariga ergashishi lozimligini alohida ta'kidlaydi.

Abu Rayon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973-1048) o'sha davrlarda Xorazm poytaxti bo'lgan Kat (Qiyot) sari yaqinidagi Berun qishlog'ida dunyoga keldi. Bolaligidanoq ilm-fanga qiziqdigi, hukmdorlarning o'zaro qonli urushlaridan keskin norozi bo'ldi. Beruniy ma'lum muddat xorazmshoh Ma'mun ibn Ma'mun saroyida muhim davlat ishlarini bajardi, biroq keyinchalik o'zini butunlay ilmiy-ijodiy ishlarga bag'ishlab, siyosiy faoliyatdan yuz o'girdi. Beruniy xorazmshoh va g'aznaviyilar o'rtasidagi ziddiyatlar mohiyatini iste'dodli va mohir siyosatchi sifatida to'g'ri tavsiflab berdi.

Beruniyning fikricha, kishiar o'zlarining zaruriy etiyojlarini qondirish uchun uyushgan olda yashash va

ishlashga majburdirlar. U odamlarning jamoa bo'lib, ishslashning asosiy qoidalari o'zaro yordam, bir-birlari bilan tinch-totuv yashash, umumiy manfaat uchun ishslashga asoslangan bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Turli millatga mansub kishiar o'zaro totuvlikda yashaganlaridagina ularning hayoti mazmunli va barakali bo'lishi haqida fikr bildiradi. Beruniy o'zi qarashlarida insonni, uning tafakkurini ulug'lab, shohlar va qonunlar anashu hazrati inson uchun xizmat qilishi hamda uni bosqinchilardan himoya qilishi kerak, degan g'oyalarni ilgari suradi. Shu bilan birga insoniy yashamoqning vositalaridan biri haq va huquqqa rioya qilmoqdir, deb hisoblaydi.

Beruniy sotsiologiyadagi muhim soha ijtimoiy tabaqaqlashuv haqida ham fikr yuritib, shunday deydi: "Tillarning turlicha bo'lishiga sabab odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli xohishlarni ifodalash uchun (zarur) bo'lgan so'zlarga ehtiyoj tug'ilishidir. Uzoq zamonlar o'tishi bilan haligi iboralar ko'payib, yodda saqlanishi va takrorlanishi natijasida tarkib topib, tartibga tusgan"<sup>23</sup>.

Beruniyning fikricha, inson hayvonot olamidan o'zining aqli bilan farqlanadi. Aql insonga Alloh tomonidan ato qilingandir.

Olim insonning olam va jamiyatdagi o'rniga, roliga alohida e'tibor berdi. Jamiyat odamlarning birqalikda faoliyat ko'rsatish ehtiyojidan vujudga kelgan ekan, ular o'zaro yordam asosida faoliyat ko'rsatishlari kerak. Insonning jamiyatdagi faoliyatini ifodalab, ularning mijoz (temperament) va qobiliyatlarini turlicha bo'lganligi tufayli, ularning o'z oldilariga qo'yadigan maqsadlari ham turlicha bo'ladi, - ana shundan mehnat taqsimoti kelib chiqqan, deb tushuntirdi. Jamiyatda qaror topgan turli qoida va tartib-intizom va nizom odamlarning o'zaro kelishuvlari natijasida paydo bo'lgandir. Uning fikricha, har qanday olimning faoliyati faqat bir maqsadga - jamiyatga foyda keltirishga qaratilishi kerak. Ilm-fan boylik, shon-shuhrat va soxta hurmat orttirish uchun emas, balki kishiarga tabiat va

jamiyatni bilishlari uchun yordam berishi, ularning muskullarini osonlashtirish uchun xizmat qilishi kerak.

## **2.2. Maktabgacha ta'lif tashkiloti va umumiy o'rta ta'lif maktablari hamkorligini eksperimental o'rganish metodikasi**

Barcha bolalarni. Bizning modelimizda esa, barcha bolalarni, agar u og'ir muammoga ega bo'lmasa va o'z-o'ziga xizmat qilishda o'ta qiyinchilik kuzatilmasa hamda atrofdagilarga o'ta halal bermasa. Hozirgi sharoitimizda eng avval engilroq muammolarga ega bo'lgan bolalar - zaif ko'rvuchi, zaif eshituvchi, engil darajadagi aqli zaif - debil bolalar, tayanch-harakat tizimida (chuqur buzilishlari kuzatilmaydigan cerebral falajligi bo'lgan) muammolari bo'lgan bolalar jalb qilishdan boshanishi maqsadga muvofiq.

Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrdagi 638-soni qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lif tashkilotlarida inkyuziv ta'lifni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizomda umumiy o'rta ta'lif tashkilotlarida jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalar) uchun inkyuziv ta'lifni tashkil etish tartibi belgilab berilgan. Shuningdek, inkyuziv ta'lif sinfi — maktabdagisi alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarning boshqa (sog'lom) bolalar bilan teng huquqli va birqalikdagi ta'lif olishlari shaklida tashkil etilgan sinf ekanligi e'tirof etilgan.

Mazkur Nizom o'quvchilarni inkyuziv ta'lif sinflariga va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish tartibi ko'rsatilgan bo'lib, o'quvchilarni inkyuziv ta'lif sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish hamda chiqarish hududi xalq ta'limi boshqarmasi huzurida tashkil etilgan Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasiga ko'ra, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan amalga oshiriladi.

Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya yo'llanmasi o'quvchilarni inkyuziv ta'lif sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilinishiga asos hisoblanadi.

<sup>23</sup> Yuva acap. 231-6.

O'quvchilarni inklyuziv ta'limgan sinflariga va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish o'quv yili boshlanguncha hamda o'quv yili davomida amalga oshiriladi va maktab direktorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Inklyuziv ta'limgan sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga yo'llangan har bir o'quvchiga ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan shaxsiy hujjatlar yig'majildi rasmiylashtiriladi va maktab rahbariyatiga taqdim etiladi.

O'quvchining shaxsiy hujjatlar yig'majildida quyidagi hujjatlar bo'ladi:

ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning arizasi;

psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosaci;

ta'limganligi to'g'risidagi hujjatlar (ta'limgan muassasalarida o'qiyotgan bolalar uchun);

o'qish joyidan ta'limgan muddati, o'quv fanlarini o'zlashtirishi va xulq-atvori, o'quvchiga yakka tartibda ko'mak berish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarning batafsил tahlili aks ettirilgan ma'lumotnomalar va tavsifnomalar (ta'limgan muassasalarida o'qiyotgan bolalar uchun);

o'quvchining yashash joyidagi shifoxona bosh vrachi tomonidan imzolangan, uning rivojlanishi tarixidan mufassal ko'chirma.

Inklyuziv ta'limgan sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga quyidagi toifadagi bolalar qabul qilinadi:

eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmasan bolalar);

ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar (ko'rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmasan bolalar);

somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar);

nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish);

tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar (bolalar serebral falaji, skolioz, poliomielit, miopatiya, osteomielit, amputatsiya, bo'y o'sishining etishmovchiligi — pakanalik);

aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-xarakat tizimidagi buzilishi bo'lgan bolalar;

aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (o'zi harakat qila oladigan yoki qo'shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar serebral falaji);

intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar;

hulq-atvor va ruhiyatning qo'pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan bolalar;

intellektual rivojlanishi saqlanib qolingga, tutqanoq holatida bo'lgan bolalar (agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq 1 oyda 1 martadan oshmagan paytda).

Maktab ushbu toifadagi bolalarni qabul qilishdan bosh tortishga xaqli emas.

Quyidagi toifadagi bolalar qabul qilinmaydi:

aqli o'ta zaif bolalar (imbitsil, idiotiya darajasidagi oligofreniya);

xulq-atvorida og'ir buzilishlar, hissiy-irodaviy sohasida (organik) nuqsonlari bo'lgan bolalar;

tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan, mustaqil ravishda harakatlana olmaydigan va o'z-o'ziga xizmat ko'rsata olmaydigan bolalar;

ko'r-kar-soqov bolalar;

tez-tez takrorlanadigan epileptik tutqanoqdan aziyat chekadigan (epileptik demensiya, kunduzgi va tungi vaqtarda tutqanog'i tez-tez takrorlanadigan) bolalar;

markaziy asab tizimiga shikast etganligi tufayli siyidik va najasini ushlab turolmaydigan bolalar.

Inklyuziv ta'limgan samaradorligini o'rganish maqsadida tajriba-sinov ishlarni olib bordik. Tajriba-sinov ishlari 3 bosqichda olib borildi:

1-bosqich. Ta'lim shakli hisoblangan dars va yakka mashg'ulotlarning sifatini o'rganishga oid metodika: kuzatish, videotahlil, didaktik ta'minot tahlili orqali amalgan oshirildi.

2-bosqich. O'qituvchining inklyuziv ta'limga qanchalik tayyorgarligini o'rganish: anketa, suhbat va intervular olish usullaridan foydalangan holda bajarildi.

3-bosqich. O'quvchilarning fanlarni o'zlashtirish holatini o'rganish: chorak baholar qiyosiy tahlili, "SMART sensorika" texnologiyasidan foydalanildi.

Asosiy tajriba ish sinovining birinchi bosqichida - ta'lim shakllari o'rganildi. Dars va yakka mashgulotlarning sifatini o'rganishga oid quyidagi metodlardan foydalaniladi.

- Kuzatish
- Videotahlil
- Didaktik ta'minot tahlili

A) Kuzatish metodi - dars jarayoniga ta'sir etmagan holda olib borildi, unda quyidagi jarayonlar qayd etiladi:

- darsning sifati;
  - davlat ta'lim standartiga mosligi;
  - dars jarayoniga o'qituvchining tayyorgarligi;
  - bolajonlarning mavzuni o'zlashtirilganlik darajasi;
  - yangi mavzuga oid metodika va ko'rgazmali qurollardan samarali foydalana olganligi;
  - dars o'tish jarayonining to'gri ketma - ketlikda tashkil etilganligi;
  - o'quvchilar diqqatini jamlay olish qobiliyati;
  - refleksiya usulidan moxirona foydalana olganligi;
  - dars jarayonidao'quvchilarning faol qatnashganligi;
  - vaqt ni to'gri taqsimlay olganligi;
  - pedagogning kiyin madaniyati;
  - pedagogning muomala madaniyati;
  - har qanday kutilgan va kutilmagan vaziyatlardan moxirona chiqa olish qobiliyati.
- B) Videotahlil metodi - bunda dars jarayoni tasvirga olindi, undan so'ng talabalar bilan bu jarayon tahlil qilindi. Xato va kamchiliklar o'rganib chiqildi. Kutilgan va kutilmagan vaziyatlar tahlil qilindi.

C) Didaktik ta'minot tahlili - bunda quyidagilar inobatga olinadi:

- dars jarayonida qo'llanilgan metodikalar tahlil etildi;
- tarqatma materiallarning davlat ta'lim standarti talabiga mosligi o'rganildi;
- zamonaviy metodikalardan foydalanganligi tahlil etildi.

Asosiy tajriba-sinov ishining ikkinchi bosqichida - o'qituvchilarning inklyuziv ta'limga tayyorgarlik darajasi o'rganildi va quyidagi usullardan foydalanildi:

- Anketa
- Suhbat
- Intervyu

Anketa metodi - maxsus tayyorlangan savollar asosida amalga oshirildi. Anketa savollarida quyidagilar keltirilgan.

- 1.Inklyuziv ta'lim haqida ma'lumotga egamisiz?
- 2.Sinfingizda(guruhingizda) imkoniyati cheklangan bolalar bormi? Agar bo'lsa soni nechta?

3.Ularning psixofiziologik xususiyatlari haqida bilimga egamisiz?

- 4.Inklyuziv ta'lim sharoitida ta'lim klasteri tizimi yaratilganmi?

5.Inklyuziv ta'lim sharoitida faoliyat yuritish uchun ko'nikma va malakaga egamisiz?

- 6.Ta'lim klasteri haqida ma'lumotga egamisiz?
- 7.Inklyuziv ta'limga va ta'lim klasteriga oid qo'llanmalar mavjudmi?

8.Chirchiq shahrida inklyuziv ta'lim va ta'lim klasteri yo'nalishi bo'yicha bilim va malakangizni oshirish uchun sharoit mavjudmi?

- 9.Siz faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasasidada ta'lim klasteri sharoiti yaratilganmi?

10.Siz faoliyat yuritayotgan muassasada inklyuziv ta'lim uchun sharoit mavjudmi?

Suhbat metodi - aniq mavzu asosida maqsadli suhbat olib borildi. Maktab direktori, ma'naviy - ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'ribbosari, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'ribbosari, psixolog hamda metod birlashma rahbarlari bilan birqalikda

o'tqazildi. Suhbatning birinchi bosqichida inklyuziv ta'limga oid taqdimot o'tkazildi, so'ng suhbat olib borildi, suhbat jarayonida boshlangich sinf o'qituvchilarining aksariyati inklyuziv ta'limga qarshi ekanligi haqidagi fikrlar bildirildi, qarshilik sabablari o'rganildi. Ularning nigohida inklyuziv ta'limga jalb etilgan nogiron o'quvchilarning ustidan sog'lom bolalar tomonidan kamsitilish holatlari ustivorlik qilmoqda.

Intervyu olish metodi – ayrim o'qituvchilardan intervylular olindi. Bunda inklyuziv ta'lim mavzusi asosida savollar berildi. Intervyu savollari quyidagilar:

- 1.Inklyuziv ta'lim haqida bilasizmi?
- 2.Inklyuziv ta'limga o'zizgizni qanchalik tayyorman deb o'ylaysiz?
- 3.Imkoniyati cheklangan bolalar haqida bilimga egamisiz?
- 4.Sizning sinfigizda 3 ta imkoniyati cheklangan bola ta'lim olishiga qarshilik qilmaysizmi?
- 5.Darsni boshlash jarayonida imkoniyati cheklangan bolaning diqqatini o'zingizga qaratish uchun qanday usuldan foydalangan bo'lar edingiz?
- 6.Sog'lom o'quvchilarning ota-onalari tomonidan bildiriladigan qarshi fikrlarga qanday munosabat bildirasiz?
- 7.Nima deb o'ylaysiz imkoniyati cheklangan bola sog'lom tengdoshlari qatorida ta'lim olishi unga qanday ta'sir ko'rsatadi?
- 8.Ijtimoiylashuv jarayoni deganda nimani tushunasiz?
- 9.Dars jarayonida imkoniyati cheklangan bola birdan yig'lab yuborsa nima qilgan bo'lar edingiz?
- 10.Inklyuziv ta'limning ijobiy tomonlari haqida qanday fikr dasiz?

Asosiy tajriba ish sinovining uchinchi bosqichda – o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirish darajalarini o'rganish uchun quyidagi metodlardan foydalanildi:

Qiyosiy baholash tahlili - bunda imkoniyati cheklangan o'quvchilarning chorak baholar tahlili amalga oshirildi. Sog'lom bolalarga nisbatan, umumta'lim mакtablardagi imkoniyati cheklangan bolalarning fanlarni o'zlashtirish darajasini qiyosiy tahlili o'rganildi.

"SMART" sensorika texnologiyasi- aqlli harakat degan ma'noni anglatadi. Erta va kichik maktabgacha yoshdagি bolalarda motorika va sensorikaning shakllanishi hamda rivojlanishi "Sensorika" va "motorika" tushunchalarini ko'rib chiqib, ular o'rtasidagi munosabatni aniqlash maqsadida olib borildi. Shaxsning sezgi qobiliyati deganda individual sezgirlikka xos bo'lgan ba'zi bir tizimlarining individual rivojlanish darajasi va ularni majmualarga birlashishi tushuniladi. Sensor jarayonlarga sezgi va idrok (persepsiya) kiradi. Sezgi - bu inson atrofidagi dunyonи bilishni boshlaydigan eng oddiy aqliy (psixik) jarayon. U bizning barcha tasavvurlarimizning boshlang'ich manbai bo'lib, boshqa murakkabroq ruhiy jarayonlar - idrok, xotira, fikrlash uchun manba hisoblanadi. Sezgi - bu inson ongida uning histuyg'ulariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan obyekt va hodisalarning individual xususiyatlari va fazilatlari aksidir.

Sezgining fiziologik asosi anatomik tuzilmalarning murakkab komplekslari - analizatorlarning faoliyati bo'lib, ularning har biri o'z navbatida uch qismdan iborat: retseptor deb ataladigan periferik (sirtqi) qism; asab yo'llarini o'tkazish; asab impulslarini qayta ishslash sodir bo'ladigan kortikal bo'limlar hisoblanadi. Aynan shu jarayonlarni inobatga olgan holda imkoniyati cheklangan bolalar o'zini o'yin faoliyatida turli narsalarni yasash jarayonida faol ishtirop etishlarini ta'minlash maqsadida "SMART" sensorika texnologiyasidan foydalanildi. SMART sensorika texnologiyasi quyidagicha olib borildi. O'quvchilarga biror narsani yasash taklif etildi, yasash jarayonida ularga savollar berib borildi. Jarayon quyidagi tarzda amalga oshirildi.

Masalan: Qog'ozdan to'rtburchak shaklini yasa.

Uning nechta burchagi bor ?

Nima qilsak to'rtburchak uchburchakga aylanadi ?

Uchburchakdan doira shaklini hosil qilsa bo'ladi mi?

Nima qilsak uchburchakdan doira shaklini hosil qila olamiz?

"O'quv motivini baholash" metodikasi

Mazkur metodika 6-8 yoshdagи bolalarning o'quv motivatsiyasi, mакtabga bo'lgan munosabati, o'qish bilan

bog'liq vaziyatga nisbatan emotsiyal reaksiyasini aniqlashga qaratilgan. (metodika N.G.Luskanova tomonidan taklif etilgan). Anketa savollari.

1. Senga maktab yoqadimi yoki unchalik yoqmaydimi?
  - unchalik yoqmaydi.
  - yoqadi
  - hecham yoqmaydi.
2. Ertalab uyg'onib, doim xursandchilik bilan maktabga kelasanmi yoki ko'pincha uyda qolishni istaysanmi?
  - ko'pincha uyda qolishni istayman
  - ba'zida borishni, ba'zida qolishni istayman
  - xursandchilik bilan maktabga boraman
3. Agar o'qituvchi ertaga xohlaganlar kelib, xohlaganlar kelmasligi mumkin desa, sen maktabga borarmiding?
  - bilmadim
  - uyda qolardim
  - maktabga borardim
4. Biror bir dars bo'lmasligi senga yoqadimi?
  - yoqmaydi
  - ba'zida yoqadi, ba'zida yoqmaydi
  - yoqadi
5. Uy vazifalaring yo'q bo'lishini xohlarmiding?
  - xohlardim
  - xohlamasdim
  - bilmadim
6. Maktabda faqat tanaffus bo'lishini xohlarmiding?
  - bilmadim
  - xohlamasdim
  - xohlardim
7. Sen ota - onangga maktab hakida ko'p gapirib berasanmi?
  - ko'p gapirib beraman
  - kam gapirib beraman
  - umuman gapirib bermayman.
8. O'qituvching o'rninga boshqa mehribonroq o'qituvchi kelishini xohlarmiding?
  - bilmadim

- xohlardim
  - xohlamasdim
9. Sinfda o'rtoqlaring ko'pmi?

- kam
  - ko'p
  - umuman yo'q
10. Senga sinfdoshlarling yoqadimi?
- yoqadi
  - unchalik yoqmaydi
  - yoqmaydi.

Bslatma: mazkur anketa individual tarzda hamda guruhda qo'llanilishi mumkin.

I-jadval

Savollar	1-javob uchun ball	2-javob uchun ball	3-javob uchun ball
1	1	3	0
2	0	1	3
3	1	0	3
4	3	1	0
5	0	3	1
6	1	3	0
7	3	1	0
8	1	0	3
9	1	3	0
10	3	1	0

25 - 30 ball. O'quv motivatsiyasi yuqori. Bunday bolalar o'zining bilish motivi kuchli ekanligi, barcha topshiriqlarni yaxshi bajarishga intilish bilan ajralib turadi.

2. 20 - 24 ball. O'quv motivatsiyasi o'rtacha. Bunday o'quvchilar guruhi o'quv faoliyatini ancha muvaffaqiyatli amalga oshirilgan bolalardan tashkil topadi.

3. 15 - 19 ball. Maktabga munosabat ijobiy, ammo bolani ko'proq o'qish bilan bog'liq bo'limgan tomonlar qiziqtiradi. Bunday o'quvchilar maktabda o'zlarini yaxshi his etadilar, biroq maktabga asosan o'rtoqlar, o'qituvchilar bilan suhbatlashish, chiroyli o'quv qurollariga ega bo'lish uchun boradilar.

4. 10 - 14 ball. O'quv motivatsiyasi past. Bunday bolalar mактабга боришни xохламайдылар, дарсларда bekorchi narsalar bilan shug'ullanib, o'ynab o'tirадылар.

5. 10 balldан past. Maktabga nisbatan salbiy munosabat, moslashmaganlik mavjud. Bunday o'quvchilar o'quv faoliyatini bajarishga qiynalадылар, tengdoshlari va o'qituvchilar bilan bo'lgan munosabatda muammolarga duch kelадылар, уларда ayrim hollarda nerv - psixik salomatlikning buzilishi kuzatилди.

Eslatma: Anketani ikki usulda qo'llash mumkin.

1 - usul. Savollar eksperimentator tomonidan o'qib eshittiriladi va javob variantlari taqdim etiladi, bolalar o'zi tanlagan javobni yozib qo'yadi.

2 - usul. Savollar har bir bolaga alohida - alohida yozma ko'rinishda tarqatилди, bolalar tegishli javoblarni belgilaydylar.

Metodika haqida qo'shimcha ma'lumot: so'rovnomadagi savollar 200 nafar 6 - 8 yoshdagи o'quvchi bilan o'tkazilgan so'rov asosida bolalarning maktabga, o'qish jarayonida bo'lgan munosabatini to'liqroq aks ettiruvchi savollar sifatida ajratib olingan.<sup>24</sup>

#### Anketa metodi natijalari tahlili

Maxsus tayyorlangan savollar asosida maktab o'qituvchilaridan quyidagi natijalarni oldik. Olingan natijalarni 2-jadvalda aks ettirdik.

2-jadval

№	Savollar	O'qituvchilarning (% hisobida) to'plagan ball ko'rsatkichlari			
		4 ball	3 ball	2 ball	1 ball
1	Inklyuziv ta'lim haqida ma'lumotga egamisiz?		20%	40%	40%
2	Sinfingizdagi (guruhiнgizdagi) imkoniyati cheklangan bolalar bilan dars o'tish jarayonida siz			20%	80%

<sup>24</sup>S.N.Alimxo'jayeva, F.I.Haydarov. Psixologik tashxis metodikaları majmuası. Toshkent 2008

	uchun qiyinchilik tug'dirmaydim?				
3	Ularning psixofiziologik xususiyatlari haqida bilimga egamisiz?		10%	20%	70%
4	Inklyuziv ta'lim sharoitida ta'lim klasteri tizimi yaratilganmi?				100%
5	Inklyuziv ta'lim sharoitida faoliyat yuritish uchun ko'nikma va malakaga egamisiz?			20%	80%
6	Ta'lim klasteri haqida ma'lumotga egamisiz?		10%		90%
7	Inklyuziv ta'limga va ta'lim klasteriga oid qo'llanmalar mavjudmi?				100%
8	Chirchiq shahrida inklyuziv ta'lim va ta'lim klasteri yo'naliishi bo'yicha bilim va malakangizni oshirish uchun sharoit mavjudmi?			30%	70%
9	Siz faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasasida ta'lim klasteri sharoiti yaratilganmi?				100%
10	Siz faoliyat yuritayotgan muassasada inklyuziv ta'lim uchun sharoit mavjudmi?				100%

1-savolga 40% o'qituvchilar (4 nafar) javob bera olmadi. 40% o'qituvchilar (4 nafar) inklyuziv ta'lim haqida qisqacha ma'lumotga ega. 20% (2 nafar) o'qituvchi esa savolga yaxshi javob bera oldi ammo to'liq emas.

2-savolga 80% (8 nafar) o'qituvchi deyarli javob bera olmadi. 20% (2 nafar) o'qituvchi qiyinchiliklar haqida qisman so'zlab berdi.

3-savolga 70% (7 nafar) o'qituvchi psixofiziologik xususiyatlar haqida ma'lumotga ega emas. 20% (2 nafar) o'qituvchi savolga qisman javob bera oldi.

4-savolga 100% ya'ni (10 nafar) barcha o'qituvchilar ta'lim klasteri haqida ma'lumotga ega emas.

5-savolga 80% (8 nafar) o'qituvchilar inklyuziv ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan bolaga qanday yondashish kerakligi haqida gapirib bera olmadi. 20% ya'ni (2 nafar) o'qituvchi imkoniyati cheklangan bolaga qanday yondashish kerakligi haqida qisman so'zlab berdi.

6-savolga 90% (9 nafar) o'qituvchi javob bera olmadi. 10% (1 nafar) o'qituvchi qisman javob bera oldi. Ammo to'liq emas.

7-savolga 100% (10 nafar) ya'ni barcha o'qituvchilar inklyuziv ta'lim va ta'lim klasteriga oid qo'llanmalar haqida bilmasligi ma'lum bo'ldi.

8-savolga 70% (7 nafar) o'qituvchilar hech qanday sharoit yaratilmagan degan fikrni aytib o'tdilar. 30% (3 nafar) o'qituvchilar qisman javob bera oldilar.

9-savolga 100% ya'ni barcha o'qituvchilar ta'lim klasteri haqida ma'lumotga ega bo'lmasanliklari sababli javob bera olmadilar.

10-savolga 100 % (10 nafar) o'qituvchilar inklyuziv ta'limning mazmun mohiyatini to'laqonli bilmaganliklari sababli javob bera olmadilar.

#### **"Intervyu olish" metodi natijalari tahlili**

Inklyuziv ta'lim tizimi mazmun mohiyatini tushunmagan hamda bu ta'lim tizimiga o'z fikr, qarashlari bilan qarshilik qilgan o'qituvchilardan maxsus tuzilgan savollar asosida intervyu olindi. Intervyu natijalari quyidagi ball shkalasi orqali baholandи.

Oqituvchilarda inklyuziv ta'lim tizimi haqidagi fikrlarining qanday yakunlab bergenliklari quyidagi ball tizimida izohlandi  
 4 ball- inklyuziv ta'lim qanday ta'lim shakli ekanligini to'liq ayta olsa, inklyuziv ta'limning afzalliklari va kamchiliklarini aniq faktlar asosida keltira olganligi uchun

3 ball- inklyuziv ta'lim qanday ta'lim shakli ekanligini to'liq ayta olsa

2 ball- inklyuziv ta'lim tizimining mazmun mohiyatini tushunmagan bo'lsa, bu ta'lim tizimining tadbiq etilishi haqidagi fikrlarga qarshi bo'lsa


1 ball- inklyuziv ta'lim haqida hech qanday ma'lumotga ega bo'lmasa

3-jadval

Nº	O'qituvchilarda inklyuziv ta'lim tizimi haqidagi fikrlarining ball tizimi	O'qituvchilarning (%) hisobida) to'plagan ko'rsatkichlari
1	4 ball	10%
2	3 ball	10%
3	2 ball	20%
4	1 ball	60%

1-diagramma

"Intervyu olish" metodi natijalari tahlili



\* 4 ball \* 3 ball \* 2 ball 1 ball

#### **"O'quv motivini baholash" metodikasi natijalari**


O'quvchilarning(%) hisobida) to'plagan ko'rsatkichlarini quyidagi 5-jadvalda ifodaladik.

5-jadval

Nº	Natijalarini baholash	Bolalarning (%) hisobida) to'plagan ko'rsatkichlari
1	25-30	30%
2	20-24	40%
3	15-19	10%
4	10-14	10%
5	10 balldan past	10%

Natijalarimiz quyidagi 2-diagrammada ham o'z aksini topgan.  
2-diagramma

"O'quv motivini baholash" metodikasi natijalari



Ushbu metodika natijasida 30% ya'ni 3 ta o'quvchining o'quv motivatsiyasi yuqori. Bu bolalar o'zining bilish motivi kuchli ekanligi, barcha topshiriqlarni yaxshi bajarishga intilish bilan ajralib turadi.

40% ya'ni 4 ta o'quvchining o'quv motivatsiyasi o'rtacha. Bunday o'quvchilar guruhi o'quv faoliyatini ancha muvaffaqiyatli amalga oshirilgan bolalardan tashkil topadi.

10% o'quvchi ya'ni 1 ta bolaning maktabga munosabati ijobjiy, ammo bolani ko'proq o'qish bilan bog'liq bo'limgan tomonlar qiziqtiradi. Bu o'quvchilar maktabda o'zlarini yaxshi his etadilar, biroq maktabga asosan o'rtoqlar, o'qituvchilar bilan suhbatlashish, chiroyli o'quv qurollariga ega bo'lish uchun boradilar.

10%, ya'ni 1 ta o'quvchida maktabga nisbatan salbiy munosabat, moslashmaganlik mavjud.

Tajriba-sinov metodikalari kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni o'quv jarayoniga bo'lgan motivlarini oshirish, ichki dunyosini boyitishga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otishga qaratilgan.

### Ikkinci bob yuzasidan xulosa

Ikkinci bobda biz inklyuziv sinflarda ta'lif olayotgan o'quvchilarni o'quv jarayoniga bo'lgan motivlarini oshirish, ichki dunyosini boyitishga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otishga hamda amliyotdagi hozirgi holatini baholash yuzasidan, Toshkent viloyati Chirchiq shahar umumiy o'rta ta'lif maktabining maktab direktori, ma'nnaviy - ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rnbosari, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rnbosari, psixolog hamda metod birlashma rahbarlari va boshlang'ich sinf o'quvchilarining inklyuziv ta'limga bo'lgan munosabati eksperimental o'rganish metodikalari orqali tekshirildi. Shu bilan birga, natijalarining taxlili yoritib berilgan.

### **III BOB TA'LIM KLASTERI SHAROITIDA INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI**

#### **3.1 Inklyuziv ta'limga imkoniyati cheklangan bolalarni jalg etishda oila mahalla ishtirokini kuchaytirish ishlar mazmuni**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 18-fevraldag'i PF-5938-son Farmoni va "O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2020-yil 18-fevraldag'i PQ-4602-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 18-fevraldag'i PF-5938-son Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi hamda "Mahalla ziyosi" respublika o'quv-uslubiy markazi negizida O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti (keyingi o'rnlarda — Institut) tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Yosh avlodni yaxshi xulqli, davlat ramzlariga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga, xarakteriga alohida ahamiyat berish lozim, chunki bularsiz tarbiyada ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligida quyidagi tamoyillarga va bosqichlarga amal qilinganda samaradorlik yanada yuqori bo'ladi:

- ta'lim va tarbiya sohasida hamkorlik jarayoni ishtirokchilari harakatlarining ish birligi;
- tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg'unligi;

◦ hamkorlik jarayoni sub'ektlarining teng huquqligi va yuksak mas'uliyati;

◦ faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlari ustuvorligi;

◦ hamkorlikning ilmiy asoslanganligi;

Inklyuziv ta'limga bolalarni jalg etishda mahalla ishtirokining o'rni juda katta, ma'lumki inklyuziv ta'lim samaradorligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy institatlardan biri bu mahalladir. Mahalla oilalarga ta'sir ko'rsatadi va ular bilan ishslashning turli shakllarini joriy etishga extiyoj borligi asosiy ish tajriba sinovida aniqlandi. Mahalla a'zolari bevosita inklyuziv ta'limni targib etishga daxldor hisoblanishadi.

Inklyuziv ta'lim ishtirokchilari kimlar: Kelajagimiz egalarining ma'nан yetuk, jismonan sog'lom, yuksak salohiyatlari, hech kimdan kam bo'lмаган holda kamolga yetishida oila – mahalla – ta'lim muassasasi hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Farzandlarimizni ma'rifatli va ma'naviyatli qilish, kasb-hunar egallab, jamiyatga nafi tegadigan inson bo'lib kamol topishida ota-onalarga mahalla va ta'lim muassasasi eng yaqin yordamchi hisoblanadi. Yoshlarimiz ma'naviyatini shakllantirishda oiladagi muhit, ona tarbiyasi, otalar o'giti, keyinchalik mahallada, umumta'lim mакtablarida, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida beriladigan ta'lim-tarbiya muhim o'rн tutadi.

Istiqlol yilarida oila, xotin-qizlar, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilishga oid 50 dan ortiq qonunlar, qonunosti xujatlari qabul qilinib, bir necha xalqaro konvensiyalar ratifikatsiya qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyundagi "Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu borada muhim huquqiy asosdir. Mazkur qaror ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyatini kuchaytirish, o'quv muassasalarida ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini yaxshilashda muhim omil bo'layotir. "Oila – mahalla – ta'lim muassasasi" hamkorligi konsepsiyanining joriy etilishi qisqa muddatda o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatdi. Ushbu konsepsiya navqiron avlodni turli huquqbazarliklar, ekstremizm, giyohvandlik,

"ommaviy madaniyat" kabi illatlardan asrab-avaylash, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ularni kasbga yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Inklyuziv ta'limni oiladan maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv muassasalarida joriy etish natijasida imkoniyati cheklangan insonlarga nisbatan umumiy munosabat o'zgarayotgani ma'lum bo'ldi. Bu esa ularning hayotda muvaffaqiyat qozonishi uchun omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga umumta'lim jarayonidagi barcha tadbirdarda faol va muntaзам ishtirok etish imkonini beradi. Buning natijasida stereotiplar shakllanishining oldi olinib, ko'rsatiladigan individual yordam imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatdan ajratib qo'ymaydi. Ular olgan ko'nikmalarini umumlashtirish imkoniga ega bo'lishadi. Imkoniyati cheklangan insonlar uchun ishlab chiqilgan va jamiyatga rejali asosda joriy etilayotgan inklyuziv ta'lim strategiyasi o'qishning uzluksiz va muttasilligini ta'minlaydi. Oila - bolalar bog'chasi - muktab - kasbhunar kolleji - ish bilan ta'minlash - ushbu tizim kelajakda ota-onalarga imkoniyati cheklangan bolalarini umumta'lim muassasalari va oliy o'quv yurtlariga bemalol, xavfsiramasdan olib kelishlari uchun zamin yaratadi.

Inklyuziv ta'lim - o'quvchilarining imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan inklyuziv ta'lim jarayoni<sup>25</sup>.

Inklyuziv ta'lim jismoniy imkoniyatlari cheklangan o'quvchilarini sog'lom o'quvchilar bilan birgalikda o'qitishni anglatadi. Inklyuziv ta'lim bir qator muhim prinsiplarga tayanilgan holda amalga oshiriladi. Jumladan,

- inson qadri uning layoqatlari va yutuqlariga bog'liq emasligi prinsipi;
- har bir shaxsning his qilish va o'ylash layoqatiga egaligi prinsipi;
- har bir shaxsning muloqot qilish va tinglash huquqiga egaligi prinsipi;
- har bir shaxsning bir-biriga kerakliliği prinsipi;

<sup>25</sup>Педагогик атамалар лугати – Т.: “Фан”, 2008. –б.47.

➤ shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining aniq hamkorlik asosida amalga oshirilishi prinsipi;

➤ har bir o'quvchining o'z tengdoshlarining qo'llab-quvvatlovi va do'stona munosabatlariga ehtiyojmandligi prinsipi;

➤ turli-tumanlik o'quvchi hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishni ta'minlashi zarurligi prinsipi kabilar.

Inklyuziv ta'limning maqsadi - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun muktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli ta'lim berishni ta'minlashdan iborat<sup>26</sup>.

Ta'lim muassasalari alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bolalar va ularning ota-onalariga korreksion pedagogik yordam olishida va kasbga yo'naltirishda har tomonlama yordam ko'rsatishi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12-oktyabrdagi 638-son qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida”gi Nizomda belgilab berilgan.

Inklyuziv ta'limning vazifalari quyidagilardan iborat:

- rivojanishning turli imkoniyatlari ega bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;
- jamoatchilik hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish;
- ta'lim jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;

<sup>26</sup>Умумий урта таълим ташкити таридаги якшоғиз таълимни тақиқот этини тарзий түрлесидаги Номи – Ўзбекистон Махкамасининг 638-сон карори изоваси”, 2021.

➤ barcha o'quvchilar uchun davlat ta'limgan standartlariga muvofiq maktabgacha, umumiy o'rta, kasb-hunar va oliy ta'limgan dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;

➤ o'quvchilarning har tomonlarga rivojlanishi, emotsiyal-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko'nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

➤ alohida ta'limgan ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda otanonlarni farzandlariga ta'limgan-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta'limgan-tarbiya metod va vositalarini qo'llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash.

Inklyuziv ta'limgan jarayonida alohida ta'limgan ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilar odatiy sinfda sog'lom bolalar bilan birga o'qitiladilar. Imkoniyati cheklangan bolalar muktabga qadam qo'ygan kunlaridan boshlab alohida qo'llab-quvvatlovga muhtoj bo'ladilar. Bunday qo'llab-quvvatlash ularning butun hayotlari davomida zarur hisoblanadi. SHuning uchun ham muktab ta'limgan dastlabki bo'g'inlaridan boshlab, bunday o'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishlari uchun qulay shart-sharoit yaratish talab etiladi.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan tashkil etiladigan ta'limgan jarayoni inklyuziv ta'limgan shakllarini aniqlash va uni umumiy ta'limgan jarayoni bilan integratsiyalashni talab etmoqda. Bunday integratsiya ularning o'zlariga xos bo'lgan ta'limgan ehtiyojlariga mos kelishi lozim.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ta'limgan muassasasida o'qishni davom ettirishlari va faqatgina o'zlarini kabi imkoniyati cheklanganlar muhitida bo'lishlari ularning rivojlanishlari, ijtimoiylashishlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'quvchilar bir turda bo'lishi ularning muhitga moslashishlari uchun qulay sharoit yaratadi. Bunday o'quvchilarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'qitish metodlarini ularga moslashish, biroq aloqa o'rnatish sohasida muammolarga ega bo'lgan o'quvchilarni ular bilan uyg'unlashtirish ularning ijtimoiy rivojlanishlariga sharoit yaratmaydi. Imkoniyati cheklangan bolalar boshqa o'quvchilar bilan

bir xildagi xatti-harakatlarni amalga oshirish tajribasiga ega bo'lishlari kerak.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarga ta'limgan berishning istiqbolli shakllaridan biri ularni guruhlar yoki sinflarga izchil tarzda astasekin uyg'unlashtirishdan iborat. Bunda o'quvchilarning sinfdoshlari yoki guruhdoshlari bilan aloqa o'rnatata olishlari va o'qish layoqatlarini hisobga olishlari talab etiladi. Bu odatiy sinflar yoki ruhiy-aqliy imkoniyati cheklangan o'quvchilardan tashkil topgan bo'lishi mumkin.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar taraqqiyotining ko'lami shu qadar kattaki, ular uchun bir xildagi ta'limgan jarayonini tashkil etish imkonsizdir. Bunday sharoitda ko'plab o'quvchilar ta'limgan jarayoniga qamrab olinmaydi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar tarkibining turli-tumanligi shuni ko'rsatadi, ularga ta'limgan berish jarayoni bir qator holatlarni mujassamlashtirishi kerak.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar ta'limgan keng ko'lamliligi va serqirralilagini hisobga olgan holda umumiy o'rta ta'limgan jarayonini tashkil etish talab qilinadi. Ularda me'yorda rivojlanuvchi tengdoshlari bilan qiyoslagan holda umumiy o'rta ta'limgan jarayonida hayot uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish maqsadga muvofiqli. O'quv jarayonida imkoniyati cheklangan o'quvchilarning pedagogik-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda bilimlarni taqdim etish asosida o'z tengdoshlari va yaqinlari bilan birgalikda hayotiy ko'nikmalarni egallashlari uchun sharoit yaratiladi.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarga turli variantlarda ta'limgan berish uchun qulay sharoit yaratish kerak. Masalan:

O'quvchining bilimlarni egallash imkoniyatini hisobga olgan holda cheklangan ta'limgan mazmuni umumiy o'rta ta'limgan mazmuniga muvofiq kelishi kerak. Bunda tengdoshlari orasida hamda ular bilan umumiy tarzda muayyan vaqt davomida o'qitish amalga oshiriladi. Bu jarayonda o'quvchilarni tizimli tarzda pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash talab etiladi.

Mazkur yo'nalishda o'quvchilar o'z tengdoshlari orasida bo'lib, ular uchun cheklangan ta'limgan olish imkoniyati yaratiladi. Bunda ularning rivojlanishi bilan bog'liq holda kelib chiqqan muammolarni bartaraf etish nazarda tutiladi. O'quv jarayoni va sinf

xonasidagi shart-sharoitlar imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ehtiyojlariga muvofiq kelishi lozim. Bunday sharoitda ta'lif jarayoni individuallashtirilgan, uning muddatlari esa cho'zilgan bo'ladi. Jumladan, ko'zi ojiz o'quvchilar uchun to'qqiz yillik umumiyl o'rta ta'lif jarayoni o'n yil davom etishi mumkin. Masalan, tayanch harakat a'zolarida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun boshlang'ich ta'limning maqbul varianti sifatida umumiyl o'rta ta'lif dasturlari yoki ruhiy jihatdan cheklangan o'quvchilar uchun tuzilgan maxsus dasturlar yordamida amalga oshiriladi. Integratsiyaning bunday shakli samarali bo'lib, imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lif berishda qiyoslash imkoniyati vujudga keladi. Bunda o'quvchilarning nutqi, muloqot imkoniyatlari, xatti-harakatlaridagi muammolar tengdoshlariniki bilan chog'ishtiriladi. Ruhiy jihatdan orqada qolayotgan imkoniyati cheklangan o'quvchilardagi murakkab holatlar bilan oddiy holatlar orasidagi darajalanish sog'lom sinfdoshlarinikiga ko'ra boshqacha ko'rinishga ega bo'ladi. Shuning uchun ham o'quv jarayonida bunday o'quvchilar sinfdoshlaridan orqada qolishi yoki ulardan o'zib ketishi mumkin. Bu o'z navbatida o'quv dasturlariga tuzatishlar kiritish, o'quvchilarga korreksion yordam ko'rsatish, intellektual yuklamalarni ko'paytirish, ularning imkoniyatlarini cheklamagan holda dastur doirasidan tashqariga chiqishni taqozo qiladi.

Imkoniyati cheklanmagan bolalar uchun inklyuziv ta'lif berish rivojlanishida muammolar mavjud bo'lgan o'quvchilarni o'z tengdoshlari bilan birgalikda o'qitishni nazarda tutadi. Mazkur yo'nalish aksariyat bolalar uchun umumiyl o'rta ta'lif maktablarida o'qish va aqliy rivojlanishda orqada qolgan o'quvchilar uchun maxsus sinflar ochish imkonini beradi. Bunday o'quvchilarga muvaffaqiyatli ta'lif berish uchun mohirlik bilan tashkil etilgan maxsus pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlov hamda ularni integrallashtirilgan sinflardagi o'quvchilar sonini keskin kamaytirish talab etiladi.

Inklyuziv ta'limning ushbu varianti individual tarzdagi yakuniy natijalarni qo'lga kiritishni taqozo qiladi.

Shuning uchun inklyuziv ta'limning sifatini aniqlash maqsadida muayyan parametrlar va ko'rsatkichlarni (indikatorlar) belgilab olish lozim.

Jahon ta'lifi amaliyotida ta'lif oluvchilar ehtiyojlariga moslashuvchan o'quv muhitini yaratish, variativ o'quv dasturlaridan foydalananishga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lif sohasidagi siyosati yo'nalishlaridan biri bolalarning alohida ta'lif ehtiyojlarini xilma-xilligini hisobga olgan holda ta'lif berishni nazarda tutadigan inklyuziv ta'lif g'oyalarini ishtirokchi davlatlar tomonidan keng amalga oshirilishini ta'minlash hisoblanadi. YUNESKOning ijtimoiy fanlar sohasidagi dasturlari inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan bilimlar, standartlar hamda intellektual hamkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilmoqda. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalarini amalga oshirishda gender tenglik, ta'lif olish huquqi kafolatlarini kuchaytirish mexanizmlarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoda kadrlar tayyorlash tizimining asosiya va hal qiluvchi bosqichi sifatida boshlang'ich ta'lifni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, ta'lif jarayonining tashkiliy, metodik komponentlarini, didaktik tizimini takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. SHU jihatdan o'qituvchilarni ta'lilda alohida ehtiyojlar bor bolalar bilan ishlashga kasbiy tayyorlashning nazariy-pedagogik jihatlarini aniqlashtirish orqali inklyuziv ta'lif samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'lilda sog'lom tengqurlari bilan birgalikda imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lif olish ehtiyojini jahon standartlari asosida ta'minlashda tashkilotlararo maqsadli va amaliy natijalarga yo'nalgan hamkorlik hamda integrativ chora-tadbirlar taqozo etiladi. Ta'lif klasteri sharoitida barcha bolaga birdek sifatli ta'lifni tashkil etishda o'qituvchining roli va mavqeい, ota-onalar va keng jamoatchilikning pedagogik savodxonligini oshirish taqozo etiladi.

Mamlakatimizda inklyuziv ta'lifni ta'lif oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlarini va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lif va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida tashkil etishning huquqiy me'yorlari ishlab chiqilgan. "Sifatli ta'lif xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash" kabi muhim vazifalar belgilandi. Boshlang'ich ta'lilda o'qitish sifatini yaxshilash, o'quvchilarning imkoniyatlariga mos, davlat

ta'lim standartlari me'yorlari inobatga olingen o'quv muhitini samarali tashkil etish, bu jarayonda tashkilotlar va jamoat instituti hamkorligini rivojlantirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur ijtimoiy-pedagogik masalalarini hal etishda ta'lim, sog'liqni saqlash va mahalla tashkilotlarining imkoniyati cheklangan bolalarni sifatli ta'lim xizmatlari bilan ta'minlash borasidagi o'zaro manfaatli hamkorligi talab etiladi. Bu esa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida metodik mahorat, psixologik bilimlar, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning klasterli yondashuvlari, tashkiliy omillari, pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, inklyuziv sinflarda darslarni tashkil etishga qo'yiladigan didaktik talablarni aniqlashtirishni taqozo etadi.

Inkluziv ta'lim bu - davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat'i nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Poytaxtimizdagi mavjud besh yuzdan ziyod fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida "Oila – mahalla – ta'lim muassasasi" jamoatchilik kengashlari tashkil etilib, ular ottonalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyatini kuchaytirish, o'quvchilarning darslarga qatnashishini o'rganish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Mahallalarda qizlarning odob-axloq mezonlariga qat'iy rioya etishi, tafakkurini boyitish, salohiyatini yuzaga chiqarish maqsadida tajribali psixologlar, o'qituvchi va murabbiylar, onaxonlar ishtirokida turli tadbirlar, davra suhbatlari, uchrashuvlar muntazam o'tkazilmoqda. Maqsad – erta turmushning oldini olish, qizlarning salomatligini mustahkamlash, ularni ma'lumotli, kasb-hunarli qilish, jamiyatda munosib o'rinalini topishiga ko'maklashishdir.

Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, qizlarimiz timsolda biz avvalambor bo'lg'usi onalarni, xalqimiz, millatimizning umidi va tayanchi hisoblangan kelajak avlodni dunyoga keltirib, voyaga yetkazadigan naslimiz davomchilarini ko'ramiz. Qiz bola sog'lom va baxtli bo'lsa, u quradigan oila ham, uning mevasi bo'lmish bola ham sog'lom va baxtli bo'ladi.

Mamlakatimizda qizlarimizning zamonaviy kasb-hunar o'rganishi, 12-yillik majburiy bepul ta'limdan foydalananib, o'z iqtidor va salohiyatlarini namoyon etishlari uchun barcha shart yaratilgan.

Poytaxtimizda bugungi kunda "Ayollar maslahat markazlari"ning faoliyat yuritayotgani, u yerda xotin-qizlarimizga huquqiy, tibbiy, psixologik xizmatlar ko'rsatilayotgani ham ma'naviy sog'lom oilalar kamol topishida muhim omil bo'lmoqda. Toshkent shahar va tumanlar xotin-qizlar qo'mitalari qoshida kasb-hunar kollejlарini bitirgan qizlarning bandligini ta'minlash bo'yicha shtablar tashkil etilgan. Mazkur shtablar orqali qizlarning hunar egallaganlaridan keyin o'zлari tanlagan yo'nalish bo'yicha bandligini ta'minlash, kelgusi hayotda o'z оrnini topishida amaliy yordam ko'rsatilmoqda. Masalan, 2015-2016 o'quv yilida kasb-hunar kollejlарini bitirgan o'n ikki mingdan ziyod qizning bandligini ta'minlashga ko'mak berildi.

Qiz bolaning tarbiyasi qancha erta boshlansa, shuncha yaxshi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan «Zumradoylar davrasи» to'garagi jazzi qizaloqlarni milliy urf-odat va qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash, iboli, xayoli va yuksak ma'naviyatli qilib voyaga yetkazishga xizmat qilmoqda.

Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda joriy etilgan "Orasta qizlar" to'garagi ularning jismonan sog'lom, har tomonlama bilimli va yuksak ma'naviyatli bo'lib voyaga yetishi, xalqimizga xos odob-axloq mezonlarini o'zlashtirishida muhim ahamiyat kasb etayotir. To'garaklarda qizlarimiz o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularning shaxsiy gigiyena qoidalariga muntazam amal qilib borishini ta'minlash maqsadida shifokorlar, huquqshunoslar, mehnat faxriylari ishtirokida turli tadbirlar o'tkazilmoqda.

"Sog'lom ona va bola yili" Davlat dasturi ijrosi doirasida oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligidagi ishlar ko'lami yanada kengaydi.

"Sog'lom ona va bola yili" Davlat dasturi ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi bilan hamkorlikda "Mahallaning eng orasta qizlari" tanlovi o'tkazildi. Tanlovning mahalla, tuman va shahar bosqichlarida o'n mingdan ortiq qiz ishtirok etib, o'zlarining sog'lom turmush tarzi, 12-yillik ta'limning

ahamiyati, qizlarga xos ibo, kiyinish madaniyati borasidagi bilimlari haqida so'zlab berdi.

Har sohada faol va tashabbuskor o'zbek qizlari O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov orzu qilganidek, "... o'zbek ayoli ma'rifatli, ma'naviyati yuqori, tafakkuri teran, shu bilan birga, zamonamizga xos barcha ijobjiy xislatlarni o'zida mujassamlashtirgan oqila va dono bo'lishi kerak. Chunki ayol jamiyatning negizi hisoblangan oilada farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanib qolmasdan, jamiyatda ham o'z o'rniiga ega bo'lmog'i lozim", degan o'gitlari asosida kamolga yetmoqda.

O'zi tug'ilib o'sgan joy inson uchun Vatan hisoblanadi. Mahalla esa Vatan ichra kichik Vatandir. Uning obodligi, go'zalligi va ko'rakamligi uchun jon kojitish har bir kishining muqaddas burchi hisoblanadi. Gohida ba'zi odamlarning o'zi yashab turgan mahalladagi ahvoldan ranjib gapirganini eshitib qolaman. Aslida nolish kerak emas, shu mahallaga o'zim nima hissa qo'shdim, deb o'ylab ko'rishi kerak. Agar mahallada hamjihatlik bo'lsa, obodlik va ko'rakamlikka hissa qo'shuvchilar safi ko'paysa, albatta, g'ururlanishga arzirli maskanga aylanadi. "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida amalga oshiriladigan ishlar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida davlatimiz rahbari mahallalarni obodligi uchun davlat tomonidan katta g'amxo'rliklar qilinayotgani haqida aytib o'tdi. Xususan, Prezidentimiz bugungi kunda yurtimizda sharoiti og'ir bo'lgan 796 ta qishloq va shaharlarda 188 ta mahalla mavjudligini, 4 mingdan ziyod mahallaning elektr ta'minoti qoniqarsiz ahvoldaligini ta'kidlab, qishloqlarga infratuzilma borsagina, hayot sifati o'zgarishi, tadbirkorlik rivojlanishini bildirdi.

Davlatimiz tomonidan mahallalarni rivojlantirish bo'yicha tegishli dasturlar doirasidagi ishlarga jami 21 trillion so'm yo'naltirilishi ma'lum qilindi. Og'ir inqirozdan chiqqan yilimiz, tashqi qarz jalb etmasdan, shuncha mablag' ajratyapmiz. Bunaqa imkoniyat O'zbekiston tarixida bo'lmagan. Lekin bu pulni loyiha bilan, halol-pok ishlatib, elga munosib sharoit yaratish lozimligini Prezidentimiz alohida ta'kidladi.

Shuningdek, mahallardagi infratuzilmani rivojlantirishda mahalliy Kengashlarning o'rni va roli

ham belgilab berildi. Xususan, endilikda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlariga qaysi mahalla yoki qishloq kirishini mahalliy kengashlar belgilab beradi. Tuman va shahar hokimining iqtisod, qurilish va mahalla masalalari bo'yicha o'rinnbosarlari zarur mablag'lar va amalga oshiriladigan ishlarni aniq hisob-kitob qilib, mahalla raisi bilan birga, hududiy kengashlarda himoya qiladi. Mahalliy kengashlar har bir mahalla kesimida ijtimoiy soha, ichimlik suvi, yo'l-transport va infratuzilma obyektlari manzilli dasturini tasdiqlaydi. Qurilish vazirligi hokimliklar bilan birga ularning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishga mas'ul bo'ladi.

Maqsad Vatan ichra Vatan hisoblangan mahallarning gullab-yashnashi, obod va go'zal qiyofa kasb etishiga erishish ekan, bunda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengash deputatlari o'zlarini burchli ekanini doim his qilgan holda ish olib borishlari lozim. Zero, yurt ertasi, istiqboli va taraqqiyoti mahallalar obodligi hamda go'zalligi bilan chambarchas bog'liqdir.

"Mahalla" atamasining kelib chiqishi ham uzoq tarixga borib taqaladi va u arabcha so'z bo'lib o'zbek tilidagi "joy" ma'nosini bildiruvchi "mahallun" so'zidan kelib chiqqan.

U turli mintaqalarda mahallot (joy), guzar, jamoa, elat, elod nomlarida atalib kelingan. Ammo mahalla nafaqat tarix, balki bugungi va ertangi kunimizni ham tutashtirib turuvchi maskan hisoblanadi. Shu bilan birga mahalla milliyligimiz timsoli hamda qadryatlar va urf-odatlarni avloddan avlodga yetkazuvchi ijtimoiy makon sifatida, o'zligimizni anglashga, milliy g'urur va vataparvarlikni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Qadim zamonlardayoq yurtimizda mahallalar ijtimoiy hamkorlik maskani sifatida sharqona demokratiyaning yadrosi bo'lib xizmat qilgan. Mahalla ahli jamoaga oid masalalar hal etishdan tashqari, muhtojlarga yordam ko'rsatish, to'y va taziyalarda xonardon sohiblari bilan bir tanu bir jon bo'lib uning og'irini yengil, mushkulini oson qilishda ham ishtirok etgan. Mahalla ahli tomonidan qabul qilingan qarorlar barcha tomonidan birdek og'ishmay ijob etilgan. Nega deganda, bundan qarorlar shunday qabul qilinganki, uning odilona va to'g'ri ekanligi har qanday shubhaga o'rin qoldirmagan.

Bugun yurtimizda mahalla instituti rasmiy nom bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari deb ataladi.

O'zbekistonda fuqarolar o'zini o'zi boshqarishning noyob usuli – mahalla instituti azaldan chinakam milliy qadriyatlar, ezgu amallar maskani bo'lgan. Ushbu noyob ijtimoiy tuzilma Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, mustaqillik yillarida aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylandi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyatasi" konsepsiyasini hayotga tadbiq etishda eng muhim tashkiliy-institutsional bo'g'inga aylandi.

Mahalla instituti juda qadim tarixga borib taqaladi. O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda mahalla kabi o'zini o'zi boshqaruvchi ijtimoiy tashkilotning noyob shakli azaldan mavjud bo'lgan va shu kungacha ham saqlanib qolgan.

Yangi O'zbekistonda mahallalarga nisbatan munosabat tubdan o'zgardi. Mahallalarni qayta tiklash va rivojlantirish borasida tarixiy yangi davr boshlandi. Mahallaning nufuzini ko'tarish nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy, balki siyosiy, tarbiyaviy, ulkan ma'naviy masala ekanligi ustuvor vazifa sifatida belgilanib, uni mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ishonchli tayanchi va ta'sirchan kuchi bo'lib xizmat qilishiga zarur shart-sharoitlar yaratish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor shaharcha, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'inlari o'zini o'zi boshqarishning hududiy birliklari sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida mustahkamlab qo'yildi. Asosiy Qomusimizda belgilangan qoida asosida fuqarolarning o'zini o'zini boshqarishini shakllantirish jarayonlariga oid normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilina boshlandi.

Ayni paytda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevralda qabul qilingan "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yana-da qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni fuqarolar yig'inlariga xos bo'lmagan funksiyalar yuklatilayotganligi, ularning boshqa quyidolar bilan hamkorligi tizimli yo'lga qo'yilmaganligi, oila, xotin-qizlar va keksalarga yordam ko'rsatishning yaxlit tizimi mavjud emasligi, huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish bo'yicha ko'rilayotgan choralar samarali natija bermayotganligi jamiyatda

ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish va qonun ustuvorligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligini inobatga olib, mazkur sohada maqsadli hamda manzilli chora-tadbirlarni belgilab berdi.

Xususan, aholi osoyishtaligini ta'minlash, oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish, nuroniylar ijtimoiy faoliyagini oshirish, mahallani jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari roli va mavqeini yana-da mustahkamlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarini amalga oshirish maqsadida eng muhim yangiliklar quyidagilardan iborat ekanligini ta'kidlash o'tish joiz.

- birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) bo'linmalari tashkil etildi;

- ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi hamda "Mahalla" o'quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot markazi negizida "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etish taklifi kiritildi;

- uchinchidan, fuqarolar yig'ini raisi besh yil muddatga saylanishi haqidagi taklif ma'qullandi;

- to'rtinchidan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga yuklatilgan, boshqa davlat organlari va tashkilotlarining vakolatlarini takrorlovchi, ortiqcha va xos bo'lmagan 46 ta hamda xuddi shunday profilaktika (katta) inspektorlariga yuklatilgan 13 ta vazifa hamda funksiyalari qisqartirildi.

- beshinchidan, mahalla institutining jamiyatimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotida tutgan o'rnini hisobga olib, soha xodimlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 22-mart sanasini "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari kuni" deb e'lon qilish to'g'risidagi taklif ma'qullandi.

Bu esa 2020-yil 2-martdagи "Mahalla tizimi xodimlari kunini belgilash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilinishiga asos bo'lib xizmat qildi.

Ta'lim klasteri asosida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishning samarali omillarini aniqlash yuzasidan shu

metodik tavsiya sifatida keltirishimiz mumkinki, inklyuziv ta'lim samaradorligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy institutlardan biri bu mahalladir. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va xodimlarining ish tartibi qirq soatlik va olti kunlik ish haftasidan kelib chiqqan holda Fuqarolar yig'ini kengashi tomonidan tasdiqlanadigan ichki tartib qoidalariga ko'ra belgilanadi. Bundan namoyon bo'ladiki, mahalla oilalarga ta'sir ko'rsatadi. Mahallalarda oilalar bilan ishlashning turli masalari ko`rib chiqiladi. Mahalla faollari va ota-onalar inklyuziv ta'limga tayyorgarligini o'rghanish maqsadida "Metodist ona-hamkor ota" deb nomlangan seminar trening dasturi ishlab chiqish lozim deb hisoblaymiz. Shuni ta'kidlash joizki, ushbu seminar trening dasturi o'z ichiga quyidagilarni qamrab olishi kerak deb hisoblaymiz. Bu seminar orqali mahalla faollari va ota - onalarning ta'lim klasteri asosida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishning samarali usullari bilan tanishtirib boriladi.

Ushbu dasturga muvofiq ma'lum bir mavzular ketma-ketligi asosida seminar treninglarni tashkil etish talab etiladi. Quyida mavzular ketma-ketligi ko'rsatilgan.

### **1-ilova**

#### **"Metodist ona-hamkor ota" deb nomlangan seminar trening mavzular ro'yxati**

<b>Nº</b>	<b>MAVZULAR</b>	<b>VAQTI</b>
<b>1</b>	Inklyuziv ta'lim bu.....	30 daqiqa
<b>2</b>	Inklyuziv ta'lim ishtirokchilari kimlar?	30 daqiqa
<b>3</b>	Ta'lim klasterining mazmun mohiyati.	30 daqiqa
<b>4</b>	Inklyuziv ta'limning afzalliliklari	30 daqiqa
<b>5</b>	Men bolamni qanchalik bilaman	30 daqiqa
<b>6</b>	Bolamning kelajak portreti	30 daqiqa
<b>7</b>	Keksalik bugundan boshlanadi	30 daqiqa
<b>8</b>	Erta uchun bugun dastur	30 daqiqa
<b>9</b>	Bolamning ertasi mening kelajagim	30 daqiqa
<b>10</b>	Eng yaxshi investitsiya bu- bolaga qilingan investitsiyadir	30 daqiqa

### **3.2 Ta'lim klasteri asosida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishning samarali omillarini aniqlashni maqsadli yo'lga qo'yish ish turlari va shakllari**

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi bo'lgan avlodni tarbiyalash nozik, nihoyatda katta diqqat-e'tiborni talab qiladigan, ichki ziddiyatli jarayondir. Shunday ekan, o'qituvchi o'quvchi yoki talabaning shakllanish jarayonini zo'r havas va sinchkovlik bilan kuzatishi lozim. U pedagogik jarayonni boshqarar ekan, pedagogik bilim va mahorat egasi bo'lishi lozim. Shundagina o'qituvchi pedagogik hodisalarning mohiyatini va dialektikasini, pedagogik mehnat metodi, kasb va texnologiyasini va professional pedagogikani tushunib yetadi. Pedagogik bilim va mahorat egasi bo'lgan o'qituvchi, avvalo, pedagogika fanining metodologik asoslarini, shaxs rivojlanishining qonuniyatlarini va omillarini, kadrler tayyorlash milliy dasturining mohiyati, maqsad va vazifalarini bilishi kerak. Ta'lim tizimida mehnat qilayotgan pedagoglarning ko'pchiligi ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogik mahoratning zaruriyati va ahamiyatini tobora chuqur anglab bormoqdalar. Yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir. O'qituvchi jamiyatning ijtimoiy topshirig'ini bajaradi, har tomonlama yetuk mutaxassislarini tayyorlashda o'qituvchi muayyan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik va shaxsiy talablarga javob berishi lozim. Shunday ekan, o'qituvchi mustaqillik g'oyasiga e'tiqodli, har tomonlama rivojlangan ilmiy tafakkurga ega, kasbiga tegishli ma'lumoti bor, ya'ni o'z fanining chuqur bilimdoni, pedagogik muloqot ustasi, pedagogik-psixologik va uslubiy bilim hamda malakalarni egallagan bo'lishi hamda turli pedagogik vazifalarini tezda yechishi, vaziyatlarni sezishi, o'rganishi va baholay olishi kerak. U pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ham ega bo'lishi lozim.

Ta'lim va tarbiyaga bu talabni aniqlab beruvchi omil-talaba (o'quvchi)larning ma'lum faoliyatni o'zlashtirish tezligi hisoblanadi. Ikkinchidan, o'quv-tarbiyaviy jarayonni shunday tashkil etish lozimki, bunda mumkin qadar talabalarning keng doirada tajriba egallashiga imkon tug'diradigan va ularning

aqliy malakasini rivojlantira oladigan mexanizm vujudga kelsin. Bu talabni aniqlab beruvchi omillar: talabalarning o'qishga bo'lgan xohishi, o'quv mehnatiga munosabati va sog'lom psixofiziologik faoliyati kabilardir. O'qituvchi didaktik jarayonni amalga oshirishda o'qitishning samarali shakllaridan foydalana olishi kerak. O'qitishning tashkiliy shakllari to'g'ri tanlanishi pedagogik tizim elementlarining ma'lum qonuniyat asosida bir-birlari bilan bog'liq ekanligini bildiradi. Bu bog'lanishlardan foydalanish va eng maqbul bo'lgan tashkiliy shakllar topish - ta'linda rasmiyatchilikni yo'qotishga yo'l ochadi. O'qituvchi pedagogik tizimning ishtirokchisi bo'lgan talabaning ta'lum mazmuni va tarbiya ta'sirini qay darajada egallayotganligini eng maqbul usullar yordamida doimo nazorat qilib borishi lozim. Bu to'g'rida olingen axborotlar esa pedagogik tizimni maqsadga muvofiq tarzda boshqarish imkoniyatini beradi va tizimdagи qaysi elementning mazmuniga tuzatish kiritish kerak ekanligini aniqlaydi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan davrda milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash eng muhim vazifalardan bo'lib qolmoqda. Chunki davlatning asosini ma'naviyat tashkil etadi, ma'naviyatiga e'tibor bermagan davlatning kelajagi ham bo'lmaydi. Milliy pedagogika tajribalariga murojaat qilish esa bunday maqsadlarga erishishning asosiy omillaridan biridir. Yoshlarni mustaqil bilim olishga o'rgatish - bugungi kunning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bugungi kunda yoshlarni ma'naviy-intellektual rag'batlantirishning ahamiyati kattadir. Ma'naviy intellektual sifatlarni zamonaviy usullarda aniqlash tarbiyaviy jarayonga samarali o'zgarishlar kiritadi. O'quvchi yoshlarning, talabalarning ma'naviy-intellektual shakllanish sifatlaridagi yutuq va kamchiliklarni odilona baholash tizimi tarbiya mazmuni, usullari va uning tashkiliy shakllarini yaxshilashga doir tuzatishlar kiritishi lozim. O'quvchi va talabalarning bilimini, aqliy holatlarini nazorat qilish va baholash davlat miqyosidagi muhim ahamiyatga ega ishdir. Shu bilan birga,

nazorat va baholash jarayoni o'quvchi bilimining boyishiga, ular shaxsining rivojlanishiga hamda tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi.

O'qish, o'qitish - inson faoliyatining boshqa sohalari singari ijtimoiy foydali faoliyatdir. Iqtisodiy tizimlar nima ishlab chiqarayotgani bilangina emas, balki qanday ishlab chiqarayotgani va qanaqa mehnat qurollari yordamida ishlab chiqarayotganligi bilan biri ikkinchisidan farq qiladi, degan g'oya o'qish-o'qitish faoliyatiga ham taalluqlidir.

Mustaqil shaxsni shakllantirish, uni jamiyat va davlat manfaatlari yo'lida ijtimoiy-foydali mehnatga layoqatli kadr darajasigacha tarbiyalash - ko'p qirrali va murakkab jarayondir. Darhaqiqat, bir tomonidan, barcha davlat tuzilmalari hamda ijtimoiy tashkilotlar, ayniqsa, ta'lum tizimi mutasaddilarining zimmasiga yuksak mas'uliyat yuklaydi. Bunda ta'lum tizimini takomillashtirish va uning mazmunini chuqurlashtirish hamda ko'pgina tashkiliy-tarbiyaviy ishlar nazarda tutiladi. Ikkinci tomonidan, bevosita ushbu masalani amalga oshirishga burchli bo'lgan pedagog kadrlar zaxirasini shakllantirish va ularni zamon talablari bilan hamnafas tarzda kasbiy faoliyat yuritishga tayyorlash davlat va jamiyat zimmasidagi ulkan ijtimoiy vazifadir.

Ta'lum-tarbiya jarayonining uch tarkibiy birligi - tarbiya, ta'lum, shaxsni rivojlantirish to'liq darajada amalga oshirilishiga erishish lozim. Ta'lum-tarbiya ishida rasmiyatchilik va beparvolik kabi illatlardan voz kechish kerak. Bu maqsadda mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan yangi uslub va vositalar ishlab chiqilishi va joriy etilishi zarur. Bugungi kunda pedagogikada o'quvchi-talabalarning ta'lum jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan bir nechta o'qitish uslublari ishlab chiqilgan: muammoli o'qitish, ish faoliyatini ifodalovchi o'yinlar, rolli o'yinlar, mavzuli o'qitish va h.k. Ammo ularni oliy ta'lum tizimida keng qo'llaniladi, deb bo'lmaydi. Buning sababi har bir mashg'ulotga tayyorgarlik pedagogik izlanishni ko'zda tutishi, yuksak kasbiy bilim va mahoratni, ishda ijodiy yondashuv va ko'p vaqtni sarflashni talab qilishida bo'lsa kerak. Chunki har bir o'tiladigan mashg'ulot ishlanmasi o'ziga xos xususiyatga ega va takrorlanmasdir. Uning ustiga

ayrim pedagoglar konservativ fikrlash doirasida turib o'qitishning noan'anaviy usul va metodlariga, ko'pincha, bepisand munosabatda bo'ladilar. An'anaviy o'qitishning usul va metodlari respublikamizda keng tarqalgan va ular o'zining ma'lum tarixiga ham egadir. Biroq ta'lif sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda an'anaviy ta'lifning imkoniyatlari cheklangan. Muhim ta'lifiy muammolar o'z yechimini kutmoqda. Qator ilg'or pedagogik tajribalar to'liq ommalashgani yo'q. Yangi ta'lifiy islohotlarning o'ziga xos jihatni, o'quvchi-talabalarning ustaqilligi, ularni belgilangan maqsad sari yo'naltirish, o'quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etish, biror bir faoliyatni buyruq orqali amalga oshirisho'rniga pedagogic jarayonni samarali tashkil etish orqali talabalarda fan asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishni orttirish, ularning imkoniyatlarini chegaralamasdan bilim va hunar egallashning demokratik yo'llarini o'zlashtirishdan iborat.

O'quv jarayonining barcha bosqichlarida butun tizimning asosiy texnologik jihatni - o'quv jarayonining so'nggi natijalari bo'lgan o'quv maqsadiga erishishga yo'naltirilganligini ham kuzatish mumkin. Texnologik yondashuvni qo'llash qo'yilgan o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydi. Keng ko'lamma amalga oshirilayotgan ta'lif islohotlari ta'lif arayonining ilg'or texnologiyalarini o'rganish va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etilishini taqozo qiladi. Bu esa, o'z navbatida, pedagoglardan ta'lif sohasiga texnologik yondashuvni, pedagogik texnologiya usulini egallashni va hududimizning milliy, ma'naviy-madaniy xususiyatlarini va an'analarini hisobga olgan holda pedagogik amaliyotda qo'llash va ularni rivojlantirishni talab etadi. Texnologik yondashuv doirasida yaratilgan didaktik loyihalash usullariga bo'lgan munosabat o'quv jarayonini samarali va ijodiy rejalashtirish, yangi fikrlar bilan boyitish, ularning natijalarini baholashga yordam beradi.

Ta'lif klasteri sharoitida ta'lif samaradorligini oshirish maqsadida "**Pedagogik desantura**" professionallar klubni tashkil etildi. Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Pedagogika fakulteti" Maxsus pedagogika yo'nalishi 1-kurs

volontyor desant talabalar klub rahbari, biriktirilgan trener o'qituvchilar tomonidan saralab olindi. Ushbu klubni ochishdan ko'zlangan maqsad, o'quv jarayonini diversifikatsiyalash uchun talabalarning klaster obyektlarida dars o'tish tajribasini oshirishga qaratilgan bo'lib, ish samaradorligini oshirish uchun "**Pedagogik desantura**" professionallar klubni ish faoliyatining tamoyillari ishlab chiqildi:

- Ixtiyoriylik tamoyili
- O'ziga ishonch tamoyili
- O'zaro ishonch tamoyili
- Jamoaviy harakat tamoyili
- Tezkor diagnostika tamoyili
- Aybdor qidirmaslik tamoyili
- Manzilli zabit etish tamoyili
- Qulay pozitsiya tamoyili

Inkluyuziv ta'lif tizimida innovatsion klasterni joriy etish natijasida biz ta'lif tizimida, maktab o'quvchilarining fanlarni o'zlashtirish yuzasidan har tomonlama sezilarli darajada natijalarini ko'rishimiz mumkin.

**"Pedagogik desantura"** professionallar klubni ish faoliyati o'z yo'l xaritasiga ega.

1. Talabalarni kuzatish
2. Diagnostika qilish
3. Amaliy mashg'ulotlarda imitatSION muhit yaratish
4. Maktab o'qituvchisiga biriktirish
5. Dars o'tish (feedback)

Desant talabalarimiz dars jarayonini avval kuzatib "Maxsus pedagogika" kafedrasi professor-o'qituvchilari bilan birgalikda tahlil qilib olishadi. Har bir desant talaba o'z didaktik sandig'iga ega bo'lib dars jarayonida tayyorlagan metodikalardan imkoniyati cheklangan bolalarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib foydalanishi talab etiladi. Sinfdag'i barcha imkoniyati cheklangan hamda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar desant talaba nazaridan chetda qolmaydi. Chunki bu o'quvchilardagi kichik ijobjiy o'zgarish ham bizni maqsad sari yetaklovchi kuch sanaladi. Biz qilgan ish alohida yordamga muhtoj o'quvchilarimiz oddiy, passiv ishtirokchi sifatida emas

balki faol o'quvchi bo'lib faol o'quvchi bo'lib ertangi ta'limgbosqichiga qiyinchiliklarsiz o'ta oladigan bo'lishi kerak. Mavzularni faol o'zlashtira olgan shaxs keyingi oliy ta'limgjarayonida birinchidan, akademik bilimlarga ega bo'la oladi. Ikkinchidan, o'ziga bo'lgan ishonch ortganligi sababli psixologik jihatdan ongini tayyorlab olgan bo'ladi. Uchinchidan, boqimandalik hissini yengib o'tib, hayotda o'z o'rnnini topishga harakat qila oladi. Hozirgi kunda zamonaviy kadrlarga qo'yiladigan talablardan biri transformatsion faoliyat asosida o'quv jarayonlarini olib borish hisoblanadi.

Transformatsion faoliyatda mavzu yoki maqsadimiz o'zgarmaydi balki ma'lum bir elementi o'zgaradi xolos. Misol uchun, o'qituvchi darsni olib boorish uchun ma'lum bir metodikani tayyorlab keladi lekin o'quvchining beqaror holati bu metodikaning ishlamay qolishiga olib kelishi mumkin. Bu holat dars maqsadiga ta'sir ko'rsatmasligi kerak ya'ni transformatsion faoliyat o'quvlari, ko'nikmalari talab etiladi. Bundan ko'rinish turibdiki, shu usulning o'zida ma'lum bir elementni o'zgartirish kerak bo'ladi.

**"Pedagogik desantura"** professionallar klubi yana bir muhim jihat shundaki, talaba o'zini o'qituvchi o'rnida ko'ra oladi. O'tilishi kerak bo'lgan mavzu yuzasidan 1 hafta oldin tanishgan bo'lishi kerak, dars uchu kerak bo'lgan metodikalar va resurslarni tayyorlab oladi, harakat nuqtasini taqsimlab oladi, dars yakunlangandan so'ng talabalar o'zaro muhokama jarayonini olib boradi.

### **Uchinchi bob yuzasidan xulosa**

Ushbu bobda inkyuziv ta'limga imkoniyati cheklangan bolalarni jalb etishda oila, mahalla ishtirotkini kuchaytirish yuzasidan ishlar mazmuni, bola tarbiyasida mahallaning o'rni hamda innovatsion ta'limg klasteri muhitida inkyuziv ta'limg tizimini samarali tashkil etishdagi muhim vazifalari yoritib berilgan.

Ta'limg klasteri asosida inkyuziv ta'limg samaradorligini oshirishning samarali omillarini aniqlashni maqsadli yo'lga qo'yish ish turlari va shakkllari sifatida "Pedagogik desantura" professionallar klubining joriy etilganligi hamda ishlari mazmuni, qiyosiy tahlil natijasida erishilgan natijalar va ijobiy o'zgarishlar haqida so'z borgan.

## **Umumiyl xulosa**

Uzluksiz ta'limning ilk bosqichi sifatida maktabgacha ta'limga e'tibor bevosita shaxs rivoji, kamolotiga, baxtli farzandlarni voyaga yetkazishga g'amxo'rlik sifatida ifodalanadi. Shunday ekan ushbu qaror asosida amalgaloshirilishi kerek bo'lgan ishlar maktabgacha ta'lim tizimini, yanada takomillashtirib, samarali va zamonoviy ko'rinishga olib chiqadi. Zero taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk irodasi baquvvat, iymoni butun, zamonaviy fikrlaydigan, muayyan kasb hunarga ega bo'lgan yuksak salohiyatlari kishilar hal etadi. Shu o'rinda alohida qayd etish zarurki, yurtimizda yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash voyaga yetkazish borasida ko'plab ishlar amalgaloshirilmoqda.

Ta'lim-tarbiya islohoti haqida gapirar ekanmiz, uning mazmunini lo'nda qilib ifoda etish mumkin: bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak. Barkamol avlod deganda, avvalo, sog'lom nasl tushuniladi. Shu bois o'tgan yillar mobaynida yoshlarimizda nafaqat yuksak intellektual salohiyat, mustaqil fikr, keng dunyoqarashni shakllantirishga, balki ularni jismonan chiniqtirishga, ommaviy sportni rivojlantirishga, mamlakatimizning barcha hududlarida, xususan chekka qishloqlarda ham zamonaviy sport majmualari buniyod etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kelajagi buyuk davlatda yashayotgan xalqni har tomonlama komil insonlar bo'lishi talab etiladi. Shaxsning komilligi deyilganda aqliy, axloqiy, ruhiy, jismoniy va estetik jihatdan kamolotga erishgan kishilar tushuniladi. Bunday sifatlarga erishish uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, ko'pgina omillarga bog'liqdir.

Ruhiy-jismoniy rivojlanishi va ta'lim ehtiyojlardidan kelib chiqib, imkoniyatlari cheklangan har bir bolaning sog'lom bolalar bilan birgalikda tarbiya va ta'lim olishining zarur shakllarini tanlashni ta'minlash. Bolaning ta'lim tizimiga jalb qilinishining biror ko'rinishi u uchun oddiy va foydali bo'lishi darkor, ayni paytda bu inklyuziv ta'lim maromida rivojlanayotgan tengdoshlarining sifatli ta'lim olishiga halaqit bermasligi lozim. Inklyuziv ta'limning barqarorligini ta'minlash

maqsadida "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahririga imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim jarayoniga integratsiyalash maqsadida umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim muassasalarida inklyuziv guruh va sinflarning tashkil qilinishini tartibga soluvchi moddalar kiritilgan.

Nogiron bolaning individual yoki tibbiy holatda matabga yoki jamiyatga moslashishi kerak. Masalan, eshitishida nuqsoni bo'lgan bola umumta'lim sharoitiga moslashishi uchun eshituv apparatidan foydalanib gapirishni o'rganishi kerak. Sog'lom boladan esa imo-ishora tilini va muloqotning boshqa shakllarini o'rganish talab qilinmaydi. O'qishda muammo bo'lsa, bola standart talablarini bajarishi kerak. Aks holda o'qituvchi qo'shimcha mashhulotlar o'tilishi lozim. Inklyuziv ta'lim bolani emas tizimni o'zgartirishni taqozo qiladi. Nazariy adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida integratsion va inklyuzivlik tushunchalarining o'rtasida umumiylilik ham mavjudligi o'ganildi, bu umumiylilik zamirida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim tizimi sharoitiga kiritish yotadi.

Ta'lim klasteri sharoitida ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida "Pedagogik desantura" professionallar klubini tashkil etildi. "Pedagogik desantura" professionallar klubining muhim jihat shundaki, talaba o'zini o'qituvchi o'rnida ko'ra oladi. O'tilishi kerak bo'lgan mavzu yuzasidan 1 hafta oldin tanishgan bo'lishi kerak, dars uchu kerak bo'lgan metodikalar va resurslarni tayyorlab oladi, harakat nuqtasini taqsimlab oladi, dars yakunlangandan so'ng talabalar o'zaro muhokama jarayonini olib boradi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etishning me'yoriy asoslari yaratildi. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da "Fan, ta'lim, ishlab chiqarish integratsiyasi asosida turli ta'lim xizmatlari sifatini takomillashtirish, ta'lim mazmunini individuallashtirish, variativlashtirish" ustuvor vazifalar sifatida belgilab olindi.

Imkoniyatlari cheklangan bolalarning, hoh u maxsus maktab, maktabgacha muassasalar bo'lsin, hoh umumta'lim muassasalar qoshidagi sinf yoki guruhlar bo'lsin, hoh uyda

ta'lim olish bo'lsin - o'qitishning barcha shakllari-ta'lim sohasiga jalb qilinishi ma'lum jihatdan integratsiya jarayoni hisoblanadi, chunki o'qish davrida va undan keyin ham bu bolalar boshqa bolalar, shu jumladan umumta'lim muassasalarda ta'lim olayotgan bolalar bilan o'zaro muloqotda bo'ladilar, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga uyg'unlashuvi ta'minlanadi.

Respublikamiz oliy ta'lim tizimida fanlarni o'qitish jarayoniga jahonning ilg'or tajribalarini joriy etish, uzlucksiz ta'lim tizimida o'zaro manfaatdor hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha, maqsadlarni integratsiyalashtirish, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishning me'yoriy asoslari yaratildi. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da "Fan, ta'lim, ishlab chiqarish integratsiyasi asosida turli ta'lim xizmatlari sifatini takomillashtirish, ta'lim mazmunini individuallashtirish, variativlashtirish" ustuvor vazifalar sifatida belgilab olindi. Imkoniyatlari cheklangan bolalar o'qitishning barcha shakllari-ta'lim sohasiga jalb qilinishi ma'lum jihatdan integratsiya jarayoni hisoblanadi, chunki o'qish davrida va undan keyin ham bu bolalar boshqa bolalar, shu jumladan umumta'lim muassasalarda ta'lim olayotgan bolalar bilan o'zaro muloqotda bo'ladilar, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga uyg'unlashuvi ta'minlanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23-sentyabr.O'RQ-637-son <https://lex.uz/docs/5013007>

2.O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni,2008 yil 7-yanvar O'RQ-139-son <https://www.lex.uz/acts/1297315>

3.O'zbekiston Respublikasining "Keksalar, nogironlar va ahollining boshqa ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to'g'risida"gi Qonuni 2016 yil 26 dekabrdagi PQ-415-son <https://www.lex.uz/docs/3083192>

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/3107036>

5.O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2017 yil 1 dekabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-sonli Farmoni. <https://www.lex.uz/acts/3436192>

6.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2007 yil 17 maydag'i "Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari faoliyati to'g'risida" 2007 yil 17 maydag'i PQ-100-son Qarori. <https://lex.uz/docs/1203085>

7.O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi "Alohiba ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son Qarori. <https://lex.uz/docs/5044711>

8.2020-2025 yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'lim Inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiysi. O'z.Res.Prezidenti. 13.10.2020y PQ 4860-son

9. Ibadullayeva, Sh. N. (2023). BO'LAJAK MAXSUS PEDAGOGLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA MALAKAVIY AMALIYOT DAVRI. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 14, 347-350.

10. Ibadullayeva, Sh. N. (2022). INKLIZIV TA'LIM-IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARНИ IJTIMOIY HAYOTGA

TAYYORLASH. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 9, 81-84.

11. Ibadullayeva, Sh. N., & Muvassarova, S. J. (2022). MENDAN KEYINGI 1000 QADAM SENIKI. Scientific Impulse, 1(5), 1663-1666.

12. Ibadullayeva, Sh. N. (2022). PEDAGOGIK DESANTURA. Scientific Impulse, 1(5), 132-134.

13. Ibadullayeva, S. N., Xabibullayeva, S. F., & Otajonova, R. S. (2022). O 'ZBEKISTONDA INKLUYZIV TA'LIM. Scientific Impulse, 1(5), 135-138.

14. Ibadullayeva, Sh. N. (2022). INKLYUZIV TA'LIMNING MOHIYATI. Scientific Impulse, 1(5), 142-145.

15. Ibadullayeva, Sh. N. (2022). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INKLYUZIV TA'LIMNING ILK BOSQICHLARI. Scientific Impulse, 1(5), 2334-2338.

16. Ibadullayeva, Sh. N. (2022). ZAIF ESHITUVCHI BOLALARNI NUTQIY JIHATDAN TAYYORLASH FAOLIYATINING AHAMIYATI. Uzbek Scholar Journal, 10, 205-208.

17. Ibadullayeva, Sh. N. (2022). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL SUPPORT OF PARENTS OF CHILDREN IN NEED OF SPECIAL HELP. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11), 739-742.

18. Ibadullayeva, Sh. N. (2022). Eshitishida Nuqsoni Bo'lgan Shaxslarning Muloqoti Uchun Qilinayotgan Ishlar Amalda. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 12, 227-229.

19. Ibadullayeva, Sh. N. (2022). Inklyuziv ta'limgimkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 9, 81-84.

20. Qodirova, F., & Ibadullayeva, Sh. N. (2022). Barcha bolaga birdek sifatli ta'limgimkoniyati ta'minlash davr talabi. Inklyuziv ta'limgimkoniyati, 1(1), 243-246.

21. Пути кластеризации экономики с целью повышения конкурентоспособности Запорожской области / Соколенко С. И. [и др.]. //Международная Фундация содействия рынку;

Союз экономистов Украины; Торгово-промышленная палата Украины; ОАО «Укримпэкс»- Киев.-2010

22. Bagudina, Ye.G. Ekonomicheskiy slovar / Ye.G. Bagudina. - M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2006. - S. 597.

23. Bolshoy psixologicheskiy slovar / N.N. Avdeyeva i dr.; pod red. B.G. Mesheryakova, V.P. Zinchenko. - 4-ye izd., rassh. - M.: AST; SPb.: Praym-Yevroznak, 2009. - 811 s.

24. Deklaratsiya o pravax umstvenno otstalix lits (OON, 1971) [Elektron resurs]

25. Dushkov, B.A. Ensiklopedicheskiy slovar: Psixologiya truda, upravleniya, injenernaya psixologiya i ergonomika / B.A. Dushkov, A.V. Korolev, B.A. Smirnov. - 2005. - 463 s.

26. Federalnyi zakon ob obrazovanii lits s ogranicennymi vozmojnostyami zdorovya (spetsialnom obrazovanii) ot 2 iyunya 1999 goda.

27. Federalnyi zakon ot 24.07.1998 №124-FZ (red. ot 13.07.2015) "Obosnovnykh garantiyakh prav rebenka v Rossiyskoy Federatsii"

28. frazeologicheskix vyrajeniy / S.I. Ojegov, N.Yu. Shvedova. Rossiyskaya akademiya nauk. Institut russkogo yazika im. V.V. Vinogradova. - 4-ye izd., dopolnennoye. - M. : OOO «Izdatelstvo ELPIS», 2003. - 944 s.

29. Maktablar hamma uchun"- "Bolalar ni qutqaring jamg'armasi" -2002 yil.

30. Muminova L.R., Ayupova M.Yu. Logopediya. T., 1995

31. Nazarov X.E. Matematika o'qitish metodikasi.Samarqand.: 2019-97 b.

32. Nazarova N.M. Maxsus pedagogika, II bo'lim. Maxsus ta'limga muhtoj shaxslar uchun maxsus ta'limg. 1-bob. Maxsus pedagogika didaktikasi asoslari 1.2. Maxsus ta'limg tamoyillari// ACADEMA - M, 2000 y.

33. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sen Farmoni

34. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, 2008 yil 7-yanvar O'RQ-139-sen

35. O'zbekiston Respublikasining "Keksalar, nogironlar va aholining boshqa ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to'g'risida"gi Qonuni 2016 yil 26 dekabrdagi PQ-415-son
36. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23-sentyabr. O'RQ-637-son
37. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2017 yil 1 dekabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-tonli Farmoni. 6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2007 yil 17 maydag'i "Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari faoliyati to'g'risida" 2007 yil 17 maydag'i PQ-100-ton Qarori
38. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi "Alovida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'limgartarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-ton Qarori.
39. Ojegov, S.I. Tolkoviy slovar russkogo yazika: 8000 slov i
40. Psixologicheskiy slovar / avt.-sost. V.N. Koporulina, M.N. Smirnova, N.O. Gordeyeva, L.M. Balabanova; pod obshchey red. Yu.L. Neymera. - Rostov-na-Donu: Feniks, 2003. - 640 s.
41. Pulatova F., Oligfrenopedagogika .G'ofur G'ulom, 2006
42. Qaharova D.S Ummumta'lim maktablarida inkyuziv ta'limgarting pedagogik-psixologik jihatlarini takomillashtirish.
43. Qodirova F.U. Maxsus ta'lim o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash omili sifatida. "Boshlang'ich ta'lim va jismoniy madaniyat yo'naliishida sifat va samaradorlikni oshirish: muammlo va yechimlar". O'zbekiston res'ublikasi oliy va o'rta maxsus ta'limgartarbiya vazirligi. ToshDU. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, ToshDJTI. Xalqaro konferentsiya materiallari. Toshkent, 2017. -B. 157-159.
44. Qodirova F.U. Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash va jamiyatga uyg'unlashtirish muammolari va ularning samarali yechimlari.// "S'etsialg'naya inkyuziya: novqe orientirq sotsializatsii detey". Res'ublika

- bolalar ijtimoiy moslashuvi Markazi. Xalqaro konferentsiya materiallari to'lami. Toshkent, 2017. -B89-91.
45. Qodirova F.U. Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda innovatsion texnologiyalarning o'rni.// Maktab va hayot.-Toshkent, 2018. -№ 7. -B. 12-15. (13.00.00, № 2).
46. Raxmanova V.S Maxsus pedagogika G'ofur G'ulom nashriyoti, Toshkent, 2004
47. Roy Mark Konki "Inkluyuziv sinflarda o'quvchilar ehtiyojlarini anglash va bu ehtiyojlarni qondirish" Toshkent-YUNESKO-2004yil. O'qituvchilar uchun qo'llanma.
48. Salamanskaya deklaratsiya o prinsipax, politike i prakticheskoy deyatelnosti v sfere obrazovaniya lits s osobymi potrebnostyami: Prinyata Vsemirnoy konferensiye po obrazovaniyu lits s osobymi potrebnostyami: dostup i kachestvo. Salamanka, Ispaniya, 7-10 iyunya 1994 g. // Psixologopedagogicheskoye konsultirovaniye i soprovojdeniye razvitiya rebenka: posobiye dlya uchiteley- defektologov / pod red. L.M. Shipitsynoy. - M.: Gumanit. izd. sentr VLADOS, 2003.S. 159-162.
49. Sanbergskaya deklaratsiya (YUNE SKO, Torremolinos, Ispaniya, 1981)
50. Shomaxmudova R. Bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni bartaraf etish. T., 2001
51. Sodiqova G.A., Nurkeldiyeva D.A. Rivojlanishi orqada qolgan bolalar diagnostikasi (ma'ruzalar matni) T., 2001
52. Standartniye pravila OON po obespecheniyu ravnix vozmojnosteyst dlya invalidov (OON, 1993)
53. Yefremova, T. F. Novyyi slovar russkogo yazika. Tolkovo-slovoobrazovatelnyy / T.F. Yefremova. - Moskva: Drofa, 2000. - 465s.
54. Митенев В.В., Гулый И.М. Теоретико-методологические основы кластерных систем.
55. Намазбеков М. Кластерное развитие в условиях глобализации:  
опыт зарубежных стран.
56. Павлова Т.С. В образовательном кластере Москвы педагогов

научат учить детей поновому / Т. С. Павлова // Учебно-методический кабинет.

57. Портрет М. Конкуренция. – СПб.,–М.,–Киев: Издат. дом «Вильямс»,2001.–С.208.

58. Решетникова М.В. Москве появится образовательный кластер на 5,5 тысяч учеников / М. Решетникова // M24.ru

59. Стоуньер Т. Информационное богатство: профиль постиндустриальной экономики. Новая технологическая волна на Западе /Под ред. Гуревича П.С. – М.: Прогресс, 1986. – С. 24.

60. Управление школой: теоретические основы и методы: Учебное пособие / Под ред. В.С.Лазарева. -М.: Центр социальных и экономических исследований, 1997. -336 с.

61. Vvedenskiy, V.N. Modelirovaniye professionalnoy kompetentnosti pedagoga / V.N. Vvedenskiy // Pedagogika. — 2003. — № 10. — S. 51-55.

62. Verbitskiy, A.A. Kompetentnostnyu podxod i teoriya kontekstnogo obucheniya / A.A. Verbitskiy // Materialy ko vtoromu zasedaniyu metodologicheskogo seminara. - М.: Issledovatelskiy sentr problem kachestva podgotovki spetsialistov, 2004. — 85 s.

63. Vygotskiy, L.S. Sobranie sochineniy : v 6 t. // L. S. Vygotskiy. — M. : [b. i.], 1983. — T. 5.

64. Galkina, O.V. Rol i mesto ponyatiya "organizatsionno-pedagogicheskie usloviya" v terminologicheskem apparete pedagogicheskoy nauki: dis. ... kand. ped. nauk. / O.V. Galkina. — Samara, 2009. — 187 s.

65. George, S.V. Teoreticheskie konsepsii i podxody kak osnova modeli formirovaniya kompetentnosti v zdorovesberejenii spetsialistov neftegazovoy otrasi / S.V. George // Vyshee obrazovanie segodnya. — 2011. — № 8. — S. 23 — 25.

66. Goneev, A.D. Problema podgotovki budushix pedagogov k realizatsii inklyuzivnogo obrazovaniya detey s osobymi

obrazovatelnymi potrebnostyami / A.D. Goneev, E.G. Samarseva // Uchenye zapiski Orlovskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya: Gumanitarnye i sotsialnye nauki. — 2013. — № 4. — S. 341-345.

67. Gonobolin, F.M. Kniga ob uchitele. / F.M. Gonobolin. — M.: Prosveshchenie, 1965. — 172 s.

68. Gordenko, N.V. Formirovanie akademicheskix kompetensiy u studentov vuzov: dis. ...kand. ped. nauk: 13.00.08 / Gordenko Natalya Vladimirovna. -Stavropol, 2006. — 168 s.

69. Grebneva, V.V. Psixologicheskaya gotovnost studentov k lichnostno- sentrirovannomu vzaimodeystviyu v protsesse obrazovaniya v vuze: dis. ... kand. ped. nauk : 13.00.08 / Grebneva Valentina Viktorovna. — Belgorod, 2003. — 229 s.

70. Gudonis, V.P. Integriruvannoe obuchenie detey s narusheniyami zreniya /V.Gudonis, M. Barkauskayte // Defektologiya. — 2006. — № 3. — S. 78-82.

71. Daxin, A.N. Pedagogicheskoe modelirovaniye: sifnost, effektivnost i ... neopredelennost / A.N. Daxin // Standarty i monitoring v obrazovanii. — 2002. — № 4. — S. 22 — 26.

72. Denisova, O.A. Strategiya i taktika podgotovki pedagogov inklyuzivnogo obrazovaniya / O.A. Denisova, V. N. Ponikarova, O.L. Lexanova // Defektologiya : nauchno-metodicheskiy jurnal. — 2012. —№ 3. — S. 81-89.

73. Derkach, A.A. Gotovnost k deyatelnosti kak akmeologicheskiy fenomen / A.A. Derkach, E.V. Selezneva, O.V. Mixaylov. — M. : Izd-vo Ros. akademii gos. slujby, 2008. — 96 s.

74. Dmitrieva, O.B. Formirovaniye psixologicheskoy gotovnosti molodых spetsialistov k professionalnoy deyatelnosti: dis. ... kand. psixol. nauk: 19.00.13 / Dmitrieva Olga Borisovna. — M., 1997. — 188 s.

75. Dryagina, I.S. Sozdanie professionalnogo pedagogicheskogo soobshchestva kak osnovnoy resurs razvitiya inklyuzivnogo obrazovaniya / I.S. Dryagina // Defektologiya : nauchno-metodicheskiy jurnal. — 2013. — № 1. — S. 68 - 74.

76. Duray-Novakova, K.M. Formirovaniye professionalnoy gotovnosti studentov k pedagogicheskoy deyatelnosti: dis. ... d-ra ped. nauk : 13.00.08 / Duray- Novakova Kristina Mechislavovna. — M., 1983. — 356 s.

77. Dusha cheloveka / Pod red. E. Fromm; per. s angl. Izdatelstvo AST-LTD, 1998.— 664 s.
78. Dyachenko, M.I. Psixologicheskaya gotovnost / M.I. Dyachenko, L.A. Kandibovich. — M. : Nauka, 1986. — 122 s.
79. Dyachenko, M.I. Psixologicheskie problemy gotovnosti k deyatelnosti / M.I. Dyachenko, L.A. Kandibovich. — Minsk: Izd-vo «Universetskoe», 1976. — 165 s.
80. Ekjanova, E.A. Osnovy integrirovannogo obucheniya [Tekst] / E.A. Ekjanova, E.V. Reznikova. — M. : Drofa, 2008. — 208 s.
81. Elkanov, S.B. Osnovy professionalnogo samovospitaniya budushego uchitelya / S.B. Elkanov. — M. : Prosveschenie, 1989. — 189 s.
82. Enikeev, M.I. YUridicheskaya psixologiya s osnovami obychei i sotsialnoy psixologii: uchebnik dlya vuzov / M.I. Enikeev. — M. : Norma. — 2005. — 640.
83. Ermolaev, O.YU. Matematicheskaya statistika dlya psixologov: Uchebnik / O.YU. Ermolaev. — 3-e izd., ispr. — M. : Flinta, 2004. — 336 s.
84. Jilina, A.I. Sistemnyy podxod kak metodologiya pedagogicheskogo issledovaniya / A.I. Jilina // Chelovek i obrazovanie. — 2007. — № 10-11. — S. 15-20.
85. Juk, O.L. Pedagogika. Praktikum na osnove kompetentnostnogo podxoda : ucheb. posobie / O.L. Juk, S.N. Sirenko; pod obysh. red. O.L. Juk. — Mn.: RIVSH, 2007. — 192 s.
86. Juk, O.L. Pedagogicheskaya podgotovka studentov: kompetentnostnyy podxod / O.L. Juk. — Minsk : RIVSH, 2009. — 336 s.
87. Jukova, V.F. Psixologo-pedagogicheskiy analiz kategorii «psixologicheskaya gotovnost» / V.F. Jukova // Izvestiya Tomskogo politexnicheskogo universiteta. — 2012. — № 6. — S. 117-121.
88. Zeer, E.F. Modernizatsiya professionalnogo obrazovaniya: kompetentnostnyy podxod / E.F. Zeer, A.M. Pavlova, E.E. Symanyuk. — M.: Izd-vo MPSI, 2005. — 216 s.
89. Zimnyaya, I.A. Klyuchevye kompetentnosti kak rezultativno-selevaya osnova kompetentnostnogo podxoda v obrazovanii / I.A. Zimnyaya. - M.: Issledovatelskiy sentr problem kachestva podgotovki spetsialistov, 2004. — 40 s.
90. Zimnyaya, I.A. Kompetentnost cheloveka - novoe kachestvo rezultata obrazovaniya / I.A. Zimnyaya. — Rejim dostupa: <http://www.bigpi.biysk.ru>.
91. Zimnyaya, I.A. Pedagogicheskaya psixologiya: uchebnik dlya vuzov / I.A. Zimnyaya. M. Logos, 2000.-367s.
92. Zimnyaya, I.A. Sotsialno-professionalnaya kompetentnost kak selostnyy rezultat professionalnogo obrazovaniya (idealizirovannaya model) / I.A. Zimnyaya // Problemy kachestva obrazovaniya. Kn. 2. - M., Ufa: Issledovatelskiy sentr problem kachestva podgotovki spetsialistov, 2005. — 40 s.
93. Ilin, S.S. Psixologicheskaya gotovnost spetsialista k upravlencheskim professiyam: soderjanie, struktura, diagnostika: dis. ... kand. psix. Nauk : 19.00.03 / Ilin Sergey Sergeevich. — M., 1999. — 157 s.
94. Kalinina, I.A. Psixologicheskaya gotovnost studentov k professionalnoy deyatelnosti i ee vzaimosvyaz s uspeshnostyu obucheniya : dis. ... kand. ped. nauk : 19.00.07 / Kalinina Irina Anatolevna. — M., 2007. — 232 s.
95. Kashlach, I.F. Podgotovka budushih uchiteley k razvitiyu logicheskoy pamyati uchashchixsa obycheobrazovatelnix uchrejdeniy: dis. .kand. ped. nauk: 13.00.08 / Kashlach Irina Fedorovna. — SPb., 2006. — 187 s.
96. Klyueva, N.V. Sotsialno-psixologicheskoe obespechenie deyatelnosti pedagoga (sennostno-refleksivnyy podxod) : dis. d-ra. psixol. nauk : 19.00.05 / Klyueva Nadejda Vladimirovna. — Yaroslavl, 2000. — 322 s.

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	3
<b>I BOB Innovatsion ta'lif klasteri asosida inklyuziv ta'lif jarayonini tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari.....</b>	7
<b>1.1 Ta'lif klasteri manfaatli hamkorlikning innovatsion mexanizmi sifatida.....</b>	7
<b>1.2 Inklyuziv ta'lif- imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali omili sifatida...</b>	39
<b>Birinchi bob yuzasidan xulosa.....</b>	57
<b>II BOB Ta'lif klasteri sharoitida inklyuziv ta'lifni tashkil etishning pedagogik - psixologik, metodik shart-sharoitlarini o'rganish.....</b>	58
<b>2.1 Sharq mutafakkirrlarining imkoniyati cheklangan bolalar ta'limga oid pedagogik nazariyalari.....</b>	58
<b>2.2 Maktabgacha ta'lif tashkiloti va umumiy o'rta ta'lif maktablari hamkorligini eksperimental o'rganish metodikasi.....</b>	75
<b>Ikkinchchi bob yuzasidan xulosa.....</b>	89
<b>III BOB Ta'lif klasteri sharoitida inklyuziv ta'lifni tashkil etishning samarali mexanizmlari.....</b>	90
<b>3.1 Inklyuziv ta'limga imkoniyati cheklangan bolalarni jalb etishda oila mahalla ishtirokini kuchaytirish ishlar mazmuni.</b>	
<b>3.2 Ta'lif klasteri asosida inklyuziv ta'lif samaradorligini oshirishning samarali omillarini aniqlashni maqsadli yo'lga qo'yish ish turlari va shakllari.....</b>	105
<b>Uchinchi bob yuzasidan xulosa.....</b>	111
<b>Umumiy xulosa.....</b>	112
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....</b>	115

IBADULLAYEVA SHAROFAT NURULLAYEVNA

## TA'LIM KASTERI ASOSIDA INKLYUVIV TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

mavzusidagi  
MONOGRAFIYA

Muharrir:	X. Taxirov
Tehnik muharrir:	S. Melikuziva
Musahhib:	M. Yunusova
Sahifalovchi:	A.Ziyamuhamedov

Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й  
 Bichimi 60x84<sup>1</sup>/16. "Cambria" garniturası, kegli 16.  
 Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 8. Adadi  
 100 dona. Buyurtma № 2118684

Osiyo tur MCHJda chop etildi.

**QAYDLAR UCHUN**

**QAYDLAR UCHUN**